



ikkinci hayot

Hikayalar

• JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN •

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

IKKINCHI HAYOT

Hikoyalari



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UO'K 821.21-32
KBK 84(5Hind)-445
Ch 20

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Erkin A'zam, Kurshid Do'stmuhammad,
Suvon Meliyev, Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov,
Nurboy Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**


Tarjimonlar:
Nodirabegim Ibrohimova va b.

Ch 20 **Chandra, Anil**
Ikkinchı hayot. [Matn]: hikoyalar / Anil Chandra;
tarjimonlar: N. Ibrohimova va b. – T.: „Ziyo nashr“
nashriyoti, 2022. – 128 b.

ISBN 978-9943-8578-2-7

Anil Chandraning „Ikkinchı hayot“ deb nomlangan hikoyasi
ostida jamlangan ushbu to'plamdan jahon adiblarining qiziqarli
hikoyalari o'rın olgan. Bu hikoyalar sizni o'ylashga, fikrlashga
chorlashi bilan e'tiborlidir.

UO'K 821.21-32
KBK 84(5Hind)-445



ISBN 978-9943-8578-2-7

© N. Ibrohimova va b. (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

NASHRIYOT DAN

Biz o'tgan mingylliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqımız. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad al-Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nighoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'ssak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Biz bugun, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izhil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izhil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarurdir.

Xalqımız ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishhasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N. Tolstoy, A. Dyuma, N.V. Gogol, O.de Balzak, A.P. Chekhov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandr, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasisz.

Mazkur yuz jiddlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinni olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratlari tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jiddlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy mezonlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jiddligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar, degan umiddamiz.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, joyajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

DERAZA ORTIDAGI SHAMOL

Ko'zgu oldida to'xtadim. Uni qizil zanglagan chiziqlar qoplagan – darz ketgan edi. Zanglarning tubi, yoriqlarning tubi ortida bir darbadar va daydi aylanib yurardi. Yoriqlar ortidagi hamma joyni tuman qoplagan. Derazadan xonaga shamol kirmoqda. Shamol tokcha labidagi shishalarni tebratadi. Deraza ortidagi shamolda anchadan beri yig'layotgan chaqaloq ovozini eshittdim. Tashqariga biror chaqaloqni tashlab ketishgan, deb o'yladim. Ovoz borgan sari kuchayar, qulqlarim ichida aylanardi. Boshimni qo'llarim orasiga oldim. Chakkalarimni siqdim. Butun tanam titray boshladi. Devorga suyandim. Boshimni egib, yerga o'tirdim. Shamol tingan paytda, yig'i ovozi ham to'xtardi. Xotirjam bo'ldim. Uxlagim kelardi. O'ylashni istamasdim. Kimdir meni kuzatar, qadamlarimni sanardi. Hatto nafaslarimni ham. Quruq sovuq badanimga o'rmalab kirar va beixtiyor qaltirardim. Pardalar tarang tortilgan. Tunmi yoki kunduz – bilmayman. Uzoq vaqtdan beri zulmat ichra yashayapman. „Tush“ zulmatni suymaydi. Yomg'ir yog'yapti. Oynalar sinig'idan, derazalarning yoriqlaridan xonaga loyqa yomg'ir sizyapti. Shamol qo'lim bog'lamlaridan o'tib, jarohatim oralariga kiryapti. Nega zulmatdan zulmatning farqi bor?

Qabr ichidagi zulmatning bu xonadagi zulmatdan nima farqi bor? Bu xonadagi zulmatdan qabrdagi zulmatning farqi shuki, murdani qabr ichiga qo'yayotganimda bir zulmatni ko'rib, qo'rqedim. Shu zahoti murdani qabr ichiga tashlab yubordim. Soyaning qovoqlari ortidagi zulmat go'r tubidagidan farq qiladi. O'rnimdan turdim va borib oshxonadagi stolga o'tirdim. Stolga boshimni qo'ydim. Chanqagan edim. Stoldagi stakanga tikildim. Uning ichida Soyaning rasmi ivib ketgandi. Boshimni ko'tardim. Muzlatkich eshigiga yopishtirilgan rasmga qaradim. Men, Tush va Soya. Bir-birimizning qo'llarimizni ushlab olganmiz. O'zining aytishicha, bu yam-yashil joy jannat emish.

O'rnimdan turib, muzlatkich tomon yurdim, birdan boshim aylanib ketdi. Atrofimda rasm aylanardi – rasm atrofida esa men. Mashina temiryo'l soqchilarini urib yubordi. Soya uyquda. Tush chinqirdi, boshim mashinaning old oynasiga urildi. Qo'lim stakanga tegib ketdi; yerga tushib chil-chil sindi. Mashina dara tubiga ketar va daraxtlarga urilardi. Oyoqlarim siniq shishalar ustida yurib borar, tovonlarim qonardi. Qaytib kelib, Soyaga qaradim. Uning qovoqlari ortidagi tun mashina ketib borayotgan tundan ham quyuqroq edi. Quloqlaridan oqayotgan qon sariq ziraklarini qizartirib yuborgan. Oshxona poliga yiqildim, dara tubini og'ir sukunat egalladi. Oshxona poli qip-qizil bo'ldi. Koshkiydi kimdir paydo bo'lib, chakkamga miltiq tirasa! Yoki og'zimga trubasini qo'yib, baqirsa: „Jim bo'l, joyingdan qimirlama! Bo'lmasa, tepkini bosaman!“ Qaniydi, kimdir „To'xta!“ deb farmon bersal

Bajarayotgan yoki qo'l urgan ishlarim, qabul qilgan har bir qarorim vaziyatni battar qilayotganga o'xshardi. Bu ishni har doim qilganman deb o'ylayman. Mana shuning uchun ham u bir haftadan so'ng uydan kasalxonaga ketdi. Balki, otasinikida – shahardadir?! Chunki bu shaharda hech kimimiz yo'q edi. Hech nima demadi... Menga qaradi. Shunday qilib, aybdorman va aybdor edim deb o'ylayman. Soyaning xonasi yonida to'xtadim. Eshikni ochdim, mis qo'ng'iroq ovozi uy bo'ylab yoyildi: jiring-jiring. Qo'ng'iroq sadosi miyamga yugurdi. Ovoz shu qadar baland edi-ki, quloqlarimni qo'llarim bilan yopishga majbur bo'ldim. Boshimga og'riq kirdi.

Xona qop-qorong'i edi. Yerdagi qo'g'irchoqni bosib oldim. Xonaga qo'shiq ovozi yoyildi. „Hay“ (inglizcha „Hi“) qo'shig'i takrorlandi: ikki marta, uch marta. Jahlim chiqib ketdi. Chiroqni yoqdim. Oynada katta surat bor edi – Men, Tush va Soya. Bir yillik Soya. Dadamning aytishicha, biz – Men va Soya o'sha kunni bayram qilgan ekanmiz. Bu kun va soniyalarni suratga muhrlashni istagan ekanmiz. Biz vaqt o'tib, suratning oynadan joy olishini va qo'llarimizdan tushib ketishini bilmagandik. Surat esa biz uchun Soya bo'lomasdi.

Yana bola yig'isini eshitdim. Derazaga yaqinlashxdim. Chinor daraxtining shoxlariga, goh o'ngga aylanayotgan, goh chapga aylanayotgan va yomg'irdan namiqqan asfaltga to'kilayotgan barglarga tikildim. Sarg'aygan barglar u yer-bu yerga sochilgan. Ro'paradagi uyning o'ng tomonidagi chinor tagida bir qiz turibdi. Soyami? Paltosi binafsharang edi.

Ortimga qayrilib, tezlik bilan pastga yugurdim. Pillapoyaning ikki pog'onasini bittalab ko'chaga chiqdim. Biroq, u yo'q edi. Daraxtning tagida hech kim yo'q. Hatto ko'chada ham. Simyog'och chiroqlari yorug' edi. Nafaslarim bir lahzada yuzim atrofini bulutdek qoplar va zumda g'oyib bo'lardi. Yana boshim aylandi. Daraxt atrofida aylan-dim. Daraxt mening atrofimda aylandi. Soyaga qaradim, Tush sekin ko'zlarini ochdi. Barglarni bosgancha ketdim. Tush Soyani ko'rib qichqirdi. Soyani qo'llarimga oldim-da, katta yo'l tomon ket-dim. Yo'lni tuman qoplagan, hech kim yo'q edi. Shundoqqina oyoqlarim yonida bir mashina tor-moz berdi. Haydovchi mashina oynasidan boshini chiqarib so'kindi-da, ketdi. Yo'l o'rtafiga tizzala-dim, osmonga qarab baqirdim: „Yordam!“ Mening o'rnimda men emas, boshqa bir odam ko'mak so'rab baqirmoqchi bo'lar, biroq ovozi chiqmasdi. Devorga suyandim. Quloqlarimda bola yig'isining tovushi aylanardi. Atrofimdagи odamlarning shov-qini xuddi asalari kabi vizillab, qulog'im ichiga o'rmalab kirardi. Hamma o'z ishiga shoshilardi.

Ko'zlarimni ochganimda simyog'ochdagи chiroqlar nuri ko'zlarimga kirdi. Tong otdi. Soyaning xonasidagi Tush hali tashqariga chiqmagan edi. Xonani og'ir sukunat qoplagan. Har qan-chacha chaqirmsam ham javob bo'lmasdi. Mushtim bilan Soya uyining shisha eshigini urib sindirdim. Qo'lim shilindi. Keramikalarga qon oqdi. Singan shishalar ustiga qon oqdi. Tush uyining burchagi-da o'tirar, hatto qayrilib qaramasdi ham. Xonani Soyaning kulgisi tutdi. Tush qo'l telefoniga qara-di. Yaqinroq borganim sari kulgi ovozi kuchayar-

di. U Soyaning uch yoshli tug'ilgan kuni bayrami videosini tomosha qilardi. Qo'limdagi qon oyoqlarimga oqa boshladi. Uning yelkalarini silkinardi. Yaqinlashmadim. Hech narsa demadi. Men ham hech narsa demadim. O'sha yerda o'tiraverdim. So'ng devorga suyandim...

Mana, Tushning ketganiga ham o'n kun bo'ldi. O'n kun avval yana sigaret chekishni boshlagan-dim. Dastlabki kunlari uchta, keyin beshta, yet-tita. Undan keyingi kunlar bir qutidan chekdim. Shu lahzalarda faqat chekish haqida o'ylay boshladim. Kabinetni qancha aylandim – yo'q. Hatto cho'ntaklarimda bir dona bo'lsa ham sigaret topilmadi. Tush ko'rardim. Ya'ni tush ko'ryapman, deb o'yladim. Shunday qilib, qor bilan to'la bir tekislikda to'xtadim. Hamma joy qor bilan qoplangan. To ufqqa qadar oppoq.

Tizzamgacha qorga botgandim. O'ng tomon-da bir chinor daraxti. Qor shoxlarni kiyintirgan. Goho daraxt shoxlari qorlarni ko'tara olmaydi va ularni zamin uzra daraxt tagida turgan qizning oyoqlari ostiga sochib yuboradi. Ro'paramdagagi quyoshning nurlari ko'zlarimga kirardi. Qo'llarimni ko'zlarim ustida soyabon qildim. Ko'zlarimni qisib, daraxt tagida to'xtagan qizga qaradim. Bu yerdan uning faqatgina paltosi ko'rinardi. Binafsharang palto kiygandi. Men daraxt tomon ketdim. Har qadam bosganimda tizzalarimgacha qorga botib ketardim. Qorga yuzturban yiqildim. Yuzim sovuqdan achishardi. Qor qo'limdagi jarohat ichiga kirdi. O'rnimdan turib, ro'paramga – chinorning tagiga tikildim. U yerda turgan Soya qimirlamasdi. Qor ichidan oyoqlarimni chiqar-

dim va bu safar tezroq yugurdim. Achchiq sovuq ko'kragimga tegdi. Yetib kelganimda u yo'q edi. Daraxt tagida hech kim yo'q. Tevarak-atrof va butun yalanglikka qaradim: bu yerda qor bilan qoplangan tekislikdan bo'lak hech kim yo'q edi. Ko'z oldim qor va faqat qor. Hech bir iz yo'q. Tekislikni qarg'alar ovozi tutgan. Ovoz borgan sari shu qadar kuchayardiki, qulqlarimni qo'llarim bilan berkitishga majbur bo'ldim. Daraxt shoxlarida bir gala qarg'a o'tirardi. Shovqinning balandligidan uyg'onib ketdim.

Badanim terlab ketgan, holim yo'q, boshim aylanardi. Shamol derazani ochib tashlagandi. Shamolning har bir nafasi pardalarni silkitardi. To'xtadim. Bu yerdan faqat sershox chinor daraxtigina ko'rinish turardi. Tungi bosinqirashning bedorlikda bosinqirash bilan farqi bor. Bedorlikda bosinqirash qanchalik achchiq va azobli. „Bu uy endi seniki emas!“ Uyning devor va eshiklari shunday deb aytmoqda. Sigaret chekkim keldi. O'rnimdan turdim va tashqariga chiqdim. Simyog'ochlarning chiroqlari yorug'. Asfalt ho'l edi. Sigaret va yondirgich sotib oldim, paltomning cho'ntagiga soldim. Har lahzada cho'ntagimni ushlab ko'rardim. Havo sovuq edi, paltomning yoqasini ko'tarishga majbur bo'ldim. Va yana oyna oldida to'xtadim. Bu safar faqat uning yuzida mangu muhrlanib qolgan kumush ranglarni ko'rdim. Oshxonaga kirdim va muzlatkich eshigiga qistirilgan Soyaning rasmini uzib tashladim.

Soyaning xonasiga kirdim. Suratga tikildim. Soyasi tushib turgan Jannat. Jirkanib ketdim. Ko'z yoshlarimning sho'r tomchilari yashil daraxt-

ning yuziga yumaladi. Rangi yoyilib ketdi. Suratni ro'paramga – deraza ortiga qo'ydim. Qo'g'irchoqni buradim va stol ustiga joylashtirdim. Tovushi so-kin xonaga yoyildi. Turib, pechka yoniga bordim. Pechka shlangasini yechdim. Gaz klapanini och-dim. Derazadan quruq sovuq kirardi, uni yopdim. Ko'chaga ko'zim tushdi, Soya daraxt tagida turibdi.

Gaz hidi butun xonaga yoyildi. Sigaret xoh-ladim. Sigaret va zajigalkani oldim. Sershox daraxtlarda bir gala qarg'a o'tirgan ekan, ularning ovozi lahza sayin kuchayardi. Chaqaloqning yigi' ovozi yanada ko'tarildi. Tashqariga kimdir chaqa-loq tashlab ketganga o'xshardi. Men esa faqat va faqat sigaret chekishni istardim.

*Fors tilidan
Bashorat OTAJONOVA tarjimasi*

QARZ

Doimo quvnoq kayfiyatda yuradigan, yoqimtoy va qaddi-qomati kelishgan bir oshnam bor. Suhbatি jonon bu yigit bilan uchrashgan har qanday kishining ko'ngli birdan yorishib ketadi. Xullas, negadir u bir necha oydan beri ko'rinmay qoldi. Nihoyat, bir kuni uni ko'chada uchratib qoldim. „Yo tavba, unga nima bo'lgan?“ – o'yladim o'zimcha. Uning hamma hasad qiladigan yoqimtoyligi-yu, kelishgan qaddi-qomati qani? U xuddi oyoqda turib mudrayotgan odamga o'xshab qolgan, qo'l tomirlari chollarnikidek bo'rtib, holdan toyganligidan tili og'zida zo'rg'a aylanar, qadamla-rini bazo'r sudrab bosardi. Bo'yni esa qamishdek bo'lib qolibdi. „Nega u bunchalik o'zgarib ketibdi? Yo adashyapmanmi? Yo'g'e, o'ziga o'xshaydi-ku!“

– Hoy, senga nima bo'ldi? – so'radim bezovtaligimni yashirmay.

U miq etmadi.

– Nima balo, og'ir xastalikka chalindingmi? – so'radim, u kasallik tufayli shunday ahvolga tu-shib qolganmikin, degan xayolda.

– Undan ham battar.

– Nima? Bezugakka chalindingmi?

– Yo'q. Undan ham battar.

– Ko'kyo'tal bo'ldingmi?

- Eh, qaniydi shunday bo'lganida...
- Bo'lmasa nega bunday ahvoldasan axir? Ni-ma, qamoqdan chiqib kelyapsanmi? Yo giyohvand bo'lib qoldingmi? Yo, Xudo ko'rsatmasin, me'da kasaliga yo'liqdingmi?
- Yo'q, oshna, undan ham battar. Men mashi-na sotib oldim!
- Birdan yuragim orqasiga tortib ketdi. „Ko'rini turibdi, bechora mashinasida kimnidir bosib ket-gan! Ko'rinxmay ketgan ikki-uch oy ichida u qamoqxonada o'tirgan!“
- Nahotki shunday bo'ldi! Odam urib yubor-dingmi? – dedim, xuddi uning fikrini ko'ziga qa-rab o'qib olayotgandek.
- Yo'q deyapman-ku! – dedi u jahli chiqib.
- Bo'lmasa nega? Cho'zmay ayta qolsang-chi!
- Mashina sotib oldim, dedim-ku.
- Tabriklayman. Lekin, nega bunchalik ozib-to'zib ketding?
- Xasis odamning cho'ntagi oltita bo'lishini bi-lasanmi? – dedi u odatdagicha gapiga jumboq ara-lashtirib. – Ko'rinxmayapsanmi, men yo'ldan tekin arqon topib olsa, uni bo'yniga soladigan odamga o'xshab turibman.
- Men hech narsani tushunmadim. Baribir, uning bunday achinarli ahvolga tushish sababla-rini bilib olishga sabrim chidamasdi.
- Bundan ikki-uch oy avval, – gap boshladi u sigareta tutatarkan, – mening yashash tarzim-ga hatto har qanaqa boshliq ham hasad qilgan bo'lardi. Men xuddi kapalak misol baxtli va betashvish yashardim. Ertalab uyimdan chiqib, av-tobus bekatigacha piyoda borardim. Sigaretamni

tutatib, yo'l-yo'lakay kundalik rejalarimni pishitardim. Avtobus chiptasiga ikki kran to'lab, ishingga ravona bo'lardim. Avtobusda ko'pincha go'zal qizlar bilan yonma-yon o'tirib ketardim. Har bir bekatda kimlardir avtobusdan tushar, kimlardir chiqardi. Har kuni men yangi-yangi odamlarni ko'rар va taassurotlarim almashinib turganligidan behad sevinardim. Ishxonamga ana shunday kayfiyatda kirib borardim. Ishda ham xotirjamlik bilan barcha vazifalarimni benuqson bajarishga ulgurardim. Ba'zan kafelarga kirardim. Uyga qaytar vaqtim bo'lgach, taksiga o'tirardim. Mabodo ob-havo judayam yaxshi bo'lsa, uyimgacha shoshilmasdan piyoda yurib borardim. Yo'l-yo'lakay xotiramga kelgan go'zal she'rlarni o'qirdim yoki xayollarimga erk berib, qiziqarli sarguzashtlar to'qirdim. Shu tarzda uyimga yetib borganimni ham sezmay qolardim. O'rninga cho'zilganimcha xohlasam kitob o'qir, xohlamasam kelajak rejalarimni tuzardim. Bularning hammasi bundan ikki-uch oy oldin uyimga notanish bir kishining kirib kelishi bilan boshlandi.

- Mashinang bormi? - so'radi u dabdurustdan.
- Yo'q, og'ayni, menga mashinaga yo'l bo'lsin. Hatto eshak sotib olishni ham istamayman, sen mashina deysan-a! - dedim.
- Nega istamaysan?
- Chunki pulim yo'q.
- Senga kreditga mashina olib berishga yordamlashishim mumkin. Firma direktori yaqin oshnam bo'ladi. Hatto ikki-uch ming tumanlik chegirma qila olaman. Nima deysan? Har holda mashina haydashni bilasanmi?

- Qo'lidan kelsa kerak.
- Haydovchilik guvohnomang bormi?
- Yo'q.
- Uni tezroq to'g'rila. Men esa mashinani hal qilaman.

O'sha kuni u meni xayollar ummoniga tashlab chiqib ketdi. „U rost gapiryapti“ – o'yladim o'zimcha. „Hammaning mashinasi bor. Men ham mashina minsam nima qilibdi! Boshqalardan qayerim kam?! Nima, qarigan-chirigan cholmanmi, kreditdan qo'rqsam? Yoki muddatli kreditni to'lashga qurbim yetmaydimi? Yetadi! Eng muhimi, mashinani ancha miqdordagi chegirma bilan ola-man! Zo'r bo'ladi! Haydovchilik guvohnomasini to'g'rilayman-u, rulga o'tiraman!

- E oshna, yo'l bo'lsin?
 - Jadrudga!
 - Qayoqdan kelyapsan?
 - Karajdan!
 - Bolalar, ketdik, Xan daryosiga cho'milib kelamiz!
 - Yo'q, yaxshisi Devamandga borib vaqt-chog'liq qilamiz!
- Narsalarni mashinaga solamiz-u, xohlagan to-monimizga uchamiz! Axir, umr deganlari judayam qisqa. Haftada to'rt kun avtobusda chayqalib yurish, shuyam gapmi?!"

Qisqasi, miyamni mashina sotib olish-u kela-jak, zavqli hayot haqidagi xayollar egallab oldi. O'n kun ichida haydovchilik guvohnomasini qo'lga kiritdim. Birinchi to'lov uchun jamg'armamda-gi bor pulim – besh ming tumanni to'ladim. Shunday qilib, chegirmadan tashqari yana ikki ming

tuman to'lashim lozim edi. Kredit muddati o'ttiz oy bo'lib, har oyda olti yuz tuman badal to'lab turishimgina qolgandi.

Mashina qo'lga tegishi bilanoq rulga o'tirdim. Birinchi kuniyoq bakka yigirma to'rt tumanlik yonilg'i quyib, Tehronning boyonlar yashaydigan hashamatli mavzesi ko'chalarini sayr-u tomosha qildim. Kechqurun mashinamni minib kinoteatr-ga bordim. Mashina qo'yishga joy qidirib qanchalar ovora bo'lganligimni aytmay qo'ya qolay. Film boshlandi. Biroq, fikr-u xayolim mashinada. „G'ildiraklar qalpoqlarini o'g'irlab ketishmasmikan? Old oyna tozalagichlarini shilib ketishsa-chi? Eshiklarni qulflashni unutmadiimmikan? Xudo ko'rsatmasin, portfelimni qoqib ketishsa-ya! Agar birorta avtomobil mashinamni turtib qochib ket-sa, kimga murojaat qilishim kerak? Keyin ta'mirlash uchun qancha olisharkan?..“

Qisqasi, bu xayollar bilan, kino qahramoni bo'lgan yigit qachon ekranda paydo bo'lganini, qahramon qiz bilan o'rtalarida nima voqealar so-dir bo'lganini, keyin kichkina go'dakcha qayerdan paydo bo'lganligini yaxshi tushunmadim.

Nihoyat film tugagach, hammadan oldin jo-yimdan sakrab turib, mashinam tomon otildim. Xayriyat, g'ildiraklarning qalpoqlari, oyna tozalagichlar joyida, eshiklar qulflangan, portfelim ham omon ekan! Biroq, old oynaga mashinamni ruxsat etilmagan joyga qo'yganligim uchun alvon rangdagi jarima bildirishnomasi yopishtirib qo'yishibdi.

O'sha tun to xo'rozlar qichqirguncha mashinam va jarima puli haqida o'ylab, uxlamay chiqdim.

Ertasi kuni bir tanishim bilan ovqatlanish uchun kafega kirdik. Mashinamni kirish eshigi oldida qoldirdim. Xuddi o'tgan safar kinodagidek nimalar haqida suhbatlashganimizni, nimalar yeb-ichganimizni sezmadim. Tashqariga chiqqanimizda g'ildiraklarning uchta qalpog'ini shilib ketishganini, to'rtinchisini yechishga ulgurishmay, bir o'zini yetim qoldirishganini ko'rdim. Qorovulga pul to'lab mashinamga o'tirdim. Dastlab g'ildirak qalpoqlarisiz mashina yurmaydigandek tuyuldi. Bilsam, ularsiz ham mashina haydasa bo'larkan. To'rtinchi g'ildirak qalpog'ini yechib, uyimga jo'nadim. Kechasi g'ildirak qalpoqlari va kechagi jarima haqida alg'ov-dalg'ov tushlar ko'rib chiqdim. Ertalab turib oynaga qarab o'zimni o'zim tanimay qoldim. Kirtaygan ko'zlarim ostida xalta-chalar paydo bo'lgan, kaftdek basharamda faqat burnim so'ppayib turibdi.

Navbatdagi uch-to'rt kun, Xudoga shukrki, betashvish o'tdi. Biroq, yettinchi yo sakkizinchu kuni mashinamni haydovchilar tili bilan aytganda ulkan bir yuk mashinasini „yalab“ o'tib ketdi. Shunday „yaladi“ki, orqa qanoti butunlay, oldingisining yarmi pachaqlanib ketdi. Yuk mashinasining haydovchisi bilan g'ijillashib turganimizda avtoinspektor paydo bo'lib, bu hodisada har ikkalamiz ham aybdor ekanligimizni, shu sababli bir-birimizga yuz elliq tumandan tovon to'lashimiz lozimligini tushuntirdi. Xul-las, yuk mashinasining haydovchisi bilan kechrim so'rashib, yo'limizga tarqalishdik. Mashinam hali ta'mirdan chiqmay yotgan paytda birinchi

Abdulla Qodirjonov to'lashimga to'g'ri keldi. Ming

viloyat AKM

INV № 2023/23-87

mashaqqatlar bilan qarzga pul topib, to'lovni o'z vaqtida amalga oshirdim.

Ta'mirdan chiqqach, bir kun o'tmasdanoq mashinamning old oynasini, portfelimni, tranzistorimni o'g'irlab ketishdi.

Yonilg'iga sarflagan pullarim-chi! Har kuni ertalab yigirma tumanga benzin sotib olaman, kechqurunga kelib bak bo'shab qoladi. Ish tuga-gach, to'rt-besh tanishlarim, albatta, meni kutib turgan bo'lishadi. Ularni shaharning turli taraf-laridagi uylariga eltib qo'yishim kerak. Shunday qilmay ko'ray-chi, darrov „Tumshug'ing ko'tarilib qolibdimi!“ deb uyaltirishadi. Aytsam ishonmay-san, uchalasi ham xafa bo'lishib, men bilan gap-lashmay qo'yishgan.

O'tgan juma kuni Karajdan qaytayotib rul tyagalari o'rnidan chiqib ketib, mashina bilan jarga qulab ketishimizga sal qoldi. Omadimiz bor ekan, tirik qoldik.

Kreditning ikkinchi to'lovidan qutulgan kunlarim mashinaning motori tutaydigan bo'lib qoldi. O'sha kunlar amakimning tog'asi olamdan o'tib, uning jasadini muqaddas Qum shahriga olib borib, janoza o'qitishga to'g'ri keldi. Bir amallab Qumga ham yetib oldik. To'satdan amakimning qizini mazasi qochib qoldi. Uni doktorga ko'rsatish uchun kechasi yana Tehronga qaytishga majbur bo'ldik. Yo'lda uyqusiradim, shekilli, tasodifan bir folksvagenni turtib yuborib, ellik tuman jarima to'lashga majbur bo'ldim...

Oshnamning javrashlari shu darajaga yetdiki, endi uning gaplaridan biror so'zni tushunmayot-ganimni his qildim. Uning har bir jumlasidan

so'ng ellik grammdan vaznim kamayib ketayot-ganligini sezdim. U xuddi ignasi bir chiziqqa tu-shib qolgan patefon plastinkasi singari hamon qayerda g'ildirak shinasi yorilgani-yu, qachon amortizatori singanini, qanday vaziyatlarda jari-ma to'lagani-yu, qanday qilib mashinasi chiroq-larini o'g'irlatgani haqida tinimsiz javrardi. Xuddi qo'rinchli tush ko'rayotgandek edim. Nihoyat, uni tinglashga majolim qolmay, gapini bo'ldim:

- Hozir qayoqqa ketyapsan?
- Bilasanmi, mashinamni yana ta'mirga top-shirdim. Endi nima bo'ssayam qarzga uch yuz tu-man pul topishim kerak. Darvoqe, o'zing mush-kulimni oson qila olmaysanmi?..

*Rus tilidan
Abdumurod KO'CHIBOYEV tarjimasi*

IKKINCHI HAYOT

Quyosh nurlari janob Parmarning qalin darpardalarini yorib o'tib, xonaga yorug'lik bag'ishladi. Qariya esa yonboshiga ag'darildi va suknatga quloq tutdi. Shimla yaqinidagi bu uy juda osuda; hoynahoy nabiralari allaqachon mактабга jo'nashgan bo'lsa kerak. Kun esa har galgidek bugunning o'ta uzoq va dilxun o'tishidan darak berardi. Qariya o'rnidan turib, gazetasini qo'liga olarkan, kun rejasini tuzmadi, chunki qiladigan ishning o'zi yo'q edi...

„G'irt yolg'izman!“ o'yladi qariya deraza osha yuksak tog'larga qarab qo'yarkan. Olinmagan soqollari hamda g'amgin ko'zлari uning naqadar tushkunlikka tushib qolganidan darak berardi. Tunov kuni joyida yotganida narigi xonadan kelingining gapirayotganini eshitib qoldi:

– Otamning hech nima bilan ishi yo'q, biror narsaga qiziqay demaydi. Nuqlu xonasida ko'milib o'tргани-o'tрган. Hatto dasturxonga taklif qilsam ham indamaydi.

Qariya bu gaplarni tinglagach, pichirlab qo'ydi: „Axir, ilgari unday emasdim. Onalaring tirikligida mutlaqo bunday emasdim...

Tog' cho'qqilaridan qor ko'chishi shundoqqina uyga eshitilib turardi: gum-gum; bu yoz kelishi-

dan darak. Birdan qariyaning yuragida tog'ga chiqish istagi tug'ildi. Nima qilibdi, qushlar unga sherik bo'ladi, qorli cho'qqilar bilan sirlashadi.

Ertasiga janob Parmar oilasiga tog'ga chiqish niyatini bildirdi. Kechki ovqat mahali nabiralari ham birga boramiz, deb turib olishdi, bobo ular bilan yakshanba kuni tog'ga chiqishga so'z berdi.

Yakshanba kuni ular barvaqt uyg'onishdi. Yarim soatda tayyor bo'lishib, tog'ga olib chiqadigan bexatar so'qmoq bo'ylab keta boshlashdi. Shu atrofda sayr qilayotgan bir ayolning xonish qilgani ni eshitgan sayohatchilar biroz to'xtashdi. Qariya unga yaqinlashib, birrovga suhbatlashgan bo'ldi.

– Yoshingiz nechada, xonim?

– Oltmisht yettida, – ayol javob berdi. Uning sochlari kalta kesilgan, yuzi cho'zinchoq, ko'zları esa charaqlab turardi.

U qariyadan ikki yosh kichik ekan.

– Ancha yosh ko'rinxarkansiz, – deb qo'ydi janob Parmar.

Ayol jilmayib qo'ydi.

Qaytishda ular ayolni yana uchratishdi. U bir to'da keksalar qurshovida, guruh bo'lib sayohatga chiqishibdi. Bilishicha, ayolning ismi Vidya ekan.

– Bular nabiralaringizmi? – so'radi Vidya yo'l-yo'lakay.

Shundan so'ng janob Parmar ham har tong uyg'onib, yangi do'stlari bilan tog'ga chiqishni odat qildi. Yengil badantarbiyadan so'ng esa uyg'a qaytib nabiralarini mакtabga kuzatardi. U deyarli har kuni Vidyani uchratardi, ular bir-birlari bilan inoqlashib ketishdi. Bilishicha, ayol beva ekan, qizi va kuyovi bilan birga yasharkan. Uning oilasi-

da ham o'ziniki kabi muammolari borligini sezgan qariya, ayolning kayfiyatini ko'tarishga urinardi.

– Ular kechasi bilan televizor ko'rib, uyqumni buzishsa-da, bolalarimga bir nima deyolmayman. Men birov bilan gaplashgim kelgan payt esa ular o'z ishlari bilan mashg'ul bo'ladilar. Go'yo o'zimni ortiqchadek sezaman. Hatto o'zim uchun biroz pul so'rashga ham iymanaman, – tan oldi bir kuni ayol. – To'g'ri, qizim va kuyovim yomon emas, lekin baribir ortiqchaligimni bilaman. Odamlar men ga shafqat bilan nazar tashlashlarini istamayman.

O'sha suhbatdan so'ng ertasiga yomg'irli kunlar boshlandi. Tinimsiz yog'ayotgan tomchilar hech tinay demasdi. Qariya sheriklarini ancha payt ko'rolmadi. Janob Parmar derazadan tog'ga tikilgancha kun o'tkazardi. Bir kuni ularning eshiklari taqilladi. „Nahotki Vidya bo'lsa“, degan o'ydan quvongan qariya pastki qavatga tushdi. Eshikni ochishi bilan esa jilmayib turgan o'sha qadrdoniga ko'zi tushdi.

– Bilasizmi, – gap boshladi ayol, – biz tomonda yomg'ir yog'mayotgandi, shu yerdan o'tayotganimda quyib yubordi. Shu sababli uyingizdan qo'nim topishga qaror qildim.

Janob Parmarning oyog'i uvushib turganiga qaramay, ayolni tushlikka qolishga ko'ndirdi. Bir galikda ovqat tayyorlashdi. Qariya bиринчи мarta hafsala bilan taomga tutindi. Ketayotib Vidya uni ham o'z uyiga taklif etdi.

Shunday qilib, ular haftada ikki marta birga tushlik qilishni odat qilishdi. Albatta, qariya bu haqida oilasidagilariga aytdi. Biroq bu narsa ularni qiziqtirmadi.

– Bugun otamizning „sevgani“ yana kelibdi-da, – deb qo'yardi ba'zan kelini o'g'liga.

– Qayerdan bilding?

– Idishlar o'z joyiga qo'yilmagan.

Er-xotin rosa kulishdi, Parmar ham jilmayib qo'ydi.

– Xo'sh, yangi onamizni qachon olib kelasiz? – davom etardi kelini kulgancha.

Biroq bunday gaplarga janob Parmar ahamiyat bermasdi. Axir, yoshi yetmishdan o'tgan bo'lsa, yana uylanishga balo bormi? Biroq u har gal tushlikdan so'ng ayol bilan xayrlasharkan, ko'ngli huvullab qolardi. Bir kuni tushlik navbati Vidya-ga kelganda, u uyiga chaqirmadi. Buning sababi ni bilmagan qariya esa xonasiga yana biqinib oldi.

Xullas, yomg'ir mavsumi tugagach, quyosh hamma yoqni yorita boshladi. Qariyaning qalbiga nur kirib, ayolga qo'ng'iroq qilishga qaror qildi.

– Hamma qariyalar yig'ilib tog'ga ketyapmiz, – aldadi Parmar, – siz ham bizga qo'shilasizmi?

Ayol biroz o'ylandi va roziligini bildirdi. Qariya xursand bo'lgancha, soqolini qirdi. Ko'zguga qarab o'zidan ko'ngli to'ldi-da, uchrashuvga oshiqdi.

Ular salomlashishgach, yo'l bo'ylab jim keta boshladilar. Birdan Vidya sirpanib ketayozdi.

– Ehtiyot bo'ling! – qariya uni suyadi. – Manovi hassani ushlab oling.

Parmar hassasini unga tutqazib qo'yib, o'zingning beli og'riy boshlaganini sezdi.

– Qaribman, – dedi sekin. – Hamrohing bo'lmasa, bu cho'qqiga yetolmas ekansan.

– Mening qizim ham shu gapni aytdi: biz keksaydik... – dedi Vidya ham.

– Bilasizmi, Vidya... – qariya gapini topolmay qoldi.

– Qizim shunday degandan so'ng, – ayol uning holatini tushundi, – ikkimiz haqimizda ko'p o'yladim. Shuning uchun sizni tushlikka chaqirma-dim. O'ylab olishim lozim edi.

– Ular nima desa desin, Vidya. Kel, keksalikda bir-birimizga suyanchiq bo'laylik, birga qadam tashlaylik... Axir, qancha umrimiz qoldi o'zi?

Qariya ko'p gaplarni aytmoqchi edi, biroq tiliga kelmadi.

– Men tushunyapman. Lekin... odamlar nima deydi?

– Nima ham deyishardi odamlar? O'zimiz haqimizda o'zimiz qayg'urmasak, hech kim o'ylamaydi bizni. Men anchadan beri nafaqa pulimni yig'a-man. O'shangang Solan yaqinidan bir uyni ikkimiz uchun mo'ljallab qo'ydim, bиргаликда umrbod ya-shashimiz uchun...

– Lekin qizim va kuyovimning yuziga qanday qarayman? Necha yildan beri bevalik nomimni saqlab kelaman, endi shu yoshga yetganda...

Ular ko'p bahslashishdi. Oxiri Vidya so'nggi gapni aytdi:

– Bu yog'i Xudoga ayon, taqdirimizni qo'shgan bo'lsa...

Ular yana sayr qilishdi. Ora-sira „tolib qolma-dingmi?“ deb so'rab qo'yishardi. So'ng shafaq uzra bir-biriga suyangancha, ko'ngillarida uyg'ongan baxtiyorlik hissini tuydilar. Quyosh ham ularga saodat tilab bosh egayotganga o'xshardi...

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasи

„MENI QO'LLARINGDA KO'TARIB OL“

O'sha kuni uyga borsam, rafiqam dasturxon tuzagancha meni kutib o'tirgan ekan. Qo'llaridan tutib gap boshladim:

– Senga bir gapni aytishim kerak.

U jimgina yonimda o'tirib qulq tutdi. Men uning ko'zlarida dard sharpasini sezdim. Keyin bu gapni unga qanday aytaman, deya o'ylab qoldim. Lekin aytmasam ham bo'lmasdi. Gap shundaki, men u bilan ajrashmoqchi edim. Aytmasam ham u tushundi. Gaplarimni tinglab, bir tuki ham qilt etmadi, so'ngra sekin so'radi:

– Nega?

Men o'zimni eshitmaganga soldim. Indamaganim uchun u ranjidi. Keyin ichidagi bor alam bilan hayqirdi:

– Erkakning ishi emas bu!

O'sha kuni biz gaplashmadik. U o'ylardi, bila-man, oilamizga nima bo'ldi, nega barchasi bunday tugadi, deya ich-etini kemiryapti. Lekin men bu savolga javob berolmasdim. Dyu ismli qizni sevib qolgan, faqat unga talpinardim. Xotinimni esa ortiq sevmay qo'ygandim. Faqat rahmim kelardi, xolos.

O'zimni aybdor sezganim uchun, ajrashish qog'ozida unga uyimizni, mashinamizni, ishimdagi

mablag'imning o'ttiz foizini qoldirishimni aytdim. U qog'ozni ko'zdan kechirdi-da, yirtib tashladi. Menga o'n yil hayotini bag'ishlagan ayol birdan boshqa insonga aylanib qolgandi. Men uning o'tgan umriga, mehnatiga achinsam-da, gapim-dan qaytmasdim: Dyuni juda sevardim...

Nihoyat, xotnim ko'z oldimda ho'ngrab yig'lab yubordi... xuddi kutganimdek. U bolalar alami kelib yig'lagandek to'yib yig'lardi. Bir necha haf-tadan beri ajralish haqida o'ylab kelayotganim-ning azobli nuqtasi edi bu.

Ertasi kuni uyga juda kech qaytdim. Xotnim stolda o'tirgancha, nimalarnidir yozish bilan band edi. Kechki ovqatni yemagan bo'lsam-da, to'g'ri yotoqqa kirdim va tezda uxlab qoldim. Chunki bugun Dyu bilan ko'rishib, rosa sayr qilgan va toliqqandim. Tunda uyg'onganimda xotnim hali ham stolda o'sha alfozda o'tirardi. Unga e'tibor bermagandek bo'lib, yana uyquga ketdim.

Ertalab unga ajrashish qoidalarini tushuntir-dim: u mendan hech narsa olishni istamadi, biroq ajrashish uchun bir oy muhlat so'radi. U mana shu bir oy ichida hech nima bo'limgandek odatiy hayot kechirishimizni taklif qildi. Uni darrov tu-shundim: shu oy o'g'limizning imtihonları bor edi, biz tufayli xayoli bo'linishini ayolim istamasdi. Taklif menga ma'qul keldi. Biroq uning boshqa talablari ham bor ekan. U meni to'y kechamiz uyimizga qanday ko'tarib olib kirganimni qayta ko'rsatib berishimni so'radi. Men bir oy ichida har kuni shu ishni takrorlashim lozim ekan. Bu mushkul bo'lmasa-da, men uni telba bo'layozdi, deb o'ylardim.

Birga o'tadigan so'nggi kunlarimizdan u rozi bo'lishi uchun, uning bu tentakona taklifini qabul qildim. Dyuga esa xotnim bizdan hech nima ta'ma qilmasligi, hatto igna ham olib ketmasligini aytdim. U bo'lsa rosa kului va bu ahmoqlik ekanligini ta'kidladi.

Xullas, uni birinchi kuni ko'tarib uyga olib kirganimda, ikkimiz ham beso'naqay ko'rindik. O'g'limiz esa bizni chapak chalib qarshiladi:

– Dadam oyimni ko'tarib oldi!

Bu so'z mening qalbimni tirnadi. Yotoqxona, mehmonxona bo'ylab uni ko'tarib borarkanman, chamasi, o'n metrlar u qo'llarimda bo'ldi. Xotnim ko'zlarini yumib olgancha shivirladi:

– Ajrashishimiz haqida o'g'limizga aytma.

Men boshimni qimirlatib „xo'p“ dedim, negadir kayfiyatim tushib ketdi. Nihoyat, uni eshik yonda pastga tushirdim. U tashqariga – ishga borish uchun bekat tomon ketdi. Men esa mashinamni haydab ofisga yo'l oldim.

Ikkinchi kuni esa uni ancha yengil ko'tardim. U yelkamga boshini qo'yib oldi. Undan kelayotgan iforni beixtiyor esladim. Oxirgi marta qachon unga tikilib qaragandim, deb eslashga urindim. U endi yosh qizcha emas. Yuziga bilinar-bilinmas ajin tushgan, sochlari ham rangini yo'qotayozgandi. Turmushimiz undan mana shu go'zalligini tortib olgandi. Bir necha soniya, xotnim uchun nima qilsam bo'ladi, deya o'yladim.

To'rtinchi kuni uni qo'llarimga olganimda qalbimda unga qandaydir yaqinlik sezdim. U menga o'n yilini bag'ishlagan ayol edi. Keyingi kunlarda esa bu iliqlik kuchaya bordi. Albatta, Dyuga bu

haqda aytmadim. Kun o'tgan sari uni qushdek yengil ko'tarardim. Menimcha, kuchimga kuch qo'shilardi.

Bir kuni tongda xotnim menga nima kiyishimni tanlab berayotgandi. Bir nechtasini qo'liga olib ko'rdi-yu, lekin didiga o'tirmadi. Chunki kiyimlarim kichik bichimda edi. Demak, semiribman. Unga boqdim: cho'pdekk ozib ketibdi. Inson qayg'udan semirmaydi... ozadi. Uni nega bunchalik osongina ko'tarayotganimning sababini tu-shundim: ichi qayg'udan bo'm-bo'sh bo'lib qolibdi. Men birdan uning yuzini qo'llarim orasiga olib, o'zimga qaratdim. Shu payt o'g'lim kirib qolib, dedi:

– Dada, oyimni ko'taradigan vaqtingiz bo'ldi.

O'g'lim bu holatga juda o'rganib qolgan ekan, hatto hayotining bir qismiga aylanib qolibdi. Xotnim „Dadangni quchoqla“, deb o'g'limni yonimizga chorladi. Men yuzimni yashirdim, chunki hozirgi daqiqalarda tavakkal qaror chiqaradigan odam bo'lganimdan afsusda edim. So'ng ayolimni ko'tarib, yotoqxonadan chiqdim... undan mehmonxonaga, so'ng eshik yoniga yetdik. To'yimizdagi kabi baxtli sezardim o'zimni.

...Bir oy muhlatning so'nggi kuni keldi. Men uni ko'tarib eshik yoniga bordim va birdan to'xtab qoldim. Hayotimiz o'zgargandek tuyulardi. Darhol mashinaga o'tirib, ofisga yo'l oldim. Mashinani qulflashni ham unutib, ishxonamga shoshdim. U yerda Dyu o'tirgan ekan.

– Kechir, Dyu... biroq men ajrasha olmayman.

U menga qovog'ini solib qaradi. Keyin o'shqira ketdi.

– Bir so‘zlimisan o‘zi? – baqirdi u.

– Kechir, men ajrashishni istamayman. Menimcha, biz bir-birimizga yetarli e’tibor qaratmaganimiz uchun sevgimiz jar yoqasiga borib qolgan. Bu degani, sevgimiz o’ldi, deganimas. Faqatgina kulni titib undan cho‘g‘ izlash va uni alangalatib turish kerak ekan. Endi tushundim! Uni har kuni qo‘llarimda ko‘tarib olganimda, o’sha, uni sevgan paytlarimga qaytgandek bo‘lardim. Aslida, uni doim qo‘llarimda ko‘tarib yurishim lozim ekan.

Dyu endi uyqudan uyg‘ongandek menga hayratlanib boqardi. Keyin yuzimga tarsaki tushirdi va eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi. Men ham asta zinalardan pastga tushdim va mashinamga o‘tirdim. Gul do‘koniga yaqinlashganimda to‘xtadim va guldasta xarid qildim. Gulchi qiz konvertchaga nima deb yozishimni so‘radi. Men aytdim: „*Seni umrimning oxirigacha qo‘llarimda ko‘tarib yuraman... to keksaygunimcha*“.

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

BAXT KELTIRGAN SHABNAM

Men uni birinchi marta Mumbaydagi sohil bo'yida uchratgandim. U qumdan saroy yoki shunga o'xhash nimadir yasash bilan ovora, ko'zlar esa dengizga boqib chaqnardi.

– Salom, – u birinchi bo'lib gap boshladи.

Men boshimni irg'ab javob qaytargan bo'ldim. Kayfiyatim yo'qligi uchun jilmayib qo'yishga ham yaramadim.

– Men qurish bilan juda bandman, – davom etdi u.

– Ko'rib turibman. Nima bu? – so'radim e'tiborsizlik bilan.

– Eh, bilmasam. Shunchaki qumni juda yaxshi ko'raman.

„Bu yaxshi“, o'yladim men va qumda sirpanib uning shippagini o'ynay boshladim.

– Bu tomchi-yu shabnamlardan qurilgan uy! Qarang, u qaldirg'ochning uyasiga o'xshaydi, – dedi qizcha quvonib.

– Nima deding, tomchi...

– Ha, bu baxt shabnami. Onamning aytishi-chi, shabnamalar o'zida baxt olib yurar va uni bizga ularshar ekan.

„Alvido, baxt!“ – pichirladim o'zimga o'zim. – „Assalom, qayg'u!“

Yo'limda davom eta boshladim. Mening asablarim buzilgandi, chunki u qizning hayoti to'la-to'kis, hech qanday dardi yo'q edi.

- Ismingiz nima? - u meni to'xtatdi.
- Prabxa. Mening ismim Prabxa Ativl.
- Meniki esa Nutan. Yoshim oltida.
- Xursandman, Nutan.

U kulib yubordi.

- Sen quvnoq ekansan, - dedim men ham jilmayib. So'ng bu yerdan ketdim. Ketgunimcha uning hayotbaxsh kulgisi meni ta'qib etib bordi.

- Yana keling, Prabxaji, - dedi u ortimdan. - Baxtli kunlarimizni davom ettiramiz.

Kunlar va haftalar bir-biriga egizakdek o'tib borardi. Otamning azoblari-yu onamning dard chekishlari bunga hamohang bo'lardi. Quyoshi li tonglarning birida men dengiz burguti qurib ketgan, shudring tomchilarini eslatuvchi uyani ko'rib qoldim. „Men darhol sohilga borishim lozim“, - deya dengizga tomon shoshildim.

Dengiz bo'yida uni kuta boshladim. Uzoqdan ko'rinishi bilan negadir g'alati bo'lib ketdim.

- Salom, Prabxaji, - gap boshladi u. - Men bilan o'ynagingiz keldimi?

- O'ynashimni istaysanmi? - dedim qandaydir alam bilan.

- O'zingiz bilasiz, ayta qoling.

- Yolg'izlik o'ziniga nima deysan? - davom etdim istehzoli kulib.

Biroq Nutan gapimdan kulib yubordi:

- Bu o'yinni bilmas ekanman.
- Unda yur, shunchaki sayr qilamiz, - dedim uning yuzidagi samimiylikni ko'rib.

– Qayerda yashaysan? – so‘radim undan.

– Shu atrofda, – u nariroqdagi uylarni ko‘rsatdi. Yo‘l bo‘ylab faqat Nutan gapirib ketdi, mening xayolim esa boshqa yerlarda kezardi. Biz Nutanning uyiga yetgach, u bugun kunni juda maroqli o‘tkazganini aytdi. Qiziq, o‘shanda birinchi marta unga qarab chin qalbimdan kulib qo‘ydim.

Oradan uch haftalar o‘tgach, biz yana sohilda uchrashdik. Mening hatto Nutan bilan salomlashishga ham xohishim yo‘q edi.

– Bugun mendan xafa bo‘lma, – dedim men. – Yolg‘iz qolmoqchiman.

Nutanning ichidan dardli xo‘rsiniq eshitildi:

– Nega unday deysiz?

Mening jahlim chiqib, unga o‘shqirdim:

– Chunki mening onam o‘ldi!

Ichimda esa „Nega bu gapni unga aptyapman?“ deb o‘yladim.

– Oh, – dedi Nutan. – Unda baxtsiz kun bo‘lib-di-da...

– Ha, kecha ham, undan oldingi kun ham, umuman, har kunim baxtsiz... endi ket.

– Og‘ridimi?

– Nima?

– Joni og‘ridimi? Onangiz o‘layotganida...

– Og‘rimay bo‘ladimi? – men bazo‘r shivirladim.

Bir oylardan so‘ng men yana sohilda hozir bo‘ldim. Biroq Nutan negadir ko‘rinmasdi. O‘zimni aybdor sezib, qizchani sog‘inayotganimni angladim. Nutanni izlab, uning uyiga yo‘l oldim. Eshikni ko‘zlari shishgan bir yosh ayol ochdi.

– Salom. Mening ismim Prabxa. Qizingiz bugun sohilga kelmadи, uyda bo‘lsa kerak?

– Oh, Prabxaji, sizmisiz? Uyga kira qoling... Nutan siz haqingizda juda ko'p gapirgandi. Agar u sizni bezor qilib yuborgan bolsa, iltimos, kechiring.

– Unchalik emas, u juda quvnoq qiz ekan. Hozir qayerda?

Ayol xo'rsinib gap boshladi:

– Nutan o'tgan hafta vafot etdi. U oqqon dardi bilan ko'p kurashdi, sizga bu haqda aytmagan-midi?

Men zo'rg'a stolga suyanib, o'zimni tutishga harakat qildim.

– U sohilni juda sevardi, – davom etdi ayol. – Shuning uchun u yerga borishiga to'sqinlik qilmasdim. Sohilda u dardini unutardi, qo'lidan hamma ish kelishiga ishonardi. Baxtli kunlarining maskani edi u yer. Biroq so'nggi kunlarda ahvoli og'irlashib qoldi... – ayolning ovozi titradi. – Sizga bir narsani berib qo'yishimni tayinlagandi. Biroz kutib turolasizmi, olib chiqay...

Mening esa boshim gangib qolgan, qulqlarimga ishonmas, hamma eshitganlarim tushga o'xshardi. Bu bechora ayolni esa nima deb ovutishni bilmasdim.

Ayol menga konvert tutqazdi, uning ustiga qing'ir-qiyshi harflar bilan „Prabxajiga“ deb yozilgandi. Ichini ochdim. Bu bo'yoq bilan bolalarcha chizilgan surat edi. Unda sap-sariq keng sohil, ko'm-ko'k dengiz, oq-qora qushlar tasvirlangan, ostiga esa „*Sizga shabnamlar baxt olib kelsin!..*“ deb yozilgandi. Ko'zlarim yoshga to'ldi, yuragim anglab bo'lmas tuyg'ular iskanjasida qoldi. Ayolning qo'llaridan tutdim:

– Meni kechiring, kechiring!..

Surat hozirgacha men bilan birga, uni ishxonamga osib qo'yanman. Bu beshtagina so'z, mana necha yildirki, meni baxtsizlikdan asrab kelmoqda. Bugun men Nutan ikkimiz orzu qilgan narsaga erishdim: uning shabnamlari menga chindan ham Baxt ato etdi.

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

YARATGANNING YERDAGI FARISHTASI

Ishdan qaytayotgandim. Bir payt ko'cha che-tida turgancha qo'lidagi fleytasini sotishga urinayotgan bir bolakayga ko'zim tushdi. U o'tgan-ket-ganlarga yalingancha, buyumini xarid qilishlarini so'rар, ammo shoshqaloq odamlar unga e'tibor ham bermasdilar. Bolakay yig'lardi... Rahmim kelib, unga biroz pul tutqazdim. Ammo u keskin rad etdi.

– Yo'q, xola, men tilanchi emasman. Mana shu... fleytamni sotib oling, menga pul juda zaurur, iltimos!..

Menga fleytaning keragi yo'q edi. Buni unga tushuntirdim va pulni olaverishini aytdim. Bola-kay baribir ko'nmadni.

– Ololmayman, uyimdagilarga halol pul berishni istayman. Bisotimda shugina fleytam bor...

Uyga keldim. Erimga bu noxush voqeani gapi-rib berdim.

– Xudoning o'zi unga ko'mak bersin! – qo'shib qo'ydim gapimning so'ngida.

Bir chetda o'g'lim gaplarimni eshitib turgan ekan. U yugurib huzurimga keldi va so'roqqa tutdi:

– Oyijon, Xudo qayerda? U odamlarga qanday yordam berishi mumkin? Mening uy vazifalarimi-ni tayyorlashga ham ko'maklasharmikin?

– Xudo Ko'kda yashaydi, o'g'lim. U tepadan turib odamlarni kuzatadi va muhtoj kimsalarga yordam qo'lini cho'zadi. Uning qudrati cheksiz. Ammo sening uy vazifangga yordam berolmaydi. Chunki bu sening yumushing, tushundingmi, bolaginam?

– Odamlarga tepadan turib qanday yordam beradi unda? Yerga tushib qarashsa, bo'lmaydimi?

– Xudo birorta bandasi orqali o'sha g'arib insonga ko'mak ko'rsatadi. Xudodan yordam so'rasak, kimdir yoki nimadir orqali so'ragan narsamiz, albatta, yetib keladi.

– Unda nega anovi bolaga Xudo yordamchi yubormadi? Balki, Xudo sizni yordamchi qilib yuborgandir...

Bu gapni eshitib qizarib ketdim. Tuni bilan uxlolmadim. Ertaga, albatta, o'sha fleytani so'tib olishga qaror qildim. Bugun bermoqchi bo'lgan pulimga ozgina qo'shsam bo'ldi-ku, fleytani olaman. Tong otishi bilan ishga tezroq otlandim. Ko'chaga chiqib o'sha bolakay turgan joyga halloslab yetib keldim. Ammo... u yo'q edi. Kunlar kunlarga ulandi, ammo ishga ketishimda ham, qaytishimda ham uni ko'rmasdim. Balki, Xudo unga boshqa bir inson orqali ko'mak yuborganadir... Bu fikr menga ancha tasalli berdi. Biroq... nega bunday sharafli ishni men vaqtida bajarolmadim: nega savobni boy berdim?

Odamzod doim buyuk ishlar xayolida yuradi. Go'yoki bir bolakayga yordam qo'lini cho'zish odiy, xashaki ishdek ko'rinish, e'tiborga olmaydi...

Oradan vaqt o'tdi. Buni unutib yubordim. Yana o'z dunyomga sho'ng'ib ketdim. Ammo o'g'limning

qalbida o'sha so'zlar bir umrga muhrlanib qolgan: „Yaratgan bandasi orqali ko'mak yuboradi...“ U kambag'al do'stlariga o'z o'yinchoqlaridan ular shishni kanda qilmaydi. Men esa bundan ba'zan ranjiyman.

– Hamma o'yinchoqlaringni berib yuborsang, o'zingga nima qoladi, – deb koyib turaman. O'g'lim esa:

– Xudo mening dilimga soldi, anovi o'yinchog'i yo'q bolaga bersang, men senga undan-da ko'p beraman, degandek bo'ldi, – deydi jilmayib.

Men esa shu zahoti jahldan tushib, bolamni quchaman.

– Xudo menga yordam berishingiz uchun Sizni – Onamni yaratgan ekan, buni bilib oldim, – deydi u ham bo'ynimdan quchoqlab.

Bag'rimga Yaratganning mitti farishtasini bosib turganimdan juda baxtiyor bo'lib ketaman...

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

SO'NGGI SOVG'A

Yosh bir yigit kollejni tugatish arafasida turgan edi. U bir necha oydan buyon do'kon ko'rgazmasida turgan sport mashinasidan zavqlanardi. Yigit otasi mashinani olib berishiga ishonar, boisi shu paytgacha o'g'li neki istamasin, bari muhayyo etilardi. Bitiruv kuni yaqinlashgani sayin yigit otasi mashina olib berishini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, Bitiruv kuni kelganda, erta tongdanoq ota o'g'lini o'z xonasiga chorlabdi. Ota gapni shundoq o'g'li borligidan faxrlanishi va uni juda yaxshi ko'rishidan boshlabdi. So'ng yigitning qo'liga chirolyi qutiga o'ralgan sovg'asini tutqazibdi. Yigit jiddiy tarzda, nimadandir norozi bo'lib qutini ochibdi va u yerdan chirolyi muqovali diniy kitobni topibdi. Jahli chiqqa boshlagan o'g'il otasiga baland ovozda baqiribdi:

– Shuncha pulingiz bo'la turib, bayramimga shuni ravo ko'rdingizmi?

Yigit shunday deb kitobni tashlagancha, eshikni qars yopib chiqib ketibdi.

Oradan ancha yillar o'tibdi. Yigit tadbirkorlikda katta omadga erishibdi. Uning ajoyib uyi, mehribon oilasi bor edi. Bir kuni yigit keksa otasini ko'rib kelishga ahd qilibdi. Chunki u o'sha Bitiruv kunidan so'ng otasini boshqa ko'rmagan

va ko'rishni istamagan edi. Yo'lga chiqishdan oлdin yigitga telegramma kelibdi. Unda otasining vafot etgani va bor davlatini o'g'liga qoldirgani yozilgandi. Yigit darhol ota uyiga boribdi. Borishi bilanoq yuragini nadomat va g'am kemira boshlabdi. U otasining ish stoliga o'tiribdi va o'zi tashlab ketgan diniy kitob hamon o'sha yerda turganiga ko'zi tushibdi. Ko'zida yosh bilan kitobni ochib varaqlay boshlabdi. Kitobning o'rtalariga yetganda, uning ichidan nimadir yerga tap etib tushibdi. Qarasa, bir konvert va mashina kaliti. Konvert ichidagi qog'ozda mashina manzili, ya'ni yigit orzu qilgan o'sha do'kon nomi hamda bitiruv munosabati bilan tabrik bitilgandi. Yigit oh urib, boshini changallab qolibdi.

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

IYULNING MAYIN SHABBODASI

Malini Tembi Punadagi „Grinfeld“ maktabiga muallima bo'lib kelganda, yigirma beshinchi yo-zini qarshi olgan edi. Ayni paytda bu yoz Dipak Pradanga o'n olti yoshni tuhfa etgandi. Muallima maktabga qadam qo'yishi bilanoq bolalar uni tab-riknomalar va pushti gullarga ko'mib tashlashdi. Qiz shunga munosib bo'lib, juda go'zal edi. Ham-maning nazarida, u jazirama iyulda mayin bir shabbodaday kirib kelgandi. Yilning aynan shu kunlarida ob-havo g'alati bo'lardi: na issiq, na so-vuq. Malini bu yerga kelgandan so'ng go'yo ham-ma narsa o'z iziga tushgandek bo'ldi.

Birinchi kuni darsning ilk daqiqalarida Malini o'z ism-sharifini doskaga yozganidan keyin sinfxona negadir yorishib ketgandek bo'ldi. Bu paytda Dipak qo'lidagi bir parcha qog'ozni g'ijimlab, kim-largadir otish bilan band edi. Darsdan so'ng ham-ma ketgach esa negadir qo'liga artgichni oldi-da, yozuv taxtasini yog' yalagudek qilib tozaladi.

– Nima qilyapsan? – so'radi Tembi xonim stolidan turib, bolaga o'girilar ekan. U doskadagi mashqlarni hali tekshirib bo'lmagandi.

– Doskada bo'sh joy qolmabdi, yordam berish uchun artib qo'ydim. Lekin keyin sizdan so'rama-ganim yodimga tushdi...

– Menimcha, bir safar seni kechiramiz, – dedi u kulib.

Ertasiga Dipak yo'lni kesib o'tib, o'qituvchisi yashaydigan uyning qarshisidan chiqdi. Tembi xonim endigina eshikdan chiqayotgan ekan.

– Men shu yerdaman, – dedi bola.

– Qanday yaxshi, – dedi o'qituvchisi ham. – Kutilmagan tashrif bo'ldi.

– Kitoblariningizni ko'tarishga yordamlashib yuborsam maylimi?

– Albatta. Rahmat, Dipak.

Ular bir necha daqiqa indamay borishdi. Qiz unga muloyimlik bilan nazar tashlar va bolaning xursandligidan o'zi ham jilmayardi. Ular mакtab binosiga yetib kelishgach, bola unga o'girildi.

– Yaxshisi, shu yerda ajralamiz. Boshqa o'quvchilar noto'g'ri tushunishi mumkin.

– Shunday deb o'ylaysanmi?

– Axir, men o'quvchingiz, siz esa o'qituvchim-siz-ku, – dedi Dipak chin dildan kuyinib.

– Dipak... buni o'ylama.

Malini yo'lida davom etdi.

Bir necha hafta ular dars payti umuman gaplashishmadidi. Bola har kuni dars tugagach, qiz yozuv-chizuv ishlari bilan bandligida, indamay doskani tozalar edi. Ba'zan bu sukunat kechki soat beshgacha ham cho'zilar, qiz ishlarini tugatgach, Dipakning bir chetda jimgina kutib o'tirganga guvoh bo'lardi.

– Uyga qaytadigan vaqt bo'ldi, – derdi Tembi xonim. Shundan keyin bola darrov o'qituvchisining sumkasini ko'tarib olardi. Ular keng dala bo'ylab ketishar va turli mavzularda gaplashardilar.

– Katta bo'lganiningda kim bo'lmoqchisan, Dipak? – so'radi o'sha kuni xonim.

– Havo kuchlari uchuvchisi. Men osmonning eng baland nuqtasiga chiqmoqchiman va chiroyli tabiatni xuddi qushlar kabi o'sha yerdan turib kuzatmoqchiman.

– O, maqsading yuksak ekan.

– Bilaman, shuning uchun qattiq harakat qilayman, – keyin bola bir zum o'ylanib qoldi. – Bir iltimosimga xo'p deysizmi?

– Ha, nima ekan u?

– Men har yakshanba uyingiz yonida joylashgan markaziy xiyobondagi ajoyib ko'lga boraman. Ko'lda bir gala o'rdag-u baliqlar bor. Balki, siz ham menga sherik bo'larsiz?

– Kechir, yakshanbada men band bo'laman.

– Baribir kutaman.

– Taklifing uchun rahmat.

– Sizni xafa qilib qo'ymadimmi?

– Albatta yo'q, Dipak. Nima so'rasang ham, haqqing bor.

Bir necha kundan keyin Tembi xonim bolaga „Yozning tungi orzulari“ nomli kitob berdi. Dipak bu kitobni tuni bilan o'qib chiqar, so'ngra ikkisi kitob haqida uzoq suhbatlashishardi. Dipak qiz bilan kunora ko'rishardi. Malini esa unga doim „Boshqa yonimga kelma“, demoqchi bo'lar, biroq bu ish qo'lidan kelmasdi. Bola qizdan mакtabga ketish va qaytish chog'i Shekspir, Tagor va Kipling kabi yozuvchilar haqida so'rashni yoqtirardi. Suhbat chog'i qiz unga qaramaslikka harakat qilardi. Biroq bir kuni darsdan so'ng bola doimgidek artgichni qo'liga olib, doskani hafsalal bilan

artayotgan paytda Malini undan ko'zlarini ololmay bir dam tikilib qoldi...

Yakshanba kuni Dipak ko'l bo'yida baliq tutib o'tirgandi. Birdan xonimning u tomon kelayotgанини ко'риб о'рнidan turdi.

– Men shu yerdaman, – kuldil qiz.

– Kelganingiz uchun rahmat! Juda xursand bo'ldim!

– Menga baliqlarni ko'rsat.

Ular ko'l bo'yida o'tirishdi. Yengil shabada qizning sochlari va sarisini o'ynab, bola tomon hilpiratib uchirar edi. Dipak uning yonidan bir necha qadam nariga surildi.

– Baliq tutish shunchalik zavqli ekanligini bilmagan ekanman! – dedi qiz.

– Kelganingizdan shunchalik baxtlimanki!..

Nihoyat, ko'l bo'yida Malini Tembi va Dipak Pradan uchrashishgandi. Ular birgalikda soatlab osmonga tikilib o'tirishdi, Kiplingni o'qishdi va baliq tutishdi.

Dushanba kuni ertalab Dipak qizning uyidan chiqishini uzoq poyladi, lekin xonim allaqachon bir o'zi maktabga ketgandi. Dars payti esa „Boshim og'riyapti“, deb vaqtli jo'nadi. Lekin seshanba kuni ular darsdan so'ng yana birga qolishdi. Dipak doimgidek doskani tozalar, qiz esa daftarlarni tekshirardi. Nihoyat, soat beshni ko'rsatib bong urdi.

– Dipak, yonimga o'tir, – qiz uni chaqirdi.

– Ha, xonim, – Dipak artgichni joyiga ildi.

Malini o'yga cho'mib yigitga tikildi.

– Dipak, sen bilan nima haqida gaplashmoq-chiligidini sezgandirsan.

- Ha... men haqimdam? - Yoshing nechada, Dipak?
 - O'n oltida. Yaqinda o'n yettiqa to'laman.
 - Men necha yoshdaligimni bilarsan?
 - Ha, yigirma besh. Men ham to'qqiz yildan so'ng yigirma beshga to'laman. Xonim, buni aytishim kerakmi, yo'qmi, lekin o'zimni xuddi siz bilan tengdoshdek sezaman...
 - Ha, ba'zan buni eplaysan ham.
 - Meni kechiring...
 - Gapimni eshit. Oramizda nima bo'layotgani-ni tushunishing men uchun juda muhim. Avvalo, biz faqat do'st ekanligimizni aytib o'tay. Mening hech qachon sendek o'quvchim, umuman, sen kabi insonim bo'lмаган.
- Yigit bu gapdan qizardi. Qiz o'rnidan turdi.
- Balki, sening hayotingda ham hali men kabi o'qituvchi bo'lмагандир?
 - Siz juda ajoyib insonsiz. Judayam, judayam yaxshisiz, xonim.
 - Bu haqda ko'p bosh qotirdim, Dipak. Tuyg'ularimni pisand qilmayapti, deb o'ylama. Sen oddiy yigit emassan. Bizning betakror, yoqimli kungalarimiz birga o'tdi. Lekin bu xato edi...
 - Men to'qqiz yosh katta va o'n besh santimetr balandroq bo'lganimda hammasi yaxshilik bilan tugarmidi?
 - Ehtimol. Biroq unday emas-ku. Biz odamlar bir-birining yoshi va ko'rinishiga qarab muomala qiladigan dunyoda yashayapmiz, Dipak. Ba'zan insonlar o'zлari istagan ishga qo'l urolmaydilar. Negaligini tushuntirib berolmayman.
 - Nima qilishimiz kerak, unda?

- Hech nima. Meni boshqa mактабга о'tкаzishlarini so'rab ko'raman.
 - Bunday qilishingizga hojat yo'q, - dedi yigit. - Biz ko'chyapmiz. Oilam bilan.
 - Buning menga aloqasi yo'qmi?
 - Yo'q, yo'q, otam shunchaki Mumbaydan ish topibdi. Bu yerdan 150 km uzoqda, xolos. Ko'ri-shib tursak bo'ladimi?
 - Ha, lekin bundan nima foyda?
 - Befoya, ha, befoyda...
- Sinfda uzoq jimlik cho'kdi.
- Nega bunday bo'ldi o'zi? - dedi yigit mahzun.
 - Bilmadim. Hech kim bilmasa kerak. Ming yildan so'ng ham buning sababini bilolmaydilar.
- Ular bir-birlariga qaradilar. Vaqt o'tib borardi.
- Bir narsani hech qachon unutma, - dedi nihoyat qiz. - Hayot kutilmagan sovg'alarga boy. Dardingga davo bo'luvchi insonni hali uchratasan. Yaratgan neki dard bersa, davosini ham beradi. Menga ishonasanmi?
 - Ishonishni istayman... Sizni hech ham unutmeyman.
- Qiz o'rnidan turib doskani arta boshladi.
- Sizga yordam beraman.
 - Yo'q, yo'q, uyingga bora qol...
- Yigit mактабни тark etdi. Ortiga qarab, derazadan xonimning hali ham doska tozalayotganiga guvoh bo'ldi.
- Dipaklarning oilasi keyingi haftada shahar dan ko'chib ketdi. Shu bilan Dipak yigirma ikki yil bu yerga qadam bosmadi. O'ttiz to'qqiz yoshida uylangach, nihoyat, Punaga kelishga ahd qildi. Bahor kunlarining birida u mashinasini

Puna tomon burdi va bu yerda bir kun qolishni
rejalashtirdi.

Dipak rafiqasini mehmonxonada qoldirib, sha-
harchani bir o'zi sayr qildi va yurak yutib, Malini
Tembি haqida so'radi.

– E, ha, bechora o'qituvchi. U 1952-yili vafot
etdi, sen ketganidan bir yil o'tgach, – dedi kek-
sa o'qituvchi.

– U... turmushga chiqqanmidi?

– Yo'q, chiqmadi. O'limidan oldingi oylar juda
g'amgin va baxtsiz ko'ringandi.

Ertasi kuni odamlar Dipakning xotinini
ko'rishganini aytishdi. U xuddi iyulning mayin
shabbodasi kabi go'zal ekan. Shu kunlarda havo
tushunarsiz edi: na sovuq deysiz, na issiq. Dipak-
ning rafiqasi kelgach, go'yo hamma narsa iziga
tushgandek tuyuldi...

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

O'ZGARGAN QAROR

Yuqori maktabga endigina o'tgan paytlarim o'zim tengi bir bolani uchratib qoldim. U ham men kabi maktabdan qaytayotgandi. Uning ismi Kayl ekan. Kayl qo'lida bir dunyo kitob ko'targancha ketib borardi. O'zimcha o'ylab qoldim: „Juma kuni shuncha kitobni uyiga olib ketib nima qilar-kin? Juda o'qimishli, shekilli“.

Men esa dam olish kunlari do'stlarim bilan futbol o'ynamoqchi va o'tirishga bormoqchi edim. Unga tan bergancha yo'limda davom etdim. Sal yurgach, bir to'da yigitlar Kaylni o'rab olganiga ko'zim tushdi. Yigitlar uning atrofida sakrashar, kitoblarini irg'itishar, Kayl esa chang bo'lgan kitoblarini yig'ish bilan ovora edi. Uning ko'zoynagi uchib ketgan, ko'zlarida esa g'ilt-g'ilt yosh aylanardi. Ko'nglim buzilib ketdi. Yugurib uning yoniga bordim. Ko'zoynagini topishga ko'maklashdim. Nigohlari juda alamli edi. Unga ko'zoynagini tutqazar ekanman, dedim:

– Bu yigitlar ahmoq o'zi. E'tibor berma.

U menga qaradi.

– Rahmat.

Uning lablari jilmaydi.

Bu baxtli nigohlardan ta'sirlanib, unga ko'maklashishga qaror qildim. Kitoblarini yig'ishti-

rayotib, uyi qayerdaligini so'radim. Menga yaqin yerda yasharkan.

– Qiziq, negadir oldin seni hech ko'rмаган еканман, – dedim men.

– Men xususiy maktabga qatnayman, – izoh berdi u.

Ilgari xususiy maktabda o'qiydigan bolalar bilan tanishmagan edim. Biz yo'l-yo'lakay gaplashib ketdik. U juda samimiy bola ekan. Unga yakshanba kuni men va do'stlarim bilan futbol o'ynashni taklif etdim. U rozi bo'ldi.

Dam olish kunlarini u bilan o'tkazgach, Kaylni yaxshiroq bilib oldim. Bilganim sari u menga yoqib borardi. Dushanba kuni u yana o'sha kitoblarni ko'targancha maktabga ketayotgandi. Yo'lda uni to'xtatdim:

– Shuncha kitobni olib kelib-olib ketib mu-shaklaringni o'stirmoqchimisan, deyman?

U kulib qo'ydi va ko'tarishib yuborishim uchun kitoblarning yarmini berdi.

Keyingi to'rt yil ichida Kayl va men yaqin do'stlarga aylandik. Maktabdan keyingi o'qishimiz haqida suhbatlasha boshladik. Kayl Jorjtaunda, men esa Dukda o'qishni ma'qul ko'rdik. Garchi boshqa-boshqa yerlarda o'qisak-da, do'stligimiz buzilmasligini bilardik. Men shifokor, u esa futbol maktabi ochish maqsadida tadbirkor bo'lishga qaror qilgandik.

Maktabidagi bitiruv kechasiga Kayl xayrleshuv nutqini tayyorlashi kerak ekan. U notiqlik bo'yicha mashq qila boshladi.

Uning bitiruv kechasiga bordim. Kayl juda xush kayfiyatda edi. Hatto ko'zoynagi ham o'ziga

yarashib turardi. Buni qarangki, yuqori maktabda uni ko'p qizlar yaxshi ko'rarkan. Kaylning nutqi oldidan hayajonlanayotganini sezdim. Shu sabab uning yoniga borib dalda bo'ldim:

– Hey katta yigit, hammasi yaxshi bo'ladi!

U menga minnatdorona nigohlarini tikdi:

– Rahmat!

Kayl tomog'ini bir qirib oldi-da, sahnada nutqi-ni boshladи:

– Bitiruv kechasi, bu o'tgan yillar ichida bizga ko'maklashgan barcha-barchaga minnatdorlik bildirish kechasiidir. Ota-onalarimiz va ustozlarimiz, sizga ta'zim, lekin birinchi o'rinda do'stlarimizga! Men bugun inson hayotida do'stlikning o'rni naqadar yuksak ekanligi haqida so'zlamoqchiman.

Uning hikoyasi menga-da notanish edi. Biroq uni tinglagach, ko'zlarimga yosh keldi. Aytishi-cha, o'sha bizlar tanishgan kun Kayl o'zini o'ldirmoqchi bo'lib, kitoblarini ham mакtabidan shu maqsadda uyiga eltib qо'yayotgan ekan. Toki keyin onasi sarson bo'lib, uning buyumlarini maktabidan uyga tashimasligi uchun. Xullas, o'sha kuni meni uchratib qolgach, bu fikridan qaytibdi.

– Senga rahmat, do'stim, – u menga qaradi, – sen menda yashashga ishtiyоq uyg'otding!

Yig'ilganlar menga hayrat ila boqishdi. Kaylning ota-onasi ham menga qarab jilmayishdi. Men esa birgina daldam va tabassumim bilan kelajagi buyuk bir insonni saqlab qolganimdan shod edim. Odamlardan shirin so'zingiz va meh-ringizni ayamang, do'stlar!

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

RANGLAR BAHSI

Bir kuni ranglar o'rtasida bahs boshlanibdi. Ular qaysi rang eng yaxshi ekanligi borasida ko'p tortishibdi. Axir, hammalari o'zicha chiroyli, kerakli va sevimli edilar-da.

Yashil rang so'z ochibди:

– Men eng zaruriy rang bo'laman. Chunki hayot va umid belgisiman. O'tloqlar, daraxtlar, yaproqlar, umuman, tabiat mendan rang olgan. Men bo'lmasam, butun jonzot va o'simliklar tirk bo'lmas edi. Axir, atrofga bir nazar tashlang, meni ko'rmay bo'ladimi?

Moviy rang uning gapini bo'libdi:

– Sen faqatgina Yer haqida o'ylayapsan, ammo osmon va dengizlar-chi? Ularning hayotimizdagи o'rnini o'ylab ko'rmadingmi? Axir, hamma narsa ning asosi suv-ku? Osmon bo'lmasa, yomg'ir-u qor yog'masa, nima bo'lishini tasavvur qilyapsizlarmi? Bular bizga tinchlik ato etadi. Men bo'lmasam, insoniyat ham, umuman, hech narsa paydo bo'lmas edi.

Bu so'zlarni eshitib sariq rang kulimsirabdi:

– Biram balandparvoz gaplarga o'chsizlarki! Aslida, hayotda quvonch, shodlik, iliqlikdan ham chiroyli narsa bormi? Men odamlarga kulgi, tabassum ulashaman. Aytinglar-chi, quyoshsiz yashab

bo'ladi? Aynan quyosh nurlari insoniyatga issiqlik bag'ishlaydi. Mensiz gullar ochilmaydi, yulduzlar charaqlamaydi. Ko'rdingiz, men bo'lmasam, dunyo naqadar qayg'u va qorong'ilikka ko'milardi.

Suhbatga olovrang ham qo'shilibdi:

– Men kuch va sog'lik ramziman. To'g'ri, tabiatda kam uchrasam-da, ammo inson hayoti uchun juda muhimman. Darmondorilarning asosiy qismi menda mujassam. Sabzi, apelsin, mango, papayya, qovoqda darmonlarim bor. Quyosh botishida ham ishtirok etaman. Bunday go'zallik yana qayda bor?

Qizil rang bu gaplarga chidayolmay hayqiribdi:

– Aslida, men hammangizning ustingizdan hukmron bo'lishim kerak. Men qon tusidaman. Demak, hayot mensiz bo'lmaydi. Jasurlik, dovyuraklik ramziman. Janglarda g'olib bo'laman. Eh-tiros va muhabbat ham mendan yaralgan. Eng go'zal sovg'a – atirgul mening rangimda!

Xullas, o'rtaga boshqa ranglar ham qo'shib, bahs davom etibdi. Hammasi o'zini maqtar, us-tunlik jihatlarini sanar, past ketishni istamasdi. Shu payt birdan osmon charaqlab, gulduros chaqmoq chaqibdi va sharros yomg'ir quyib yuboribdi. Ranglar dahshat ichida bir-biriga yaqinlashib, qunishgancha o'tirishibdi. Chaqmoq ichidan baland ovoz eshitilibdi:

– Ey tentak ranglar, buncha o'zingizni ko'klarga ko'tarmasangiz? Axir, tabiatda hammangizning o'z o'rningiz borligi, bir-biringizsiz mavjud bo'lolmasligingizni nahotki tushunmagan bo'lsangiz? Quyosh chiqsa, daraxtlar ko'karadi. Yomg'ir yog'sa, gullar ochiladi. Suv bo'lsa, hayot

paydo bo'ladi. Muhabbat yaralsa, umid tug'iladi. O't-o'lan bo'lsa, jonzotlar yashay oladi. Demakki, yashil sariqsiz, qizil moviysiz, olovrang yashilsiz mavjud bo'lolmas ekan! Yaxshisi, birlashib, o'zaro kelishgan holda insoniyat va tabiatga in'omlar qilishda davom eting. Dunyoda faqatgina bitta rang qoladigan bo'lsa, hayot tugaydi, buni aslo unutmang!

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

BESH DAQIQA

Bog'dagi o'rindiqda o'tirgan Saidning yoniga bir kishi kelib qo'shildi.

– Anovi mening o'g'lim bo'ladi, – dedi yangi kelgan erkak biroz suhbatlashish maqsadida sheringiga qarab.

– Yaxshi bolakay ekan, – dedi Said ham unga javoban. – Anovi oq ko'ylakda velosiped uchayotgan qizcha esa meniki.

U shunday deb soatiga qaradi-da, qizini chaqirdi.

– Maryam, ketamizmi, nima deysan?

Qizaloq otasining yoniga yugurib keldi va bola tilida chug'urladi:

– Yana besh daqiqa o'ynay, dadajon! Besh daqiqagina...

Said unga ruxsat berdi. Maryam quvongancha maydoncha tomon yugurib ketdi. Oradan besh daqiqa o'tgandan so'ng ota qizini yana chaqirdi:

– Aytgan vaqting o'tib ketdi, qizim. Ketamizmi endi?

Maryam yana otasiga yalindi:

– Yana besh daqiqa o'ynay qolay, dada. Keyin ketamiz, xo'p...

Said jilmaydi:

– Mayli, qizim.

Saidning yoniga o‘tirgan erkak unga so‘z qotdi:

– Juda rahmdil ota ekansiz. Lekin bolalarga qattiqqo‘lroq bo‘lish kerak-da. Yo‘qsa, aytganingizni qilmay qo‘yishadi...

Said kului va so‘zlay boshladi:

– Maryamning akasi Arofatni aynan shu yerda velosiped haydayotgan paytda bir mast haydovchi urib yuborgan. O‘sanda men uning yonida emasdim. U bilan birga vaqt o‘tkazishni bekorchi ish deb hisoblar edim. Afsuski, bir zumda taqdir uni oramizdan olib ketdi. U bilan hech bo‘lmasa besh daqiqagina birga bo‘lolganimda edi, degan azob meni tinch qo‘ymaydi. Xatoyimni qizim bilan tuzatyapman. U mendan atigi besh daqiqagina so‘rayapti, aslida esa men undan so‘rashim kerak. U qancha demasin, shuncha vaqtimni qizim bilan o‘tkazishga tayyorman. Toki keyin afsuslanib qolmay...

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasি

YURAKDAGI NIHOLLAR

Badavlat bir insonning o'g'li yomon xulqli bo'lib, salbiy odatlarini hech tashlamas ekan. Boy o'g'lini tarbiyalash maqsadida uyiga aqlli bir ustozni taklif qilibdi. Ustoz uning muddaosini tinglab, yigitni yoniga olibdi-da, bog' bo'y lab sayrga chiqishibdi.

Ustoz yigitdan shu yerda o'sayotgan kichkina bir niholni yulib tashlashini so'rabdi. Yigit ikki barmog'i orqali niholni osongina ko'chirib olibdi. Shundan so'ng ustoz yigitga daraxt bo'lib ulgurgan ko'chatni yulishni buyuribdi. Yigit zo'r berib, bor kuchini ishlatib daraxtni yerdan sug'uribdi.

– Endi esa bunisiga urinib ko'r, – deya ustoz katta va sertomir daraxtga ishora qilibdi.

Yigit qanchalik urinmasin, daraxt qilt etmas mish.

– Buning iloji yo'q, – deb tan olibdi yigit.

– Ana shunday! Bizdagi yomon odatlar ham ko'chatga o'xshaydi, – nasihat qilibdi ustoz, – avvaliga nihol, so'ng daraxtcha, keyin esa ulkan va bahaybat daraxtga aylanadi. Uni vaqtida qalbimizdan yulib tashlasak, ish oson kechadi. Vaqtini boy bergen sari esa u tomir yoyib, butun tanirozni egallab boraveradi. Oqibat, istasak-da uni yurakdan sug'urib tashlolmaymiz.

Yigit bu gaplardan so'ng o'z xulqi haqida chuqur o'ylab ko'ribdi va qalbida unayotgan yomonlik ko'chatlarini vaqtida sug'urib tashlashga ahd qilibdi.

BIR SHISHA SUT

Bola eshikma-eshik yurib, turli buyumlar sotar, shu orqali maktabda o'qishi uchun pul yig'ardi. Odatiy kunlarning birida uning savdosi unchalik yurishmay, och qolibdi. Nima qilarini bilmay, keyingi kiradigan uyidan yegulik so'rashga ahd qilibdi. Eshikni yosh va go'zal bir ayol ochibdi. Bola salom bergach, ovqat so'rashga botinmay: „Ichishga biroz suv bersangiz, iltimos!“ – deb so'rabdi.

Ayol bolaning ochiqqanini sezib, unga katta shishada sut olib chiqibdi.

Bola sutni sekin va ishtaha bilan ichgach, har ehtimolga qarshi so'rabdi:

- Sut uchun qancha beray?
- Hech qancha. Qarz emassan. Onam bizga „Yaxshilik uchun pul olmanglar“, deb o'rgatganlar.
- Chin yurakdan rahmat sizga!

Bola bu xonadonni jisman tark etsa-da, yuragi shu yerda qolibdi.

Oradan yillar o'tib, ayol xastalikka chalinibdi. Bu yerdagi shifokorlar hech nima qilolmagach, uydagilari uni katta shaharga olib borishibdi. Uni davolash uchun shifokor Xovard Kelliga navbatga yozilishibdi.

Ro'yxatda o'zining shaharchasidan kelgan bemor borligini o'qigan Xovard darhol uni ko'rmoq-

qa oshiqibdi. Palatani ochib kirarkan, ayolni bir ko'rishdayoq tanibdi. So'ng xonasiga qaytibdi-yu, uning tibbiy varaqasini o'qib, davo izlashga kiri-shibdi.

Vaqt o'tib, ayol tuzala boshlabdi. Kerakli mu-olajalar ta'sir qilib, nihoyat, uyga ruxsat beradi-gan bo'lishibdi. Hamshira to'lov qog'ozlarini olib, ayolga beribdi. Ayol buncha pulni to'lashga qur-bim yetsa bo'ldi, degan hadik bilan qog'ozni asta ochibdi. Unda bir necha jumla yozilgan ekan: „*Bir shisha sut evaziga to'lovdan ozod etilgansiz*“.

QALAM VA ODAM

Usta o'zi yasagan qalamlarni qutilarga joylar-kan, ularga maslahat berishni joiz deb topibdi.

– Bu dunyoda siz bilishingiz lozim bo'lgan beshta narsa bor, qalamlarim, – gap boshlabdi u, – tashqi olamga yetkazishdan avval sizlarni ulardan boxabar etmoqchiman. Aslo unutmang-ki, eng yaxshi qalam bo'lish faqat o'z qo'lingizda!

Birinchisi, qo'lingizdan ko'p buyuk ishlar kela-di, biroq buning uchun sohibingiz aytganini qili-shingiz lozim. Demak, komil inson qo'lidagina siz buyuklikka musharraf bo'lasiz!

Ikkinchisi, to maqsadga yetmaguncha siz ko'p azob chekasiz. Sizni alamlari kelsa uloqtirishlari, sindirishlari mumkin. Axir, qog'ozga arzirli narsa bitilmaguncha siz beminnat xizmat qilishingiz tab-biiy-ku. Demak, sabr sizning hamrohingiz bo'lsin!

Uchinchisi, xatoyingizni to'g'rilashni o'rganering. Shuncha yozib qo'ydim-ku, o'chirish uvol, deb bepisandlik qilmang. Haqiqiy asar o'chirg'ichsiz

bitmaydi. Siz qalamksiz, o'chirib boshqatdan yo-zishdek baxtga egasiz. Demak, kamchiliklar ustida ishslash asosiy vazifangiz bo'sin!

To'rtinchisi, qilayotgan ishingizni oxirigacha yetkazishni o'rganing. Yarim yo'lda qoldirib, boshqa yumushga o'tib ketmang. Sohibingizga sado-qatli bo'ling, uni anglang, yordam bering!

Beshinchisi, eng asosiy vazifangiz – yozish, ijod qilish ekanini sira unutmang! Siz tufayli minglab asarlar yaratiladi, millionlab o'quvchilar dardiga malham topadi. Siz kitoblarni asrdan asrga yetaklaysiz. Yoshingiz juda ulug' va siz tufayli dil-dagi gaplarni qog'ozga aytish istagi hamisha bar-hayot bo'ladi!

Qalamlar ustanning so'zlarini jimgina tinglab, ularga doim rioya qilishga so'z beribdilar. So'ngra usta ularni tayyor qutilarga joylabdi.

Qalamga qilingan nasihatlar, aslida, sizga tegishli, aziz insonlar. Yaratgan bizni bu olamga yuborar ekan, besh yumushga chorlaydi.

Birinchisi, qo'limizdan ko'p buyuk ishlar keldi, biroq bizni yaratgan sohibimiz Alloho ni unutmasak, uning aytganlardan chetga chiqmasak bas!

Ikkinchisi, to maqsadga yetmagunimizcha hayotimizda ko'plab sinovlarga duch kelamiz. Irodasizlarcha ularga yengilmay, balki yengib o'tishimiz va kurashda davom etishimiz zarur. Muammosiz hayot yo'q, faqat matonat va sabr bizga yordam beradi!

Uchinchisi, kamchiliksiz inson yo'q. Faqat ularni vaqtida anglab, tuzatib borgan va xatolarni qayta takrorlamaydigan insongina bu dunyoda baxtga erishadi. To'g'ri, bizda o'chirg'ich yo'q,

o‘tgan ishlarni to‘g‘rilay olmaymiz, biroq kelgusi-da takrorlamaslik uchun bizga ong ato etilgan, uni to‘g‘ri ishlata olsak bas!

To‘rtinchisi, bir kasbni boshidan tutdingizmi, uni sharaflang va tartibsizlikka odatlanmang. Hunaringiz ortidan halol rizq toping. Yaratgan o‘z ishini halol va mukammal tarzda bajaradiganlar-ni yoqtiradi!

Beshinchisi, unutmangki, siz – buyuk odam-siz. Faqat mehnat va harakatdan to‘xtamang. Siz bajargan ishlar millionlab odamlarni qutqarsin, million yillar tillarda qolsin. Eng muhimi, bu dun-yoda yaxshi nom qoldirishdek baxtga musharraf bo‘ling!

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

O'ZING AYBDORSAN

Ishdan haydalganingda dunyo ko'zingga qorong'i ko'rindi. Hammasidan qiyini qiziquvchan do'stlar va tanish-bilishlarga nima sababdan haydalganingni tushuntirishdir.

Yo'q-yo'q, men bu gal boshimga tushgan g'urbatlarni gapirmoqchi emasman.

Odatda, birortasi yordam qo'lini cho'zarmikin yoki sal yengil tortarmikanman, deb do'stlarga dardimni aytaman. Bunga javoban esa ular meni iskanjaga olib so'roq qilishadi, sabablarini kovlashtirishadi, oqibatda, barcha ko'ngilsizliklarning aybdori o'zim bo'lib qolaveraman. Men undoq qilmaganimda, bundoq yo'l tutganimda xo'jayin menga tegmas emish. Xullas, qovun tu-shiribmanmi – demak, o'zim aybdorman!

– O'zing aybdorsan! – deya hukm chiqarishadi va shu asno yuzlarida mamnun bir ifoda paydo bo'ladi.

Kunlardan bir kuni o'z yog'imga o'zim qovurilib, xayol surgancha ko'chada ketayotgan edim. To'satdan kimdir yelkamdan ushlab qoldi. Qayrilib qarasam – Usmon Kamol... U yonimda shaxdam kelayotgan edi. Basharamdagi tushkunlikni ko'rishi hamon boshqa qiyofaga kirdi.

– Men... tushunaman, – dedi u ma'nodor qilib.

Demak, u mening ishdan haydalganimni biladi. Endi undan qutulib bo'psan. Hoziroq hammasiga yolg'iz o'zim aybdor ekanimni isbotlash uchun pashshadan fil yasay boshlaydi.

Soxta xayrixohlik qiyofasidagi yashirolmagan quvnoq ifodaga monand emas edi. Men go'yo uning „Tushunaman“ deganini anglamagandek so'radim:

– Nima bo'ldi? Boshingga biror mushkulot tushdimi?

– Menga jin ham urgani yo'q, ammo eshitishimcha, sen yana ishsiz emishsan, – dedi u.

– Hechqisi yo'q, – dedim dadil, bu mavzuda mijg'ovlangim kelmay.

– Qanaqasiga hechqisi yo'q bo'larkan, azizim... – U ko'cha o'rtasida turib olib, ta'kidlardi: – „Eh-he!“ Qahvaxonaga kiraylik, bittadan qahva ichamiz va sen bu voqeа qanday bo'lgани ni so'zlab berasan, – deya taklif qildi.

– Aytishga arzirli narsaning o'zi yo'q, – dedim.

– Qanaqasiga yo'q bo'larkan! Basharangga qara – kimga o'xshab qolding! Ketdik, ketdik! Dardingni aytang, yengil tortasan.

– Go'yo shu bilan bir nima o'zgaradigandek...

– Sen meni xafa qilyapsan... Axir, men senga do'st emasmanmi?

Biz qahvaxonaga kirdik.

– Xo'sh, qani, menga ayt-chi endi, nima bo'ldi o'zi?... – qahvani ho'play boshlashimiz bilan u qis-tovga oldi.

– Xo'jayin meni ishdan haydab yubordi...

– Nima uchun?

– Men qayoqdan bilay. O'zidan so'ra...

– Sen ishga kech qolarmiding? – so'roq boshlandi.

– Yo'q, men hamisha ishga o'z vaqtida kelardim.

– Topshiriqlarni bajarmasmidng?

– Yo'o'q... U ishimdan rozi edi.

– Ehtimol, xo'jayiningning ishi yurishmay qolgandir? – do'stim xuddi boshqotirma yechayotgandek tusmollardi.

– Aksincha, uning omadi chopib turgandi.

U qo'llarini jag'iga tirab, o'ylanib qoldi:

– Ehtimol, unga gap qaytargandirsan?

– Yo'q... Men hamisha xo'jayin nima desa xo'p deb turganman.

Kamol betoqat bo'lib, tirnoqlarini g'ajiy boshladi:

– Yaxshi! Sen maoshing oshirilishini so'ragamidng?

– Yo'q...

– U haqda biron nima degandirsan, ehtimol...

– E yo'g'-e, baraka topkur!

Shu zaylda yana uzoq so'roqqa tutildim.

– Yo Alloh, yo Alloh!.. Nima uchun u seni ish-dan haydab yubordiykin? Ehtimol, sen uning yuziga ham xuddi hozir menga qaraganday surbetlik bilan qaragandirsan?

– Bilmadim... Qarasam qaragandirmam.

– Aha. Mana gap qayerda! Men aytdim-a, bir sababi bor deb. Hech narsadan hech narsa yo'q odamni ishdan haydamaydilar. O'zingdan boshqa hech kim aybdor emas. Xuddi seni yeb qo'y-gudek baqrayib tikilib turadigan odam kimga ham yoqardi? To'g'risini aytsam, sen o'zing aybdorsan!

Shunday deya u yengil tortdi...

Do'stim bilan beholgina xayrlashib, qahvaxo-nadan chiqdim. Xo'jayin ishdan haydaganda ham ko'nglim bunchalik g'ash tortmagandi.

Men avtobus bekatiga bordim.

– Biz eshitgan uzunquloq gaplar to'g'rimi? – avtobus ichkarisiga kirishim hamon qulog'imga shu gap chalindi. Orqa o'rindiqda boshqa bir ta-nishim o'tirardi.

– To'g'ri...

– Afsus... Xo'sh, nima uchun?

– Bilmadim.

G'aroyib jinoyat ustida bosh qotirayotgan po-litsiyachi misol gap qotdi:

– Voh, voh! Sababsiz odamni ishdan haydash-maydi, bir balosi bordirki...

– Har holda...

– Ehtimol, sen haqingda ma'lumot yetkazish-gandir...

– Yo'g'-e...

– Balki, o'rningga boshqa – munosibroq odam topgandir.

– U hamisha ishimdan rozi edi.

– Balki, u kamroq maoshga ham rozi bo'ladi-gan odam topgandir?

– Bunaqasini topib bo'pti!

– Unday bo'lsa, nega seni ishdan bo'shatdi? Ehtimol, sen u bilan muomala ni yo'lga qo'yolma-gandirsan?

– Qanaqasiga qo'yolmaganman? Oddiygina mu-omala qilganman...

– Voh, mana endi hammasi ravshan.

– Nimasi ravshan ekan?

– Hammasi ravshan... Axir, xo'jayin bilan od-diy muomala qilib bo'larkanmi? Aslo mumkin emas... Sen unga senlab gapirgansan, u esa bundan xafa bo'lgan...

– E yo'q, og'ayni... O'zi xo'jayinning basharasi-ni oyda bir marta ko'rardim. Ko'rganimda esa u men bilan gaplashmasdi ham...

– Hammasi tushunarli... Sen behuda gaplaring bilan uning boshini qotrigansan, bundan xo'jayinning ensasi qotgan. Albatta, xo'jayin haq. Sen o'zing aybdorsan...

Shundan keyin uning ham ko'ngli joyiga tushdi.

Birinchi bekatdayoq avtobusdan tushdim. Ko'nglim shu qadar xijil ediki, kimgadir dardimni aytmasam bo'lmashdi. Men eski do'stimning uyiga bordim.

– Meni ishdan bo'shatishdi, – dedim unga os-tonadan hatlaboq, – ammo sendan iltimos qila-man – mendan hech narsa so'rama va sababini ham surishtirma...

Mening gaplarimdan keyin u battar qiziqib qoldi:

– Demak, muhim sababi bor ekan-da...

– Xudo haqqi so'rama...

– Sen uni bayramlar bilan tabriklab turarmi-ding? Uyiga borib yo'qlarmidинг?

Men hech qachon xo'jayinning uyiga borma-gandim, ammo do'stimni chalg'itish uchun dedim:

– Albatta... Har bayramda, har yangi yilda, ha-misha, har bir qulay fursatda...

– Hammasi tushunarli.. Hadeb boraversang...

– Yo'q, men unaqa... tez-tez bormashdim...

U ham boshqalar kabi meni savollarga ko'mib tashladi.

- Qiziq, sen uning asabiga tegmasmiding?
- Aksincha...U meni yoqtirardi.
- Unda yana nima bo'lishi mumkin? Aqlim bo-var qilmayapti...

Toqatim toq bo'ldi va xonada hovliqib yura boshladim.

- Tufling g'archillayapti-ku!.. – do'stim nogoh xitob qildi.
 - Ha, g'archillaydi! – deya tan oldim.
 - Qachondan buyon?
 - Sotib olganimdan buyon, besh oydan beri ki-yaman, hamma vaqt g'archillaydi.
 - Sen shuni kiyib ishga ham borgandirsan?
 - Ha.
 - Voh, voh... Men aytdim-a, ishdan bekorga haydashmaydi deb.
 - Sen meni nima uchun ishdan haydashgani sababini topdingmi? – deb so'radim.
- Do'stim o'rindiqqa qulay yastanib o'tirib ol-gach, iddaosini boshladi:
 - Ertadan kechgacha tuflining g'archillagani-ga qaysi ahmoq toqat qilardi! Xo'jayining haq!.. Mana, og'aynichalish, aybing qayerda...
 - To'ppa-to'g'ri, ayb menda... – jahl bilan qich-qirdim, – aybdorman, aybdorman! Ammo boshim-ga kulfat tushgan kuni oldingga buni eshitish uchun kelmagandim.
- Men eshikni qarsillatib yopib, chiqib ketdim.
- Oqshomda paromga chiqib, Kadiko'yga jo'nar-kanman, xayolimdan hamon o'sha mojaro ket-masdi.
 - Namuncha uzoq o'ylanib qolding? – deb so'radi bir notanish. – Biror ko'ngilsizlik bo'ldimi?

- Yo'q, hechqisi yo'q...
 - Yuzingdan ko'rinish turibdi, ta'bing tirriq. Ay-taver, balki, yordamim tegib qolar.
 - Xo'jayin meni ishdan haydab yubordi...
 - Nima uchun?
 - Bilmayman.
 - Balki, biron ayb qilgandirsan?
 - Mening tuflim g'archillaydi... Bundan xo'jayinning asabi buziladi.
 - Azizim, axir shugina uchun ishdan bo'shatishmaydi. Bu yerda boshqa bir gap bo'lsa kerak.
 - Men xo'jayinning basharasiga sinchkov tiki-lardim, bu unga yoqmasdi...
 - Buniyam to'qib chiqaryapsan.
 - Men u bilan kamdan kam gaplashardim.
 - Arzimaydigan gap.
- Men notanish odamning yuziga qarab turib kulib yubordim.
- E-ha, sen hoynahoy xo'jayinning yuziga qarab turib ham xuddi shunday masxaraomuz kulgandirsan-da?
 - Ha, ha, aynan shunday – masxara qilgandim. Va oqibat, xo'jayin meni ishdan haydab yubordi. Aybdor o'zimman. Endi tushungandirsan? Ko'ngling joyiga tushdimi?
- Men shartta qayrilib, jo'nab qoldim.
- Noxush kunni shu zaylda o'tkazib, uyga qaytdim. Kechki taomdan keyin Ibrohim kelib qoldi. U juda tajang edi. O'n kun oldin uni ishdan bo'shatishgandi.
- Voh, voh-voh... Nima uchun bo'shatishdi? – deb so'radim.
 - Bilmadim... Xo'sh, o'zingni nega haydashdi?

- Bilmadim...
- Albatta, sababi bor.
- Seni ham bekorga bo'shatishmagandir... Ishga tez-tez bormasmidin?
- Sen kasalliging haqida ma'lumotnomaga ber-maganmidin?..

Biz bir-birimizni so'roqqa tuta boshladik. Suhbat davomida Ibrohim tez-tez aksirib, yo'talar, ro'molcha bilan burnini artar edi.

- Sen, Ibrohim, hoynahoy tumov bo'lib qolgan-dirsan? – deb so'radim.

- Men eskidan shunaqaman. Surunkali tu-mov...

Men o'rnimdan sakrab turdim va qo'llarimni yoyib:

- Mana endi tushunarli – nega seni ishdan haydashgani!.. – dedim. – Aybdorni qidirib o'tirma, aybdor o'zingsan...

Ibrohim hang-u mang bo'lib, menga qarab qoldi.

- Sen mana shunaqa qilib doimo burningni ro'molchada artib yurasan, boyoqish xo'jayinga bu yoqarmidi?.. Albatta, seni ishdan haydash kerak edi? Shunday emasmi?

Men yengil tortib qoldim. Hatto xursand ham bo'ldim. Xuddi yangidan ishga kirganday.

Shodmon OTABEK tarjimasi

OTAMNING ISHI

Duysburgda vokzal katta: o'n uchta perroning hammasi qubbasimon shisha tom ostida. Bir poyezd kelaveradi, boshqasi ketaveradi. Pulling bormi, o'tir-da ketaver: Gollandiyami, Daniyami, Shvetsiya, Shveysariya, Avstriya, Fransiyami, ko'ngling tusagan tomonga... Yo'lovchilar oqimi kunduzi ham, kechasi ham tinmaydi. Yuklar – xomashyo, tayyor mahsulotlar oqimi ham xuddi shunday. Besh emas, o'n emas, qirqta temiryolda yuk vagonlari ortishni va bo'shatishni kutib turadi. Chamamda, yorug' dunyoning biror yerida boshqa bunday vokzal yo'qday ko'rindi.

Yaqinda o'qituvchimiz Frau Ramaxer:

– Ikki sinf, shu jumladan, sizlarning sinf ham Kyolnga sayohatga boradi, – deb e'lon qildi. – Xarajatlarni maktab to'laydi. Sayohatda qatnashish majburiy. Lekin ota-onangizdan yozma ruxsat olib kelishingiz kerak.

Men uyga qanot bog'laganday uchdim. „Mana bu gal endi, – o'yladim, – dadam yo'q deyolmaydilar“.

Aytganimday bo'ldi. Gaplarimni eshitib, otam „ha“ ham, „yo'q“ ham demay, bosh chayqab qo'ydilar, xolos. Ammo men ham darhol: „Yaxshi, qizim, bora qol“ – deb rozi bo'lishlarini kutma-

gandim. Unaqalardan emaslar. Ammo unamay gapimni shart kesib qo'ymadilar – „shunisiga ham rahmat“.

– Ota, agar bormasam, meni sinfda qoldirishadi, – deb tushuntirdim yaxshilab. – O'quv sayohati bu, tarix darsi bilan ikkovi bir.

Bu chin haqiqat edi – men, axir, oyimga ham, dadamga ham hech yolg'on gapirmayman. Biz roman-german muzeyini ziyorat qilishimiz lozim edi. Umuman, men ota-onam bilan Kyolnga borganman, ammo biz bu muzeyga kirib o'tmagandik. Bizdan taassurotlarimizni yondaftarga qayd qilib kelish talab qilinardi. Bularning hammasini otamga aytib berdim va sarf-xarajatlarni maktab to'lashini ta'kidladim.

– Ey omon bo'lgur, Komil og'a, nimasini o'ylaysiz? – deya meni qo'lladi oyim. – Maktab barcha xarajatlarni to'larkan, siz ruxsat xati yozib berarkansiz, xolos. Tushlik uchun qizingizga yigirma marka bering, tamom-vassalom. Qolgani Xudoga havola.

Baraka topkur, oyim zo'r-da o'zi.

Lekin otamdan ham xafa bo'sak, gunoh bo'ladi. U o'ttiz marka chiqarib menga uzatdi.

– Meni to'g'ri tushun, Gultan. Biz bu yerda begona odamlar orasida musofirmiz. Agar ehtiyojmizni qilmasak, bir baloga yo'liqishimiz hech gap emas. Seni nemis maktabiga berganimiz uchun ba'zi yurtdoshlarimiz uchiriq gaplar qilib yurishibdi. Ammo bu mening ishim. Ular turk vaqfi fondiga pul o'tkazishimiz zarurroq edi, deb hisoblashadi. Ammo bu ham mening ishim. Sen esa xotirjam sayohatga boraver. Lekin to'g'ri borib

to‘g’ri kel, nojo‘ya harakat qilma, o‘zimning shakarim, xo‘pmi?

– Nojo‘ya harakat qilmaydi, xavotir olmang, dasasi, – yana yonimni oldi onam. Boshini ko‘tarib, mag‘rur qaradi, – arslondan qayeri kam? Qizimiz hech qachon yomon yo‘lga yurmagan va yurmadi ham.

Oyim dadamni ishontirish uchun o‘lib-tirila-yotganini eshitib: „Negayam qiz bo‘lib tug‘ildim-a, o‘g‘il bo‘lganimda maza bo‘lardi, – deb o‘yladim. – Turklar o‘g‘illaridan xavotir ham olishmaydi, yo‘q ham deyishmaydi – nima so‘rasa berishadi. Menga bo‘lsa „Unday yurma, bunday yurma.... begona joylarda“, degan tanbehlar... Jonga tegdi“.

Mening oyim judayam yaxshi, tushungan ayol. Otamga qanday yondashish, qanday muomala qilishni biladi. Otam bergen pulga yana o‘z yonidan o‘n marka qo‘shti. Faqat nemislargina o‘z bolalariiga sayohat uchun shuncha pul berishadi...

Otam ishga kech qolmaslik uchun ertaroq yotdi. Men uydan undan bir soat keyin ketishim kerak edi. Yig‘ilish soat yettiga tayinlangandi. Shuning uchun men ham televizor ko‘rmay, erta yota qoldim.

Soat jiringlaganda, men yonboshimga o‘girildim va oyimning: „Yana bir soat uxbab olsin“ – deganini eshitdim. Otam menga yana bir-necha yo‘l-yo‘riq berish uchun hamon meni uyg‘otmoqchi bo‘lar, ammo oyim: „Kerakli gapning hammasini men o‘zim unga aytaman“, – deb uni menga yaqin yo‘latmasdi.

Ukalarimni uyg‘otishga ham qo‘ymadi. Otam jimgina kiyinib, ishiga ketdi.

Men uyg'onib o'rnimdan turganimda, choy tayyor edi. Aksariyat nemislarning choyi biznikiday xushbo'y va achchiq bo'lmaydi, ammo bu safar u menga shunday yoqdiki, bir yo'la bir necha finjon ichdim. Oyim nimaki tayyorlasa, hammasi mazali bo'ladi. Men yana ikkita sariyog'li buterbrod yedim. Oyim safar jildimga sochiq,sovun, tish cho'tka va taroq soldi.

„Yugur, – dedi u, – bo'lmasa kech qolasan!“ Men Rurortgacha avtobusda borib, keyin tramvayga o'tishim kerak edi. Yo'l uchun vokzalgacha o'ttiz-qirq daqiqa vaqt ketardi.

Olmoniyada avtobuslar aniq vaqtarda yuradi. Xuddi poyezdlarday. Har bir bekatda oynali ramkada qatnov jadvali osig'liq. Avtobuslar ko'rsatilgan vaqtida keladi. Begin kunlari vaqt oralig'i qisqaroq, dam olish kunlari kattaroq. Biz – ukam ikkimiz uncha ko'p kezmaymiz. Otam Avgust Tissen zavodida ishlaydilar. Shuning uchun Rurortgacha oylik chipta olib qo'yadilar, shunda arzonroq tushadi.

Rurortdan o'tayotganimizda, men dadam ishlaydigan zavodni ko'rdim. U Anqaradagi Xo'ja masjidi kabi juda katta va ulug'vor. Uning naq ko'kka qadalganday karnaylari minoralarga o'xshaydi. Peshtoqining yarmi oynadan, yarmi pishiq g'ishtdan. Yon devorlari esa sement, oqlab qo'yilgan-u, lekin qurum bosib yotibdi. Bu yerda hamma binolar shu qadar kirki... Tissen kompaniyasi esa juda katta bir saltanat. Bu yerda, Duysburgda katta zavodlari ko'p. Brukxauzenda bundan ham kattarog'i bor. Yana Oberxauzen, Boxum, Essen va boshqa joylarda ham zavodlari bor.

„Zavodimiz tashqi tomondan bunchalik chiroyligi ekaniga qaramang, – deb hikoya qiladi dadam. – Ichkarisi do‘zaxdan battar. Yozda ham, qishda ham odamni adoyi tamom qiladigan alan-gayi otash. Jahannamning o‘zi. Olmonlar pivo bilan chanqoqlarini bosishadi. Bizning turklar esa dasturxon ustida tilga olib bo‘lmaydigan „onangni“larni aytib so‘kinishadi yoki, aksincha, Allohdan madad so‘rab duo o‘qishadi. Biz pivo ichmaymiz, chunki bir tomondan gunoh bo‘lsa, ikkinchi tomondan ortiqcha chiqim. Dam olmay ishlab terga botamiz.

Qaynab turgan suyuqlik katta temir cho‘micha suzib olinib, qoliplarga solinadi.

Halokat bilan yakun topadigan ko‘p baxtsiz hodisalar bo‘lib turadi. Men hozircha nina te-shigidan ipni bemalol o‘tkaza olaman. Allaqachon ko‘r bo‘lishim mumkin edi, lekin ko‘r bo‘lmadim, chunki qora ko‘zoynakda ishlayman.

Rostini aytsam, mening ishim unchalik qiyin emas. Xudoga shukr, uni eplab turibman. Ma’danni eritib, eritma sifatini tekshiraman. Qo‘limda emas, albatta, maxsus uskunalar bilan. Menga kerakli narsani avtomat uzatib turadi. Eritishni ham avtomat bajaradi. Bu Olmoniada hamma ishni avtomatlar qiladi. Sen faqat bir tugmani bosasan, xolos... Men o‘zim olmonlarga o‘xshab pivo ichmayman. Biznikilar kabi „onangi“lab so‘kinmayman. Faqat imkon qadar ishni „bismillo“ bilan boshlayman. Bizza tushlik soat o‘nda. O‘sanda choy ichaman: baraka topkur Ko‘k Sulaymonning jannati qizi idishlarga quyib beradi! Sariyog‘li va pishloqli buterbrod bilan bit-

ta ko'k olmani tanovul qilaman. Tanaffusdan keyin ishning unumi ortadi.

Xuddi tog'dan tushayotganday bo'lasan. Oyoqlarni chalishtirib o'tirasan, avtomatlar o'z ishini qilaveradi. Mening o'rninga keluvchi sherigim – italyan. Juda tartibli yigit, ish boshlashiga rappa-raso besh daqiqa qolganda keladi. Biz yaxshi do'stlarday qo'l berib so'rashamiz, keyin men dushga ketaman. Sovun bilan yaxshilab yuviman. Uydasovun ishlatmay qo'ya qolaman. Qarabsizki, faqat iqtisod qilingan sovunning o'zidan bir yilda sakson marka tushib turibdi! Bu – bitta shimga yetadi, hech bo'lmaganda orqangni bekitasan..."

Rurortda men bilan birga tramvayga sinfoshim Silviya ham chiqdi. Ko'z ochib-yumguncha qo'lida gitarasi bilan Haynrix ham oldimizza paydo bo'ldi. Men uni yoqtirmayman, qandaydir telbaroq. Vokzalda bizni Frau Ramaxer kutib oldi. Tezda Gerr Lorens ham yetib keldi. So'ng, bizga yon tomonimdag'i partada o'tiradigan qo'shni'm Gizela qo'shildi. Soat rappa-raso yetti edi. Vokzal bolarining iniga o'xshardi. Birdan boshqa shaharlik bir to'da ishchi yopirildi, ko'pchilik duysburgliklar. U yoqqa ishlashga ketayotgan edilar.

– Ayrim ishchilar bu yoqqa hatto Gamburgdan va Bonndan ham keladi, bu yerlik ba'zi birovlar esa Dortmund va Monnsterga ishlashga boradi, – deb izoh berdi frau Ramaxer.

Men esa iljayib qo'ydim va ichimda: „Faqat Olmoniyada emas, butun yorug' dunyoda Duysburgday boshqa shahar yo'q, – deb o'yladim. – Bu yerga olis turk qishloqlaridan ishlagani kelisha-

di. Oyim to'g'ri aytadi: shahar, albatta, boshdan oyoq tutun va qurumga ko'milgan, hatto tepada osmon ham ko'rinxaydi, lekin bu yerda pul ishlash mumkin, eng muhimi shu-da o'zil! Pulning o'rni bo'lakcha!"

Mana men pulni hisoblay boshladim. Birgina shu Kyoln sayohatimga dadamning sovundan iqtisod qilgan yarim yillik puli ketar ekan. Oh, dadajonim, mendan hech nimangizni qizg'anmay-siz-a!

Bolalar uchta-uchta, beshta-beshta bo'lib kelishardi. Ba'zi birovlar taksida, Monika Shneyderni mashinada onasi olib keldi. Ursula o'z yigiti Xartman bilan qadam ranjida qildi. Hamma to'planib bo'lishi bilan safar xaltalarimizni yelkaga osdik va yerosti yo'lagi bilan to'rtinchi perronga bordik. Yonib-parpirab turgan tablo po'yezdimizning siljish vaqtini ko'rsatardi. Biz kutib turdik. Tegramiz yo'lovchilar bilan to'la edi, hammasi olmonlar. Ba'zilari itlarini ham olib kelishibdi. Bizning sinfda birgina men turkman. Olmon tilini yaxshi bilganim va boshqa fanlarni ham tappa-tuzuk o'zlashtirganim uchun, olmon sinfiga qabul qilishgan. Umuman olganda, turk bolalari yillab tayyorlov sinflarida o'tirishadi.

Oyim meni omadlisan, deydi. Erga tegishda ham omading kelsa – tamom-vassalom. Baxtli bo'ldim deyaver!

Biz Olmoniyaga ko'chib kelganimizda tepamizza bir buvi turardi. U meni o'zi bilan bozorga olib borar, o'ynagani istirohat bog'iga yetaklab ketardi. Ko'pincha uyiga chaqirib, men bilan olmoncha gaplashardi.

Bir jumlanı eslab qolishim uchun, o'n marta lab, hatto yigirma marta ham takrorlardi. Ukalarimdan ham e'tiborini soqit qilmasdi. Shu kam-pir tufayli dadam ham olmoncha gaplashishni o'rganib oldi. Oyim hatto dadamni undan rashk qila boshladи. O'rtalarida biror nima bo'lgan-bo'l-maganini bilmayman, faqat oyim dadamni ikkin-chi qavatga chiqarmay qo'ydi. Ammo bizlarning chiqishimizga qarshilik qilmasdi.

Bundan ikki yil oldin bizning buvimiz o'ldi. Oyim norozi bo'lib, qovoq-tumshuq qilganiga qaramay, dadam uni Noyer Fridxof qabristoniga qadar kuzatib bordi. Dafn marosimida odam juda oz edi: ikki-uch qarindoshi, qizi va otam. Yotgan joyi parday yumshoq bo'sin ilohim! O'sha xotin menga olmon tilini o'rgatdi. O'shandan buyon hayotimda hammasi yaxshilikka qarab ketgan.

Poyezd hali kelmagandi. Men Monika Shneyder bilan yonma-yon turardim. Ikki vatandoshimiz perronni supurib yurganini ko'rdim: biri – shundoq yonginamizda, ikkinchisi – sal nariroqda. Yaqinimizdagisi quyuq mo'ylovleri orasidan tutun burqsitardi.

– Hey, Komil og'a, – deb qichqirdi u birdan. – Tugat endi, bu yoqqa kel. Tez orada Myunxen ekspressi jo'naydi.

Ikkinchi farrosh qaddini rostladi. Xuddi badanimni chaqmoq urganday, bir titrab tushdim. Bu mening dadam edi.

Boshim aylanib ketdi. Bu nimasi? Otamga yaqinlashishdan hadiksirardim: Monika Shneyderning ko'zi tushishini istamas edim – uning shu paytda bilib qolishi bemavrid ko'rinaridi.

Otamning sherigi meni ko'rib qolishi ham xatarli edi. Eng ma'quli o'zimni chetga olish. Men Haynrixning ortiga yashirindim: uning kiftlari barvasta, yana tag'in qo'llarida gitarasi ham bor edi. Ammo o'zim dadamni kuzatardim. Odatda, u ishga ketarkan, o'zining qishloqdan olib kelgan eski kepkasini boshiga qo'ndirib olardi. Ammo bugun u fransuz politsiyachilari kiyadigan kepkasimon bir narsani kiygandi. Ham hokimiyat farroshlari kiyadigan kiyimda edi. Agarda sherigi uning otini aytib chaqirmaganda men uni hatto payqamagan bo'lardim. Tish cho'tkaga o'xshash uzun cho'tkasini bilan yo'lovchilarining oyoqlari atrofidagi sigareta qoldiqlarini ilib-ilib supurib olardi. Ba'zi bir olmonlar, amerikaliklarga o'xhab, koka-kolaning ezilgan paketchalarini duch kelgan yerga otib ketishardi. Yoki qatiq paketchalarini axlat yashiklariga otishar va ular ham mo'ljalga tushmay sochilib yotardi. Bizning buvimiz, urushdan ilgari hamma olmonlar juda pokdomon bo'lishgan, endi ular yomon tomonga o'zgarib ketishdi, der edi.

Men hech kimga bildirmay, dadam qanday ishlayotganini kuzatayotganimda poyezdimiz keldi. Otam cho'tka-supurgisini piyoda askarlarday yelkasiga oldi-da, bizning perronimizga sakrab o'tdi. U o'z sheringining yoniga kelib to'xtadi, shundan keyin ikkovlari poyezd qay taxlit taraqa-turuq qilib va vishillab, g'ildirab kelishlariga qarab turishdi. Ikkovlarining ham mo'ylov-lari uzun-uzun va quyuq edi. Otam biz tomonga qarab-qarab qo'yardi. Balki, u o'quvchilar to'dasi ichidan meni qidirgandir. Buni fahmlaganimda, ko'nglim yanada cho'kib ketdi.

Sayohat hammasi bo'lib bir kunga mo'ljallangan edi. Uyga qaytganimda kechqurun nima deyman endi? „Demak, dada, sizni Xo'jatepa masjidiga o'xshaydigan o'sha ajoyib zavoddan haydashibdi-da? Farroshlikka borishga majbur bo'libsiz-da?“

Ammo men u nima deb javob berishini oldin-dan bilaman:

„Qizalog'im, men senga avtomatlar to'g'risida gapirib bergandim. Bu la'nati avtomatlarning har biri o'nلarcha, hatto yuzlarcha ishchilarning o'rni-ni bosa oladi. Shuning uchun ortiqcha ishchilarni, birinchi navbatda muhojirlarni ishdan bo'sha-ta boshlashdi. Shunday qilib men ham ko'chada qoldim. Turgan gapki, juda qattiq xafa bo'ldim. Ammo sizlarni xafa qilgim kelmadi, hech kimga hech nima demadim. Olti oy ish qidirdim. Odatdag'i vaqtimda, erta bilan ketib, oqshom qaytardim. Rahmat, do'stlarim yordam berishdi, farroshlikka joylab qo'yishdi. Ko'rganingday, endi men Duysburg vokzalida, sherigim Avnosli Ibrohim bilan perronlarni supuraman. Sen, Gultan, endi ancha katta bo'lib qolding, hayot nimaligini sal-pal tu-shunishing kerak. Ishmi ish, ishdan uyalib yurish o'rinsiz. Har neki bo'lsa-da, sendan iltimos qila-man: oyingga ham, ukalaringga ham hech nima dema. Yana bir iltimosim – har doim aytadigan gapim – to'g'ri yur, ona qizim. O'zingni ham, oilamizni ham uyatga qo'yma. Senga aytar gapimning hammasi shu...“

Miraziz A'ZAM tarjimasi

XANJAR

Ko'kda jazirama oftob, har qadam bosganida oyoqlari iligigacha qizib yotgan tuproqqa ko'miladi. Ust-boshi changga botgan, bo'ynidan, yuzidan oqqan terlar changga qorishib loyga aylanadi. Boshiga bog'lagan ro'molchaning bir uchini tishlari orasiga olib chaynab, qo'li bilan ikki yoniga ishoralar qilar, o'ziga o'zi gapirardi. To'rt tomonga tuproq to'zg'itib tez-tez yurib borarkan, birdan to'xtadi. Og'zidagi ro'molcha uchini mahkam tishladi. Tupurmoqchi bo'ldi, lekin og'zi qurib, tili tanglayiga yopishgandi. „Men, – dedi o'ziga o'zi, – ko'rsatib qo'yaman unga. Men o'g'rilik qiladigan odammanmi, bu ishda o'lim bor“. Yana tez-tez yura boshladi. Oyoqlarini kuydirgan tuproqni ham sezmadni. Keyin nimagadir yo'l chetiga chiqib, dala tomon burildi. Qurigan ekin poyalari oyoqlari ostida charsillaydi. Sal narida xirmon mashinasasi guvullaydi, ishchilarning g'a-la-g'ovurlari eshitiladi. Xirmon mashinasiga e'tibor ham bermasdan, oldidan o'tib ketdi. Ko'zlarri qisilgan, kichkina yuzi esa qorayib ketgandi. Peshonasidagi ajin izlariga ham loy to'lgan. Bir oyog'i qatqaloq yorig'iga tushib, qayrildi. Qattiq og'ridi. Og'riq zo'ridan turgan joyida o'tirib qoldi. Tuproq etini qizigan temirday kuydirdi. Jazira-

maning azobi... Tuproqning qaynoqligi... Shaxd bilan o'rnidan turdi... Birpas alanglab qoldi. Keyin yerdan bir tutam qurigan ekin poyasini olib chaynay boshladи. Chaynarkan, og'zi qurib, yuzi burishdi. Tuflab tashladи. Keyin yana bir tutam oldi. Shunaqangi charchabdiki, ko'zi tinib keta-verdi. Sarosimaga tushdi. Nima bo'lyapti, qayoqqa ketyapti? Shu zahoti esiga tushdi: „Benomus, olchoq, – dedi zarda bilan, – nima qilsam qila-man. Shuni bilki, bu ishda o'lim bor. Men o'g'rilik qiladigan odammanmi? Shuncha yildan beri Chuqurovadaman, or-nomus bilan ter to'kdim“. Keyin yana toldi. Oftob kuydirgandan kuydirdi.

Shu kuni ro'paradagi yo'ldan o'tganlar dala o'rtasida, oftob tig'ida, tep-tekis, yarqirab bir bo'yra kabi yastangan ovulda biroz oldinga egi-lib, qimir etmay turgan odamni ko'rdilar. Uning ko'zları yumilgan... Bir yong'oq daraxti ostida uch yoshli, tishlari oppoq, kulib turgan bir bola... Bola shod-xurramlik bilan onasining bo'yniga osiladi. Bola terlab-pishgan, yuz-ko'zidan ter oqadi. Bolaning ko'ylagi yirtilgan, negadir tinmay yig'laydi.

Qari ona, sochlari oppoq... Belini ushlab turib, allanimalar derdi. Onaning qo'llari qurishib ketgan...

Tishini tishiga bosdi. „Benomus... Senga ko'r-satib qo'yaman hali! Men o'g'rilik qilganman-al! Yarim tunda Muharram og'aning paxtasini o'g'ir-laganman, shundaymi? Meni haydatasanmi ishdan?“ Kunyurar shamoli asta-sekin esa boshladи.

Bir qadam tashlab to'xtadi. So'ngra tez-tez yura boshladи. Chang-to'zon daladan yo'lga o'tdi. Oldinda birov ketyapti. Ko'z qiri bilan qaradi.

Asta-sekin shom cho'kayotgani uchun oldinda ketayotganni taniyolmadi. Qadamlarini tezlatdi. Oldida ketayotganga yetib olib: „Hey“, – dedi. Nargini kishi qayrilib qaradi. „Ali... senmisan?“ – dedi sevinib. Ali to'xtadi. „Yaxshi ish qilmading, Husayn“, – dedi. Husayn: „Men, – dedi, – unga qasd-dan qildim bu ishni“. Ali esa: „Sening orqangdan nima qilsa qildi... Aytmagan gapi qolmadi... O'g'ri dedi. Benomus dedi. Dala ishchilarining obro'sini bir tiyin qilgan shular bo'ladi, dedi. O'g'li „Qayer-dan bilay“, dedi. Shu ishni qilib rasvo bo'lmasli-ging kerak edi“. Husayn: „So'kdimi?“ – deb Ali-ning yoqasidan oldi. Ali: „Qo'yvor yoqamni! Men unisini bilmayman“ – dedi. „Nimaga bilmaysan?“ „Bilmayman...“ „So'kmadimi?“ „Bilmayman...“ „Yana nima dedi?“ „Bilmayman...“

„Men uning xotini bilan yotdim, dedi. Shunday-mi?“ „Bilmayman, lekin u juda benomus odam!“ „Demak, yuzta odamning ichida shunday dedi-a?“ „Olchoq u“. „Voy onangni...“ Ali: „Butun Chuqurovada undan o'tadigan uyatsiz odam yo'q. Bosh-liq emas, naq ishchilarning boshiga bitgan balo u! Sening bir qop paxtangni shuncha ishchilar ichida og'aga ko'rsatib, pastga urishi shartmidi? Hammaga yomonlik qiladi, birorta ta'zirini beradi-gan chiqmadi. Birorta mardning oldida qilolmaydi bu ishini. Qolaversa...“ Husayn Alini qo'lidan tutib to'xtatdi. Qonga to'lgan ko'zlarini uning nigoh-lariga qadadi. „Gapir, – dedi, – xotini bilan yotdim, dedimi?“ Ali kiftini uchirdi: „Bilmayman...“

Shu on Husaynning qo'lida xanjar yaraqla-di. „Ayt, – dedi. – Ayt!“ Ali labini burishtirdi: „Bu xanjarni menga uradiganga...“

Husayn Alini nafrat bilan itarib, ortiga qaytdi. Yugurdi. Dalalardan, butazorlardan o'tib, nafasi tiqilib to'xtadi, keyin yana yugurdi. Oyoqlari qontalash bo'ldi. Ayni damda oyning yuzini bir parcha bulut qopladi. Har bulut qoplaganda Husaynning yuragi seskanaverdi.

Husayn qalin butazor qorong'isida yotib, qo'li-dagi xanjarni otar, dir-dir titrar, bor kuchi bilan kerishardi. Oy mag'rib tog'lari ortiga botdi. Husaynning ko'zi qarshisidagi qop-qora tog'larda, ko'kdagi to'lin oyda. Oy hech botgisi kelmasdi. Sal narida, xirmon boshida ishchilar xurrak otib uxlashardi. Xirmonning o'ng tomonida boshliqning pashshaxonasi shabadada asta-asta silkinadi. Oy tog'lar ustida turib qoldi. Husayn xanjarning das-tasini mahkam ushlab olgan...

Husaynda bir qayg'u, bir titrash... Husayn tur-tinib-surtinib pashshaxona tomon borardi. Nafas ham olmas, ohista pashshaxona yoniga yotdi. Pashshaxona ichidagi odam maza qilib xurrak otar, alahsirardi.

Husayn pashshaxonaning qorong'i tarafiga cho'zilgan... Narigi kishi yotoqda xurrak otib, ag'dariladi... Husaynning xanjar tutgan qo'li, bila-gi zirqiradi... Xuddi bilagi uzilib tushadiganday... Yuragi gumburlayotganday. Husayn cho'chib ket-di. Nariroqda soya g'imirladi... Husayn g'azab bi-lan xanjarni sharaqlatib tuproqqa otdi. Turtinib-surtinib qishloqqa qarab yugurdi.

*Turk tilidan
Maryam OSIYO tarjimasi*

SHIRINLIK

Uzundan uzoq savdo qilishni yoqtirmayman. Lekin kiyim-kechak do'konlarini juda yaxshi ko'raman. Maoshimni olar-olmas, oyog'imni qo'llingga olib, shahar savdo markazlariga chopaman. Ammo, afsuski, maoshim juda kam. Koshkiydi, hech qayerda ishlamasam-u, har kuni maosh olsam, qanday ajoyib ish bo'lardi! Bir oy ishlatishadi, ammo faqat bir kun maosh berishadi. Shunaqayamadolatsizlik bo'ladimi? Bergan maoshlari bo'lsa ikkita ko'ylak olar-olmas tugaydi-ko'yadi. Qishloqqa ham pul yubora olmayman. Onam mendan so'raydi:

- Oyliging necha manat?
- 192 manat, – deb javob beraman.

Aslida, oyligimdan onamga zarracha foyda yo'q. Bechora onam maoshim 192 manat ekanini eshitgan, xolos. Nima qilay, hali yosh qiz bo'l-sam... Turmushga chiqishni, sayohat qilishni, bejirim kiyinishni istayman. Eng zo'r restoranlarning lazzatli taomlarini boshqalarga qaragan-da ko'proq tanovul qilaman. Dugonalarim menga hasad qilishadi. Chunki qancha ovqat yesam-da, aslo semirmayman. Dugonalarim parhez qilishadi, lekin men, baribir, ulardan xipchabelman. Barcha yejishga qo'rqedigan sharq shirinliklarini bo'lsa,

otamning so'zi bilan aytganda, „bo'g'zimga kelgu-nicha“ yeyman. Yakuniy imtihonlarga tayyorlanar ekanman, universitetning muzday sovuq o'quv za-lida o'tirib, „Anorganik kimyo“ kitobi sahifalarini varaqlarkanman, shirinliklarni tanovul qilish yo'li bilan biroz isinmoqchi bo'lishning nimasi yomon?

Xolalarim shirinlikni yoqtirishmaydi. Shuning uchun shirinlikni faqat o'zim sotib olaman va uy-dagi stol ustiga tashlab qo'yaman. Shirinlik ne-cha kunlab shu yerda kutib yotadi, lekin uni yey-digan odamning o'zi yo'q. Stol ustida g'arib bo'lib yotgan shirinlikning holiga rahmim keladi va hammasini yana o'zim paqqos tushiraman. Haa... Mana shirinliklar sotiladigan do'kon... Bu do'kon ni juda yaxshi ko'raman, bu yerda bo'lishdan rosa lazzatlanaman... Qanday go'zal, keng, zamonaviy do'kon bu... Do'konning tepasiga „Shams“ degan so'z rangli harflar bilan qirmizi matoga shunaqa chiroyli yozilganki, yozuvni ko'rghan kishining vaqt-i chog' bo'ladi. Menga juda chiroyli ism qo'yish-gan. „Irodaning nomi qo'yilgan do'konmi? Bizning qishlog'imizda Ibrohim amakining taxta do'koniga o'xshaydi...“ Ha endi, bu yog'ini qo'yavering...

Bu do'kondagi sotuvchi juda g'alati yigit... Qo'l degani shunchalik ham uzun bo'ladimi?! Kaftlari ketmonday keladi! Go'yo oyoqlarini bilaklariga ulab qo'yishganday! Yo Xudo, qo'l degani shun-chalik ham katta bo'ladimi? O'zi esa kesakday hissiz... Qachon shu do'konga kirsam, mingta sa-volga ko'madi. Xuddi shu chog'gacha meni hech ko'rmaganday go'yo tanimaydi. Men bo'sam shi-rinliklarni bitta-bittadan totib ko'rmay xarid qilol-mayman. Oh, qanday yaxshi bo'ldi-ya, ichkarida

bir xotin bor ekan. Sotuvchi bu rus ayoli uchun guruch tanlagunga qadar, men savatlardagi turshak, mayizlardan yeb, oladigan narsalarimning mazasini totib ko'ra qolay...

...E Xudo, shu tut mayizini bunchalik yaxshi ko'rmasam?! Lekin bular, aftidan, Eron moli bo'lsa kerak. Xolamning bog'idagi tutdan terib, quritadigan mayizimizning ta'miga hech ham o'xshamaydi... Hmm... Bu savatdagi tut mayizi bo'lsa, juda shirin ekan... Bundan olishim kerak... Aytay, 200 gramm tortsin. Eh, bu rus ayoli nega buncha tez ketdi-ya. Sotuvchi yigitni yana biroz gapga tutsaydi, bu yerdagi hamma narsadan totib ko'rgan bo'lardim-a. Endi bo'lsa, bu sotuvchi yonimga kelib, yana gap sota boshlaydi: „Oyimqiz, sizga yordam bersam bo'larmikan? Sizga biror narsa tavsiya qilsam bo'ladimi? Bu shirinlikni bugun olib kelishdi... Ko'ring, mana bu Tunis xurmosi, sizga yarim kilo tortaymi?..“ – deydi va shunaqa keraksiz savollar bilan jonimga tegib ketadi... Istatang, yuz marta: „Biror narsani tanlasam, sizga aytaman“, – deb ko'ring. Baribir befoyda, o'z bilganidan qolmaydi va har gal ayni shu savollar ni takrorlayveradi. Bu vaysaqi bola professorday to'xtamay so'zlasa-da, 300 gramm kunjut necha manat bo'lishini kalkulyatorda hisoblaydi. Mana, yana yonimga keldi:

– Marhamat, oyimqiz. Sizga qanday yordam berishim mumkin?

Aytdim-ku... Endi boshladи...

– Siz hozir mana shu tut mayizidan 200 gramm torting, boshqalarini bo'lsa, totib ko'rgach aytaman.

Koshki, bu do'konda ishlasaydim... Xaridorlar ga hech ham xalaqit bermasdim. Xohlagan narsasining mazasini totib ko'rgan, yoqtirganlarini olgan bo'lishardi.

Eshik ochildi, shekilli. Oraliqdagi baland jvonlardan u yer ko'rinxaydi-da... Aftidan, yangi xaridor keldi... Yaxshi bo'ldi, hech bo'limganda manovi sotuvchi yonimdan ketar, bunaqa bezdiruvchi savollari bilan yangi kelgan xotinning boshini qotirar.

– Ko'p yashang. Siz yangi kelgan xonim afandiga istagan narsalarini bering, uni kuzating. Men hali ko'rib chiqmadim, bir qarorga kelmadim.

Ichiga bodom solingan rang-barang shokolad-larni ko'rsam, o'lib qolaman. Bularni ko'p yeganim uchun onamning jahli chiqadi, shundan keyin bolalik chog'lari haqida gapira ketadi. Bunday chog'larda yig'lab yuboray deyman. Onam: „Shirinlik anqoning urug'i edi, – deydi. – Shaharga borganlar goho pecheniy keltirishardi, bilganimiz shu edi, xolos. Oh, u kunlar boshqa qaytib kelmasin!“ – derdi. Bu shirinliklardan olib, qishloqqa yuborsammikan? Yo'q, yo'q, yaxshisi o'zim olib boraman. Ammo yo'lda yarmini yeb qo'yishim turgan gap. Demak, biroz ko'proq olishim kerak...

...Bu xotin Munavvar ammaga shunchalik o'xshar ekanki... Xuddi o'shanday bo'yi past va semiz... Lekin bu ayol o'zini uncha oldirmagan. O'ziga yaxshi qarashi ko'rinxib turibdi, boz ustiga ko'zlari ham chaqnab turibdi. Ammo kalta sochi bu qomatiga hech yarashmabdi. Hoy ammajon, shu sochlaringni o'stirsang-chi, deging keladi... Soch o'rimi ham unga juda yarashgan, ko'zlari

yanada jozibador ko'ringan bo'lardi... Hay mayli, o'zi biladi...

...Iye, bu nimasi? Birinchi marta ko'rib turib-man. Bolaligimizda chechaklardan o'rgan gul-chambarlarimizga o'xshaydi. Bu hissiz sotuvchi koshki biror narsani bilsa?!.. Balki, bu xotin bilar, undan so'rab ko'ray-chi...

- Xonim afandi, kechirasiz, bu nima ekan, bilasizmi?

- Evelik, qizim. Buni palovga solishadi. Qanday mazali bo'lishini bilsang edi! Yoki hech yeb ko'rmanmisan?

- Yo'q, biz tomonlarda palovga bu narsadan solishmaydi. Ammo mazasini totib ko'rishni juda xohlayapman...

- Buning hech qiyin joyi yo'q! Hozir senga hammasini aytib beraman. Bundan ol, uyga borib o'zingga palov pishir. Endi diqqat bilan qulq sol, avvaliga yormani olasan...

...Bu ayol oddiy bir taom bo'lgan palovning qanday pishirilishini, undan tashqari, yormani, evelikni bor tafsilotlari bilan shunaqangi berilib tushuntiryaptiki, og'zingdan suving oqadi. Bu borada adabiyot muallimlarimiz ham bunchalik chiroyli so'zlay olishmaydi. Bu xotin adabiyot muallimi bo'lganida bormi, darsda telefonimni chiqarib, maktub yozish bilan mashg'ul bo'lman-gan bo'lardim...

- ...Qizim, hoziroq uyga borib, ishni boshlashting lozim. Bu ish ancha vaqtingni oladi, ovqating oqshomga borib pishadi. Aks holda ulgurmaysan. Sen, har holda, talabasan, ko'p vaqting bo'lmasa ham kerak.

...Qanday yaxshi ayol-a! Qanchalik sabr-toqat bilan menga hammasini tushuntirib beryapti. Holbuki, xolamdan bir narsani so'rasam, darhol jerkib tashlaydi. So'ngra: „Seni o'g'limga olib beraman“, – deydi. Ikki dunyoda rozi bo'lmayman! Yalinib-yolvorsa ham, ko'nmayman. Chunki u uyiga kelin emas, xizmatkor olmoqchi...

– Bu yerda do'kon qachon ochildi? Juda yaxshi ekan! Shirinlikdan tortib meva-sabzavotgacha har narsa bor. Uyimga ham juda yaqin. Men bozorga borardim. Endi barcha kerakli narsalarimi ni har kuni shu yerdan olaman... Bu zanjabilmi yoki dolchinmi?

Ayol go'yo bu yigit do'kondagi hamma narsani biladigandek savol beryapti... Bu bola ham xuddi hamma narsani biladigandek, o'zini aqli ko'rsatishga urinadi. U qayerdan ham bilsinki...

– Xonim afandi, qani, menga bering-chi, bir ko'ray! Bu, menimcha, zanjabil bo'lsa kerak...

– Ha, men ham shunday bo'lsa kerak, deb o'y lagandim. Qizim, sen ham ol bundan. Juda foydali. Har kuni ertalab bir qoshiq asalga aralashtirib yegin. Foydasini sanasang, ado qilib bo'lmaydi. Yuzingga, sochlaringga juda yaxshi!

Ey Xudoyim-ey, bu xotin ko'p narsani bilar ekan, hamma narsadan xabari bor. Juda bilag'on... Qaynana degani shunday bo'lishi kerak... Ajabo, bo'ydoq o'g'li bormikan? Ustiga-ustak o'zi ham shu yerda yashar ekan! Balki, u ham meni yoqtirib qolgandir?! Bo'lmasa, nega meni bu qadar yaqin oldi? Halidan beri meni boshdan oyoq zimdan kuzatyapti... Biroz gaplashay, ko'raylik-chi, nima chiqar ekan...

– Ko‘p yashang, xonim afandi, olaman. Buvim ertalablari pishiradigan sutli oshga zanjabil qo‘sardi. Zanjabil va dolchinni bolaligimdan beri juda yaxshi ko‘raman.

– Ha, men ham o‘g‘limga har kuni tongda bu dorivorlarni qo‘shib, olxo‘rili sho‘rva pishirib berardim. Hidi ko‘chani tutib ketardi. Xohlasang, o‘zingga turshak ham ol, turshakli sho‘rva pishirasan. Hozir ayni turshak sho‘rva ichadigan pal-la. Endi uyingga borib, turshak sho‘rva pishirgin, juda mazali bo‘ladi.

...Hmm, demak, o‘g‘li bor ekan! Ma‘lum bo‘ldiki, o‘g‘lini avaylab o‘stirgan. Ajabo, o‘g‘li otasiga o‘xsharmikan yoki onasiga? Bunaqa ayolning o‘g‘li ham kelishgan bo‘lishi kerak, albatta. Haaa... Bunaqa mehribon, jonkuyar qaynanam bo‘lsa bormi, dugonalarim hasaddan yorilib o‘lishadi...

...Eh, men bunchalik tentak bo‘lmasam. Halidan buyon angrayib atrofga alanglab o‘tiribman. Ayol meni hech narsani bilmaydigan pandavoqi deb o‘ylaydi-ku. O‘zimni biroz aqlli, chaqqon, bilimdon qilib ko‘rsatishim kerak...

– Kechirasiz, mening hech vaqtim yo‘q, borib dars tayyorlashim kerak. Buning ustiga ovqat pishirishim ham darkor... Marhamat qilib, oladi-gan narsalarimni qadoqlab berasizmi?

– Marhamat, oyimqiz.

...Bu yigitning soxta tabassumlari asablarimga tegadi. O‘zicha xaridorlarga xushmuomala, na-zokatli ko‘rinmoqchi. Hay mayli... O‘zimni odob-li qilib ko‘rsatishim lozim. Ha, shunday, uyiga odobsiz kelin keltirishni kim ham istaydi? Buning ustiga shaharning qoq markazida...

– Agar sizga qiyin bo'lmasa, bodomli shokolad-dan ham yarim kilo torting. Asalli pistadan ham 300 gramm... Eron halvosidan ham biroz bering... So'ng, hmm...

– Jon qizim, menimcha, shunchasi yetar! Bu yoshingda bunchalik quvvatli shirinliklar yeyversang, semirib ketasan. Undan keyin hech kim senga uylanishni xohlamay qo'yadi, qiyin ahvolga tushib qolasan... Bularni olding, shu yetadi. Bu gaplarni seni o'ylab aytyapman... Endi uyingga bor, bularni yeb, darsingni tayyorla...

Ana senga kerak bo'lsa! Bu ayol bunchalik zamonaviy ekan! Onam aytganiday: „Bo'z deganim ipak chiqdi“. Bunaqa qaynanani aslo qo'ldan chiqarib bo'lmaydi... Har holda bu do'konni juda yoqtirganini, har kuni bu yerga kelib savdo qili-shini aytdi-ku. Men ham har kuni bir bahona topib, bu yerga kelaman. Bir kuni u, albatta, o'g'li bilan birga keladi. Albatta... Meni o'g'liga ko'rsatishi kerak... Endi biroz tosh bosadigan gaplar-dan gapiray. Bo'lmasa, u meni kaltafahm, go'l qizlardan ekan deb o'laydi.

– To'g'ri aytyapsiz, xonim afandi. Men ham shu fikrdaman. Ammo bularni faqat o'zim yemayman, olganlarimning ko'pini qishloqqa, onamga yubo-raman.

– Sen juda aqlli qizga o'xshaysan. Hamisha shunday bo'lgan. Sumkangni ber, ushlab turay, bularni solaylik, vaqtingni tejaylik.

...Xudo haqqi, bunday nazokatli, boshqalarga bunchalik mehribon ayolni birinchi marta ko'rib turibman. Uning o'g'li ham, albatta, didi baland, juda madaniyatli bo'lishi kerak. Hozircha bu

haqida so'rashga erta, lekin keyingi uchrashuvimizda, albatta, o'g'lidan gap boshlayman. Hozir gapirsam, turmushga chiqish uchun o'lib-tirilayotgan ekan, deb o'yaydi... Endigi masala – bu ayolning mehrini qozonish va xotirasida go'zal qiz sifatida qolish... Xarid qilgan narsalarimning pulini sotuvchiga to'lab, bu yerdan chiqishim kerak. Ammo, to'g'risini aytganda, o'sha ichi yong'oqli surmoni olmaganim uchun kuyib ketyapman...

– Bularning narxi qancha bo'lganini aytasiz-mi? Necha manat?

Hmm... Yana kalkulyatorni olib, raqamlarni ko'paytirishga kirishdi... Asablarim qaqlaydigan bo'ldi-da...

- 13 manat 50 tiyin, oyimqiz.
- Tashakkur, mana oling!
- Biz ham tashakkur bildiramiz, yaxshi boring, yana kutamiz...
- Qizim, ehtiyyot bo'lib ket. Hozirgi yoshlari orqa-oldiga qaramay mashina choptirishadi...

Yana biroz qolsam, bu ayol meni rosa mammun qiladi. Hatto onam menga bunchalik e'tibor qilmaydi. Xolam-chi? Bu haqda gapirmsa ham bo'laveradi...

– Sog' bo'ling, xonim afandi. Yaxshi kunlarda ko'rishaylik, xayr.

...Hayotda shunaqa xotinlar ham bo'lar ekan-da. Hech tanimagan kishisiga ko'rsatayotgan mu-lozamatiga qara. Bu ayolning iltifoti meni mumday eritib yubordi-ya! U bilan yana uchrashish uchun harakat qilishim kerak. Zotan, hozirgi yoshlarni ilintirish uchun urinib o'tirishning keragi ham yo'q... Muhimi – qaynana bilan til topishish. Bu-

naqasini yana qayerdan ham topardim? Ayolning kiborligiga qara, evelik solingan palov pishirishni erinmay tushuntirdi, sog'lig'imga e'tibor berishim uchun qo'lidan kelgancha maslahat berdi, xarid qilgan narsalarimni to'rvaga solishimga ko'maklashdi... Sotuvchi bola ham angrayib qoldi. Ishonamanki, u ham umrida bunaqa ayolni ko'rmangan. Tili tanglayiga yopishib qolganday, g'ing deyolmadi.

...Oh! Naqadar kallavaram, qo'pol bir qizman o'zi! Ayolga yordamlashishni taklif ham qilmabman. Endi orqamdan: „Bu juda tarbiyasiz qiz ekan“, – deydi. Narsalarini tashishga yordam qilishim kerak edi. Kim biladi, uning uyi nechanchi qavatda? Olgan narsalarini yuqori qavatga chiqarguncha qo'l-oyog'i toliqadi-ku, bechora xotin... Hali ko'pam uzoqlashganim yo'q... Ajabo, ayol hali ham o'sha do'kondamikan? Albatta, o'sha yerda bo'lsa kerak... Qaytib, unga yordamlashsam, juda yaxshi bo'ladi.

Eh... bu do'konlarning eshigi ham har gal asabimni o'ynatadi. Ichkariga ochiladimi, tashqarigami, bilib bo'lmaydi. Bir belgi qo'yilsa-ku, odamlar nima qilishni bilgan bo'lishardi...

Bu yer do'kon emas, labirint! O'rtadagi baland javonlar odamni yaxshigina shoshirib qo'yadi. O'h! Ollohg'a shukurki, ayol hali ketmagan ekan. Bu hissiz yigitga yana bir narsalarni tushuntir-yapti, shekilli.

– ...Hozirgi qizlarning tuturug'i yo'q. Zamona-miz qizlari yengiltak bo'lib ketgan. Bizning zamонимизда hammasi boshqacha edi, bizlar hech ham bularga o'xshamasdik. Boshimizni ko'tarib,

bir yigitning yuziga qarashga ham uyalardik... Sen biroz oldingi qiz narsa tanlamoqchi bo'ldi, deb o'ylaysanmi? Yo'q... Unaqa emas... U qiz senday kelishgan yigitni ko'rди-yu, esini yo'qotdi. Ko'rмadingmi? Sal bo'lmasa og'zidan suvi oqayozdi... Go'yo shirinlik tanlayotganmish, o'l-a! Axir, senday yigitni qayerdan ham topardi... Bu yosh qizlar senday yoqimtoy yigitning qadrini, qiymatini bilmaydilar... Eh! Bu do'konni hozirgacha nega bilmagan ekanman... Bundan keyin...

Boboxon MUHAMMAD SHARIF tarjiması

UMMON SOHILIDAGI TANISHUV

Ummom moviy qum sahosiga o'xshardi. Harbiy xizmatni o'tab bo'lgan Sarbon uyiga qaytayotgandi. Chodirli harbiy mashina askarlarni temiryo'l vokzaligacha keltirib qo'ydi. Yosh komandir askarlarning yo'l chiptalarini tekshirib ko'rgach, „Endi ozodsiz, istagan yeringizga ketishingiz mumkin“, qabilida ularga qo'l silkidi.

Barcha o'z poyezdini izlardi. Bokugacha poyezd bormasdi. Shu sabab Sarbon avval shimol shaharlaridan biriga borib, keyin samolyotda uyiga uchmoqchi edi. Uning poyezdi yarim tunda yo'nga chiqarkan. Besh-olti soat vaqtি bor. Aslida, bu begona, sovuq shaharda besh soat u yoqda tursin, besh daqiqa ham qolishni istamasdi. Askar do'stlari bir-birlari bilan xayrashdilar. Ularning ko'pchiligi yaqin atrofdagi shahar-qishloqlarda yashovchi ruslar edi.

Sarbon oxirgi quroldosh birodari bilan xayrashib, chamadonini vokzalning yukxonasiga topshirdi. So'ngra qor uyumlarini bir-bir bosib, ummon sari yurdi. Ummom cheksiz sahroga o'xshardi. Sarbon ortda qolgan askarlik hayotini eslab kulimsiradi. Ummom sohilida odam kam edi. Osmon qoraydi. Qor sahosiga aylangan ummonning rangi tundlashdi. Sarbon qorda g'ichirlagan

qadam tovushlarini eshitib, ortiga o'girildi. Egniga qalin yashil palto kiygan, yuz-ko'zini sharf bilan o'ragan qiz ohista qadam tashlab kelardi. U Sarbondan ikki qadam nariga o'tib, ummonga yuzlandi. Vahimali suvlar qo'ynida go'yoki kimnidir izlayotgandek edi. Sarbon qiz bilan gaplashgisi keldi. Poyezd ketishiga hali vaqt bor. Uning uchun hozir eng muhimi, vaqtini unumli o'tkazish.

O'rta maktabni tugatib, harbiy xizmatga ketgan Sarbon ayol zoti bilan gaplashish u yoqda tursin, salom-alik ham qilmagandi. Qizlar bilan tanishishda doim ehtiyyotkor bo'lgan bu yigit nejadir hozir yonidan o'tib ketgan qiz bilan gaplashgisi kelib ketdi. Qadamini tezlashtirib, unga yaqinlashdi.

– Kechirasiz, bu yerda yemakxona qayerda? – og'zidan chiqqan so'zlarining bema'niligini anglasa-da, endi kech edi.

– Shu yerda, ummonning o'rtasida. Borib istagan taomingizga buyurtma berishingiz mumkin, – hozirjavoblik qildi qiz.

Ikkisi ham kulib yubordi.

– Balki, o'sha yerga borib, kechki ovqatni birga tanovul qilarmiz.

– Unda siz birinchi bo'lib tushing, men orti-
ngizdan boraman.

Yana kulgi ko'tarildi. Sarbon qizning aytganini qilib, tez-tez qadam bosgancha ummonga tusha boshladi.

– To'xtang... to'xtang! – dedi ayol balandroq ovozda.

Sarbon komandir buyrug'iga bo'ysungan askar kabi joyida to'xtadi.

– Eshitaman... buyuring! – chakkasiga o'ng qo'lini qo'ydi.

– Demak, siz harbiy xizmatdan qochdingiz...

– Qochganim yo'q. Muddatni o'tab bo'ldik.

– Ha, unda uyga ketyapsizmi?

– Shunday.

– Qaysi tomonga?

– G'arbga.

– Kavkazgami?

– Ha. Sen ham ozarbayjon ekansan. Endi rostini ayt-chi, yemakxona qayerda?

– Shu yerda, ummon sohilida.

Sarbon unga yaqinlashdi.

– Balki, rostdan kechki ovqatni birga qilarmiz?

– Mayli.

Ular asta yemakxona tomonga bordilar. Ikkisi beton zinalardan chiqib, yemakxonaga kirdi. Sarbon iltifot ko'rsatib, qizning paltosini oldi. Ichkarida odam kam ekan.

– Yaxshi tanisha olmadik... Mening ismim Sarbon. Serjant Sarbon G'oyibov.

– Hamshira Elmira Yunusova.

– Demak, siz ham ozarbayjonsiz.

Qiz jilmaydi.

– Yo'q, men rusman. Ozarbayjon qarindoshim ham yo'q.

– Qiziq...

– Ha, qiziq. Bu yerlardagilarda bunday ism-shariflar tasodifan uchraydi.

– Axir ruslarda bunday ism-familiyalar umuman bo'lmaydi-ku! Buni o'zingiz ham yaxshi bila-siz. Menimcha, siz ozarbayjonsiz...

– Bo'ladi deb tasavvur qiling.

- Unda sizni Elmira xonim deyman.
 - Bo'ladi. Sizlarda ayollarni hurmat qilish ma'nosida shunday deyishlarini bilaman. Men bundan xursand bo'laman, o'rtoq serjant...
 - Serjant Sarbon G'oyibov.
- Ikkisi kuldii.
- Nima yeymiz, Elmira xonim? – so'radi Sarbon.
 - Bilmadim.
 - Menimcha, ummondagi mavjudotlarga bir himmat ko'rsatishimiz kerak. Bاليqmi?
 - E'tirozim yo'q.

Qizning hozirjavobligi, samimiyligi Sarbonni xursand qildi. Ikkisi shunchaki u yoqdan-bu yoqdan ozgina gaplashdi. Ortiqcha gap aytishdan tiyilishdi. Qiz bu dengizbo'yи olkaga uzoq Saxalindan kelgan, tibbiyat texnikumini tamomlab, vataniga qaytayotgan ekan.

- Men uzoq sharqqa ketaman, sen esa g'arbg'a...
 - Shunday... Har kimning o'z vatani...
- Fursat o'tmay qovurilgan baliq keltirishdi.
- Havo sovuq, – dedi Sarbon qizning sovuqdan qizargan oq yonoqlariga qarab. – Istanasang, biror nima ichib qizib olardik.
 - Men ichmayman, – dedi qiz. – Axir, men ozarbajjon qiziman, muslimaman.
 - Boya boshqacha gapirganding, hazillashyapsanmi?
 - Ha, rusman. Ishonmasang, pasportim cho'n>tagimda. Hozir, mana ol, o'qib ko'r-chi, nima yozilgan ekan?

Sarbon pasportga qarab, unda yozilgan ma'lumotlarni o'qidi: Yunusova Elmira Murodovna. Millati rus.

– Ha... to'g'ri... Saxalinlik ekansan. Ammo otangni ismi ham biznikiga o'xshash ekan: Murod. Mening amakimning ismi ham shunday.

– Amaking hozir qayerda?

– O'z uyida. Rafiqasining yonida.

Qiz kuldi.

– Mening otam ham uyda, onamning oldida. U quruvchi... Istanasang, o'zing ichishing mumkin, Sarbon.

– Yo'q, endi ichmayman. Yuz gramm ichsam, boshim tars yorilib ketay deydi. Yaxshisi, ichmaganim ma'qul.

Ikkisi pishirilgan ummon balig'idan yeb, suhbatlashdi. Hayotida sodir bo'lgan yaxshi voqealarni bir-biriga so'zlab berdi. Qiz bilan suhbatlashkan, Sarbon ichida qattiq afsuslanardi. Hatto chiptasini boshqa kunga almashtirishni o'yladi. Komandirining gapiga kirganida, ishlari yaxshi bolardi. Askarlarni kuzatib qo'ygan yosh leutenant „Ketishga shoshilmanglar, bir necha kun mazali dengiz taomlaridan yeb, go'zal qizlar bilan tanishinglar“, – degandi. Hozir mazali baliqdan yeb, go'zal qiz bilan suhbatlashyapti, ammo birozdan so'ng qizdan ham, baliqdan ham ayrıldi.

– Shunday qilib, sen kemada ketasan...

– Ha, – dedi qiz sochiq bilan lablarini artib.

– Balki, chiptani qaytarib, avval seni kuzatib qo'ysammikan?

– Yo'q, meni xolam va eri kuzatib qo'yadi. Uymizga xabar yuboraman. Yaxshisi, o'zim seni kuzatib qo'yaman. Maylimi?

– Albatta. Bundan juda xursand bo'laman, Elmira xonim.

– Yaxshi. Endi qo'limni yuvib kelay.

Qiz qaytguncha Sarbon sigareta tutatdi. Endi ummon bag'ridan ketishni istamasdi. Elmira qaytib keldi.

– Poyezdingiz ketishiga oz fursat qoldi.

– Ha, – dedi Sarbon boshini ko'tarib.

Qizning jozibali ko'zlariga qaradi. Qiz kulimsiradi.

– Nima bo'ldi? Qarashlaring boshqacha...

– Go'zalsan, – dedi Sarbon sekin.

Elmira kulib yubordi.

– Balki, meni o'zing bilan Kavkazga olib ketarsan? Onang bilan tanishtirarsan? Yo onangdan qo'rqaсанми?

Sarbon zo'rg'a kulimsiradi.

– Hech kimdan qo'rqlmayman. Istan sang, ketaveramiz.

– Mayli. Men quyoshni yaxshi ko'raman. Janubda quyoshli kunlar ko'p bo'larkan. Hozir havo sovuq. Senga maktub yozib turaman. Kunlar isiganda mehmonga boraman. Agar istasang, sen ham Saxalinga borishing mumkin. Kelishdikmi?

– Ha, kelishdik. Men roziman.

– Unda manzilingni menga yozib ber.

– Mana manzilim.

Ikkisi o'rnidan turdi. Sarbon qizning paltosini berdi. Elmira yigitning serjant pogoni yopishtirilgan shineliga qarab, hazillashdi.

– O'rtoq general, kiyinishingizga yordam beraymi?

– Yo'q, o'zim eplayman, – kului Sarbon.

– Unda ketdik. Vokzalda biroz aylanamiz. Un-gacha sening poyezding ham kelib qoladi.

Sarbon xizmatchi ayolning oldiga borayotgani-da Elmira uni chaqirdi.

- Qayoqqa ketyapsan?
- Hozir kelaman.
- Taomning puli to'langan.
- Nima?

Xizmatchi ayol va Elmira kulib yubordi.

- Bu bo'lmadi, - achchiqlandi Sarbon.
- Ketdik, - dedi Elmira Sarbonning qo'lidan tutib.

Ikkisi vokzalgacha indamay keldi. Poyezd hali kelmagandi.

- Nega jimsan, Sarbon? Ketdik, anovi o'rindiqlardan biriga borib o'tiramiz.

Vokzal yaqinidagi kichik xiyobondagi o'rindiqlar ancha sovuq edi. Ikkisi bir-birini isitish uchun yaqinroq o'tirdi. Qiz sovuq qo'llarini yigitning kaf-tiga, boshini yelkasiga qo'ydi. Shu payt poyezd ovozi eshitildi.

- Sening poyezding kelyapti.
- Ha, meniki. Ammo ketishni istamayman.
- Maktub yozishamiz, Sarbon.

Orada ozgina jimlik cho'kdi. Qiz Sarbonning ko'ksiga boshini bosib, yelkasidan siladi.

- Hech ishongim kelmaydi... - sukutni qizning shivirlashi buzdi.
- Nega?
- Juda tez tanishib, ayrilganimizga.
- Ha, go'yo tushga o'xshaydi.
- Tush? Sen buni qayerdan bilasan?
- Nimani?
- Tushni.
- Shunchaki aytdim.

- Men o'tgan kecha seni tushimda ko'rgandim.
- Meni?
- Ha, seni.

Sarbon kului. Qiz uning kulganidan ranjib, o'rnidan turdi-da, vokzalning eshigiga qarab yurdi.

- Men nima dedim? Nega xafa bolding? - ming'irladi Sarbon.

- Men chindan ham bu uchrashuvimizni tushimda ko'rgandim, - dedi qiz. - Siz bilan yana ko'rishamiz, Bokudami, Saxalindami farqi yo'q.

- Shunday.

Ikkisi qo'l ushlashib poyezdga qarab yurdi. Avval Sarbon yukxonadan chamadonini oldi. So'ngra ular bir-birini bag'riga bosib, xayrlashdilar. Sarbon kupega chiqib, derazadan uni kuzatib turgan qizga qaradi. U bilan uchrashgan kunni hech qachon yodidan chiqara olmaydi. Bu muhabbatmi yoki o'tkinchi hissiyotmi bilmaydi. Poyezd yo'lga tushdi.

Sarbon yillar davomida Elmira bilan maktub yozishib turdi. Saxalindan kelgan har bir maktub unga o'sha baxtli tasodifni eslatardi. Yigit qizni olib kela olmadi. Bir necha yildan keyin uylan-di, ota bo'ldi. Elmiraga boshqa maktub yozmay qo'ydi. Hatto pochtaga ham bormay qo'ydi. Ammo Elmira Yunusova turmushga chiqsa ham, unga maktub yozardi. Sarbon esa bu maktublarni olib, o'qishga jur'at qilmasdi. Buning sababini bilmaydi. Askarlikdagi jomadoniga solingan bu maktublar uzoq yillardan buyon ayvonida yetardi...

*Ozarbayjon tilidan
Feruzbek ZIYODULLAYEV tarjimasi*

JASORAT

Sartaroshxona chetida og‘aynim bilan palma turiga oid, otini bilmaydigan egri-bugri daraxtning eshak qulog‘iga o‘xshash katta yaproqlari ostida o‘tirib navbat kutayotgandik. Vaqt juda sekin o‘tar, sabrsizlanardim. Temir burunli vaysaqi laylakdek to‘xtovsiz shaqillayotgan qaychi ovozini eshitib, „uf-puf...“ derdim.

Ustida uzun oyna bo‘lgan marmar stol oldida olti nafar sartarosh imillab ishlayotgandi. Og‘aynim so‘radi:

- Onangning qornida qanday sabr qilgansan?
- Axir, yarim soat bo‘ldi-ya...
- Nima qilibdi!
- Xudo haqqi, turaylik! – deya yalindim.
- Jonga tegdimi?
- Nimasini aytasan, juda...
- Unday bolsa, bo‘s sh o‘tirma... Siqilaverma.
- Nima qilay unda?
- Mijozlarni, devordagi rasmlarni tomosha qil.

G‘aznachiga boq, bir qara...

Ichkariga kirar-kirmas qaysi birining ishi tez-roq bitar ekan, deya mijozlarni ko‘zdan kechir-gandim. Oq sochli, mo‘ylovli, xumkalla, bir-biri-dan battar bir to‘da merovlar o‘tiribdi. Devordagi rasmlarga kelsak, ularning hammasi atir-upa, lab

bo'yog'i e'lolnari edi. G'azna tomonga qaradim. Yoshgina bir yunon qizi.

– Qo'ysang-chi, juda yosh ekan-ku! – dedim.

– Yosh bolsa, sen uni xayolan katta deb tassavvur qil. Ikki xayol bir borning o'rnnini bosadi. Vaqt qanday o'tganini ham sezmay qolasan.

Bu qizaloqqa boqib, uni xayolan ulg'aytira boshladim. O'n yosh kattalashtirdim. Yigirma ikki, yigirma uch yoshga chiqardim. Ha, haqiqatan ham go'zal qiz bo'lardi. Shubhasiz, bu och-sariq sochlar yanada quyuqlashadi, bu yassi ko'ksi du-maloqlashadi, bu oq bo'yni yanada oqarib, to'lishadi. Lekin xayolim bu bilan cheklanib qolmadi, istar-istamas, bu yetilgan qizni yana o'n, yigirma yilga ulg'aytirdim. Voh, oq yuzli ayollar naqadar tez keksayadi! Yuz-ko'zini ajin qopladi. Qovoqlari qoraydi. Xayolim yana ilgariladi. Bu bechora ayolni yana o'n sakkiz yilga kattalashtirdim! Na-uzibillah...

Birdan foniylilikning motamini butun achchig'i bilan his qildim. O'zimga tasalli berish uchun ro'paramdagi oltmis yoshlardagi mijozni kichraytirishga, yashartirishga kirishdim, uning qovoqday silliq boshida qalin sochlar o'sтирар, cho'kkан yonoqlariga qon yogurtirar, mo'ylovlarini qoraytirar, so'lg'in lablarini gilos rangiga kiritar edim! Qaychilar hanuz shaqirlashda davom etar, hamma yog'i oqqa bo'yalgan sartaroshxonaning sukunatini lojuvard matroscha ko'ylak kiygan kichkina, ozg'in bolakayning „xo'p, xo'p“ degan tovushlarigina buzardi. Nogahon ko'cha tomonga qaragan derazalarning oynalari zirillab ketdi. Birdan zilzila bo'ldi, deb o'yladik.

Qaychilar jim bo'ldi. Mijozlar, sartaroshlar, men, do'stim, kichik bolakay, g'aznadagi oq qizcha, uzun oynadagi akslarimiz baravariga eshik tomonga qaradik. Yuraklarimiz bo'g'zimizga tiqil-ganday bo'ldi.

E Xudo! Bu naqadar haybatli odam: bo'yи hech mubolag'asiz ikki metrga yetadi... Qop-qora mo'y-lovi vahimali... Ko'rganini yemoqchiday o'graygan dahshatli, sariq ko'zlar... So'ng balandiligi bir ar-shin¹dan ko'proq bo'lgan katta, juda katta qora bosh kiyim... Garchi qo'rmasam-da, titray bosh-ladim. Yangi kelgan mijoz hech kimga qaramay yechina boshladi. Bo'z yoqali katta va uzun qora po'stinini yechdi, yoniga yugurib kelgan bolaning ustiga tashladi. Po'stin shunchalik og'ir ediki, bola shu ondayoq cho'kkalab qoldi. Sartaroshlar ustalarini tashlab, yordamga oshiqishdi. Bolani ko'tardilar. Bola qutulib, orqaga qochdi. Men yanada battarroq titray boshladim. Dahshatli mijoz:

– Menga bola kerak emas, – dedi. – Oyog'im-ning ostida qolib yurmasin... Baquvvatroq odam xizmat qilsin!

- Xo'p bo'ladi...
- Xo'p bo'ladi...

Oyog'iga razm soldim. Etigining zirhi borday edi... Bossa bola u yoqda tursin, qattiqroq teppa tosh yo'lkani ham ushatib yuboradi. Telpagini chiqardi. Kamzulini yechdi. Yo'g'on belida kumush qoplamlali cherkescha kamarga taqilgan kattakon revolver, katta-kichik pichoq, xanjarlar-ning sopi ko'rinib turardi. U birdan baqirib dedi:

¹ Arshin – 0,68 metrga teng uzunlik o'lchovi.

– Hoy galvarslar, menga qaraysizlarmi, yo‘q-mi?! Men kutib o‘tirmayman, ha... Jahlimni chi-qarmang...

Bu qo‘rquinchli manzaradan mijozlarini butunlay unutgan sartaroshlar darhol bir og‘izdan javob berishdi:

– Marhamat poshom! Marhamat poshom!

– Ha, shunday bo‘lsin!..

– ...

– ...

– Mening kim ekanimni bilmaysizlar-da.

Yaxshiyamki, tasodifan eshik yonidagi kur-sida o‘tirgan mijozning soqoli olib bo‘lingandi. Dahshatli mijoz uning o‘rniga o‘tirdi. Navbat meniki ekanini aytishga botinmadim ham. G‘aznada-gi qiz tashqariga chiqayotgan mijozdan pulini olar-olmas boshini quyi solib oldi: bo‘ron bulutla-ri orqasiga botgan Zuhro yulduzi kabi ko‘rinmay-digan bo‘ldi. Og‘aynim:

– Oqarib ketdingmi? – dedi.

Achchig‘im chiqdi:

– Oqarmay bo‘ladimi? Anovilarga bir qarasang-chi... Hammasining yuzidan qon qochdi-ku...

– Bizni nima ham qila olardi?

– Xohlasa, hech narsa qilmasin! – dedim.

Uning ko‘rinishining o‘ziyoq yurak o‘ynatish-ga kifoya edi. Hatto sirkda temir qafas ichida irillagan arslonlarni ko‘rib, kishining tuklari tik-ka bo‘lmaydimi, axir?! Garchi ularning qafas-dan chiqib, bizni tilka-pora etmasligini yaxshi bilsak-da, bu ishonch ikki pulga qimmat. Hatto qaychilarning shaqillashi ham sustlashgan-di. Mijozlar qayrilib qarashga botinmayotgan bu

yangi odamga oynadan qo'rqa-pisa qarar, shubhasiz, xuddi men singari tuklarini tikka qilib yuboradigan xayollarga berilgan edilar. Oynada ko'zlarimiz to'qnash kelishidan qo'rqib, yuragimni hovuchlagancha kraxmallangan yoqasidan chiqib turgan yo'g'on qizg'ish bo'ynini, keng yelkalarini tomosha qilib o'tirardim. Baayni buqanning o'zi. Aft-basharasi, chimirilgan qoshlari, katta og'zi kishining yuragini o'ynatib yuboradigan darajada qo'rqinchli edi. „Kim biladi qanday olovlar ichiga tushgan, qaysi dushman podalarini tirqiratib quvgan, jang maydonida aql bovar qilmaydigan qanday qahramonliklar ko'rsatgan ekan“, – deb o'ylardim. U xuddi granitdan yasalgan jasorat obidasi bo'lgan-u, tirilib kelgan. Go'yo bamisoli „Qon Qal'a“, „Battol G'oziy“ davriga tushib qolgandek edim. „Urushni yo'q qilish uchun harakat qilgan“ faylasuflar esimga tushib, kulimsirardim.

Olloh bu mumtoz vujudni, shubhasiz, faqat urush, faqat botirlik, faqat qahramonlik uchun yaratgan bo'lishi kerak. Agar shunday kelbatli, shunday mag'rur, shunchalik jasoratli odamlar bo'lmasa, eng muqaddas an'analar yo'q bo'lgan, chegaralar buzilgan, haqiqat yo'qolgan, tarix, shon-u sharaf, qiymatlar afsonaga aylanigan bolardi.

Xullas, har qanday fazilatning asosi bo'lgan „jasorat“ tushunchasiga oid falsafa to'qib, xayolga toldim! Bo'shagan bir kursiga og'aynim o'tirgani ni ham sezmay qoldim. Palmaning ostida yolg'iz o'tirib, pastga tikilar, horg'in holda Salim Sirrini eslab, shu oq-qora to'shamma toshlar ustida oyoq

bilan shashka o'ynasa, bu yangi sport turi hisoblanarmikan, deb o'ylardim...

Nogahon oldingidan ham qattiqroq gumburlagan ovoz chiqsa bo'ladimi?! Bu gal deraza yoki eshikning ovozi emas... uzun oyna, marmar stollar, kursilar gumburlagan edi. Boshimni ko'tardim. Bahaybat mijoz qizil daraxtdan yasalgan g'azna orqasida yerga uzala tushgan, baqira boshlagan edi:

– Voy-dod...

– ...

O'zga mijozlar, sartaroshlar, ularning oynadagi aksi baravariga u tomonga o'girildilar. O'ziga kelganlar so'rashdi:

– Nima bo'ldi, nima bo'ldi?

– Ne gap, ne gap?

– Voy, ana uning ustida!

– Nimaning ustida?..

– Ana uning...

– ...

Titragan barmog'i bilan ustarasi ostidan qochgan ozg'in sartaroshni ko'rsatar, hamma yoqni boshiga ko'tarib dod solardi. Shu onda ko'nglimda shubha uyg'ondi. Ajabo, bu yunonmi, mahalliymi, kim ekani noma'lum xoin sartarosh bu arslonning shohtomirini ustara bilan kesib yubordimikan? Men birdan oyoqqa turdim. Zotan, eng ulug', jasur, buyuk qahramonlar o'taketgan qo'rqlarning xiyonati tufayli qurban bo'lma-ganmi?! Bunga tarix shohid. Yaqinlashdim. Sartaroshlarni itardim. Oralaridan bosh chiqarib, so'rardim:

– Hamshahrim, ayt, ne bo'ldi?

Qo'rquvdan uning ko'zlari ola-kula bo'lgandi. Haligina qon tomib turgan yuzlari limonday sarg'ayib ketgandi. Yuzida kattakon sovun ko'pigi bor edi.

– Ustida, Xudo haqqi, ustida... – dedi.

– ...

Ichimda: „Albatta, yo zaharli igna yoki xanjar kabi bir narsa bo'lsa kerak!“ dedim. Qochirgan mijoziga baqraygancha qotib qolgan sartaroshga boshdan oyoq tikildim, darhol bir narsalarni taxmin qilib, yoniqa yaqinlashdim.

– Ustingdagi narsani chiqar! – dedim.

– Nimani?

– Chiqar deyapman!..

– Nimani axir, janob?

– ...

Lekin haqiqatan ham nimani chiqarishi kerak? Uni o'zim ham bilmasdim. Sartaroshning hayrat to'la ko'zlaridan ko'z uzib, g'azna ostida dir-dir titrayotgan to'nkaday qahramonga yuzlandim:

– Qayeriga yashirdi? – dedim.

– Ya..shir..ma..di!

– Unda nima qildi?

Qo'rquvdan hiqichoq tutgan, tili zo'rg'a aylana nardi.

– Us...ti..da!

– Qayerda?

– ...

– ...

– Belidami? Cho'ntagidami?

– Yo'q, yoqasining yonida...

Sartaroshning ustida oppoq, uzun chit xalat bor edi.

Yoqasida hech narsa yo'q edi. Oyoq ustida turganlar bilan baravariga diqqat bilan qarayotganimizda yerda yotgan dev:

- Xudo haqqi, yurayotgan edi, – dedi.
- Dong qotdim. To'xtadim. Kalovlandim.
- Yurayotganmidi?
- Pastdan yuqoriga yurayotgandi...
- ...
- ...

Yana to'xtadim. Oldinga boqdim. Masala ko'p mushkul chiqdi. Kulgiga qolmaslik kerak edi. Men six, igna, qurol-purol deb o'ylagandim. Qidirilgan narsa ham jonli, ham yurgan bir narsa ekanini anglagan mijozlar, sartaroshlar taraddudlanib yaqinlashib, egilib sartaroshning yoqasiga tikildilar. Men aldanganini birdan bilib qolgan hiylagarlarday sukut ichida bosh chayqadim. Ha, bu bir bit bo'lsa kerak. Kichkina bir bit! Lekin dahshatli o'lim keltiradigan, tif ajdari! Hamisha falsafa to'qishga hozir-u nozir, bir avtomat mashinaga o'xshash „aqlim“ ishga tushdi. Axir, eng jasur kishilar ham qarshi turolmaydigan, olishib bo'lmaydigan bir dushman oldida jasorati yo'q bo'lgandi.

Shu qalin etigi, qo'rqinchli shopmo'ylovi, qoratog' to'pponchasi, cherkes xanjari bo'lgan bu dev odam bir to'da bo'riga, vahshiy hayvonlarga, qoplonlarga duch kelsa, bunday titramagan, kiprik qoqmay hammasini o'ldirgan bo'lardi. Lekin tif mikrobi vujudiga bir kirsa bormi... Ne ham qila olardi? Hech narsa... Qo'rqqanida jon bor. Men bularni xayolimdan chaqmoqday tez o'tkazar, xulosa qilar ekanman, qidirayotganlardan biri:

- Ha, mana... – deya baqirdi.

Men so'radim:

- Bit emasmi?
- Yo'q.
- Unda nima u?..

Qidirilgan narsa yoqasidan chiqqan sartarosh alam bilan hayqirdi:

- Astagfirulloh, bu yerda bit yo'q... Bu bir kana...

- Kanami?
- Ha....

Yerda titrab yotgan mijozga o'girildim...

- Kana... Shukr-ey... - dedi. - Xudo haqqi, uni tutib, ezib tashlang! Kana bilan suvarakdan o'l-guday qo'rqaman!..

- ...

Boya uning po'stini ostida ezilay degan ozg'in malay yugurib keldi. Ko'zimizning oldida kanani tutdi. Yerga otdi. Ezdi. Titrog'i bosilgan dev sekingina o'rnidan turdi. Bo'ynidagi sochiqni olib, stolga uloqtirdi. Tezda kamzuli bilan po'stinini kiydi. Telpagini, o'sha dahshatli, katta cherkes telpagini boshiga kiydi. Sartarosh soqolini oxirigacha olib qo'yish uchun uni o'rindiqqa chorladi:

- O'tiring, bitirib qo'yaylik, janoblar!

Vaholanki, hech narsa uning qulog'iga kirma-yotgan, eshitmayotgan edi. Cho'ntagidan bir mafjidiya¹lik qog'oz chiqarib, g'aznaga otdi.

- Asablarim qaqshadi! Endi bu yerda o'tirol-mayman! - deya chala olingan soqoli, sovunli yuzi bilan ko'chaga otildi.

¹ Majidiya – qiymati 20 qurushga teng bo'lgan kumush pul. Sulton Abdulmajid zamonida zarb etilgan.

Barchamiz, ko'zgudagi esankiragan aksimiz bilan baravariga orqasidan qarab qoldik. Dahshatli momaqaldiroqdan keyin yangi chiqqan tonggi yulduz kabi sariq sochli kichkina qiz g'azna orqasida paydo bo'ldi. Lekin u bu gal nihoyatda xursand, shodmon edi. Bizning tikilib qarashimizga javoban go'zal boshini chayqab, jajji qo'llarini bir-biriga urgancha:

– Buni qarang-a! Buni qarang-a! – deya qahqa-ha otardi.

*Turk tilidan
Boboxon MUHAMMAD SHARIF tarjimasi*

YURAGIMNING BIR PARCHASI

Jo'ka daraxtining ostida boshini quyi solgancha buzoqchalarining arqonini ushlab yaltirbosh bolakay o'tiribdi. Yoshlangan ko'zlarini loy-balchiq qotib qolgan yalang oyoqlariga tikib o'y suryapti: „Bu chol dadamning xuddi o'zi! Oppoq sochlari... Qop-qora qoshlari... Keng burni... Chiroyli ko'zlar... Ovoziyam mayin, shirali... Ko'zimni yumib tursam tovushidan dadam deb o'ylayman!..“ Bola ko'zlarini yumdi.

– Men shuning uchun sizni bezovta qildim, azizim Kishvardi... Ortiq darmonim qolmadi. Umuman qo'ldan chiqib ketdi bu yaramas. Hamma bolalar bir go'r – kitobga yaqin yo'lamataydi, buyam shu. Kechasi-yu kunduzi mana shu buzoqlari bilan birga. Uchinchi sanada nima qilgannini bilasizmi? Gospodzedagi mahalla qudug'iga xumday tarvuzni uloqtiribdi! Mana, bir haftadan beri ikkita xonadon suv o'rniga sharbat ichib o'tiribmiz!..

– E Xudoyim-ey! Shunaqami, o'g'lim?! Mayli, siqilmang, azizam Yuliya. Men uni Guriyaga olib ketaman, chinorning uchiga oyog'idan osib qo'yaman. Qo'yday yuvosh bo'lib qoladi!

– Nimaga uni osib qo'yasiz bilmadim-u, lekin bir gap xayolimga keldi: onasining juda baxti kul-

gan ekan – bu yaramasni ko'rmay o'tib ketdi. Ayt-ganday, otasiniyam baxti kulgan...

– Nima deb o'ylaysiz, qadrdom Yuliya, uni eplay olarmikanman?

– Bilmayman, hech baloni bilmayman... O'zingiz o'ylab ko'ring: yaqinda uni tegirmonga ber-gandim. Eng zo'r, saralab qo'yilgan makkajo'xori-ni o'g'irlab gumdon qilgan. Qolida besh funt, yelkasida un bilan qaytib keldi. Qolgan narsa-larni Valiko Kukulashvilining sayoq arzandalari-ga bo'lib bergen, menimcha. „Bola-chaqam ko'p, och-nahor o'tiribdi“, deb zorlanardi bechora. Eh, tavba-yey!

– E Xudoyim-ey! Shunaqami, o'g'lim?!

– Bu hali holvasi! Avvalgi kuni Kukuri Ugula-va degan betayin o'rtog'i bilan o'zining geografiya o'qituvchisi Datiko Sveravaning bog'iga o'g'irlikka tushgan. O'ylaganiyam qo'rqib ketasan odam!.. Shaftoli terishgan-da, olib borib tovuqqa almash-tirishgan! Eh, tavba-yey!

– E Xudoyim-ey! Shunaqami, o'g'lim?!

– Ha, buncha „shunaqami“, „shunaqami“ deb takrorlab qoldingiz! Meni aldayapti deb o'layapsizmi?

– Nega endi, nega endi, azizam Yuliya! Nahot-ki, uni bu yo'dan hech qachon qaytarib bo'lmasa?! Nahotki, diydasi qotib bo'lgan bo'lsa?!

– Yo'q, nima deyapsiz... Uni qutqarish mum-kin, albatta. Ammo bunga mening qurbim yet-maydi. Buning uchun erkak kishining qattiq qo'li kerak. Bundan tashqari, peshanamda yana ik-kitasi bor – Zurab bilan Vaxtang, Koliginamning bolalari, ular sal tuzuk.

– Hm... Nima desam ekan sizga, azizam Yuliya. Ota-onasi hayotlik payti meni bolaga zig'ir-chayam yaqinlashtirmsadi. Men unga begonaman, tushunyapsizmi, begona!..

– Bunday demang, azizim Kishvardi. U nima qilsayam o'g'il bola, erkak bilan erkakning til to-pishishi osonroq... Buning ustiga u naslingiz davomchisi...

– Ha, albatta... O'qishlari qanaqa uning, azizam Yuliya?

– Hm!.. O'z o'qituvchisining bog'iga o'g'rilikka tushgan, „Dekameron“ degan uyatli kitob uchun buvisining kumush qoshiqlarini sotib yuborgan bolaning o'qishi haqida nima ham deyish mumkin?! Bir o'ylab ko'ring-chi o'zingiz, azizim Kishvardi!

– Shunaqami, o'g'lim?! Bo'ldi! Uni Guriyaga olib ketaman, chinorning uchiga oyog'idan osib qo'yaman!

– Buni qarang, biz uning tashvishini chekayotibmiz, pinaginiyam buzmaydi-ya! Kimga gapiryapsan demaydi!

Bola jo'ka daraxtining ostida ko'zlarini yumib o'tirar va o'yldi: „Bechora Yuliya buvim char-chadi. Oldin ovozi qanaqangi yoqimli edi, hozir shang'illaydi. Yo menga shunaqa tuyulyaptimikan? Bobom bo'lsa shoshmasdan, hovliqmay gapiryapti... Ha, ko'rinish turibdi, buvim char-chagan. Agarda meni hozir bobom bilan jo'natib yubormaganda edi, hech qachon uni qiynamagan bo'lardim. Qaniydi... Qaniydi...“

– U yetim, azizam Yuliya... Faqat jazolash yaramaydi, mehr ham kerak.

- Yetimdan yetimning farqi bor! Keragicha mehr ko'rsatdim, qani bilsa! Mehrmish-a...
- Shunaqami, o'g'lim?! Men uni Guriyaga olib ketaman, oyog'ini osmonga qilib osib qo'yaman... Qachon olib ketishim kerak, azizam Yuliya?
- Hoziroq! Tayyorlanishiga hech qancha vaqt ketmaydi.
- Shunaqa deng... Hech narsasi yo'q-da, a?
- O'tgan yili Avchaladan qanday olib kelgan bo'lsm shunday yuribdi, azizim Kishvardi... Xoh-lasangiz o'zingiz shohona sarpo olib berarsiz...
- Bechora bolam...
- Yo'l oldidan ovqatlanib olsalaring bo'lardi, azizim Kishvardi...
- Yo'q, sira tashvishlanmang, azizam Yuliya... Samtrediada tamaddi qilib olamiz, uyog'iga Xudo poshsho.
- Ixtiyorингиз... Oq yo'l sizga. Xizr yo'ldoshingiz bo'lsin!..
- Xudo quvvat bersin, azizam Yuliya!..
- Aytmoqchi, mana bularni ham oling.
- Nima bu?
- Uning har xil hujjatlari. Menimcha, sentabrdagi maktabga olib borasiz. Shunga kerak bo'ladi. To'rtinchisinfga o'tdi... Ma'lumotnomada xato ketib qolgan: Lomjariya Nodari o'rniga Lomjariya Nadiri deb yozishibdi. Menimcha, bu xato emas, aslida, to'g'ri yozishgan.
- Shunaqami, o'g'lim?! Men uni Guriyaga olib ketaman, chinorning uchiga oyog'idan ilib qo'yaman...
- Qayeridan ilsangiz iling, lekin ortiq ko'zimga ko'rinsama bo'lgani.

- Oyog'idan ilaman, oyog'idan...
- Xudo quvvat bersin.
- Uni shunday ko'yga solayki, holiga maymunlar yig'lasin.
- Xo'p, xayr bo'lmasa, azizim Kishvardi, yana ko'rishamiz.
- Yaxshi qoling, azizam Yuliya.

Mazkur oldi-berdi marosimi 1938-yil avgust kunlarining birida, tush payti Xoni qishlog'ida Nodar Lomjariyaning buvisi, yanada aniqrog'i, onasining onasi – qadrli Yuliya Mikeladze va guriyalik bobosi, aniqrog'i, otasining otasi – janob Kishvardi Lomjariya o'ttasida bo'lib o'tdi.

Bir soat o'tgach bola, aniqrog'i, 1928-yilning 14-iyulida Tbilisi shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan Nodar Lomjariya tandirday qizigan tuproq yo'l bo'ylab bobosining ortidan g'amgin sudralib borardi...

* * *

Bobo bilan nevara Xonidan Kulashgacha foytunda, Kulashdan Samtrediaga lineyka¹da yetib olishdi. Keyin tamaddi ham qilmasdan Choxatauridan o'tadigan choy fabrikasining yuk mashinasiga chiqishdi. U yerdan Intabueti qishlog'igacha piyoda ketdilar.

Bobo oldinda, nevara esa orqada ketib borardi. Bobo keksalarga xos xasta tovushda yo'taldi, ihradi. Ro'paradan kelayotgan yo'lovchini ko'rib jim qoldi, tezda imo-ishora bilan salomlashdi-da,

¹ Lineyka – lineyka (ko'p o'rinli uzun arava).

so'ng yana yo'taldi, ihradi. Gohida u bolaga jimgina tikilib qoladi. Bu xuddi so'nggi surriyotini yo'qotishdan qo'rqqan qari otning nigohiga o'xshaydi.

Bola qadam tashlar va yo'lda ketar ekan shunday o'ylardi: „Bechora chol nimjon, kasalmand... U meni daraxtga oyog'imdan osib qo'yemoqchi... Bu chol – mening bobom. Dadamning dadasi. Bobom! Uning ortidan ergashib yurishga meni nima majbur qilyapti? Xuddi qulga o'xshab indamay, xo'mrayib ketyapman. Ikki marta sakrasam – tamom! Nima meni ushlab turibdi? Charchab, ochqab, issig'-u chanqoqdan o'ladi-gan bo'ssam ham qochib ketmayman. Nega? Bu kuchning nomi nima?“

– Nimalar haqida o'ylayapsan, o'g'lim? – o'girilib savol berdi chol.

– Hech narsa haqida o'layotganim yo'q! – dedi dovdirab qolgan bola. U hamma narsani kutgandi, lekin bunaqa savolni emas.

Chol yo'lning chekkasiga borib o'tirdi. Yo'ta-lib, nafasini rostlab olgach, bolaga tikildi, keyin barmoqlarini bukib, sanashga tushdi: 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38.

– Yigirma sakkizinchchi yili tug'ilganding. Hozir o'ttiz sakkizinchchi yil. Demak, o'n birga kiribsan... Kap-katta yigit bo'lib qolding... Qanday qilib hech narsa haqida o'ylamasliging mumkin? Yo o'z bo-bongdan yashirasammi?

– Yo'q, nega endi, hech narsa haqida o'ylaganim yo'q edi.

– O'ylaydigan vaqting kelgan, o'g'lim, vaqting kelgan.

Chol yo'talib, inqillab turdi-da, yo'lida davom etdi. Bola bobosining ortidan xuddi yuki og'ir aravaday boshini egib, qulog'ini ding qilib qadam tashlardi...

* * *

Oftobda qoraygan, sochlari hurpaygan bola chinnor tagida belkurakka suyanib turibdi, ko'zlarini loy-balchiq qotib qolgan yalang oyoqlariga tikkancha o'y suryapti: „Bir yilning ichida butkul qarib, munkayib qolibdi. Yuzida ajin to'la. Ovozi qanaqadir bo'g'iq. Lekin baribir u mening ayamga – yosh, chiroyli, muloyim, qorako'z, mehribon ayamga o'xshaydi. Qadam tashlashiyam, ovoziyam... Ko'zimni yumib tursam tovushidan ayam deb o'layman!..“ Lekin bola ko'zlarini yummadi. Qo'rqib ketdi.

– Tinchimni yo'qotdim, azizim Kishvardi! Onasining bezovta nigohi o'ngimdayam, tushimdayam namoyon bo'lyapti... Uning ovozi har qadamda meni ta'qib qiladi... Uni olib ketgan kuningizdan beri yuragim sug'urib olinganday tentirab yuraman... Bolani menga qaytaring, azizim Kishvardi!..

– Hm... U, azizam, sizdan olgan vaqtimda bola edi. Hozir kap-katta yigit, hamma narsani o'zi hal qiladi. Agar siz bilan ketishni istasa, men hech qanday qarshilik bildirmayman.

– U mendan xafa... Uni men bilan qaytishga ko'ndira oladigan yagona odam sизsиз, azizim Kishvardi...

– Axir unga o'xshaganidan sizda yana ikkita bor-ku, qadrdonim Yuliya... Hech bo'lmasa bittasini menga qoldiring!

- Nahotki gap sonda bo'lsa?! O'nta bo'lsa o'rni, qirqta bo'lsa qiling'i boshqa. U mening nabiram, qadrdonim Kishvardi!
- Shundayku-ya... Lekin men nima qilishim kerak? Axir o'limimdan keyin avlodimizni davom ettiradigan yagona merosxo'rim u...
- Men uning familiyasini o'zgartirmayman! Mayli, ikkita Lomjariya bo'la qolsin, lekin uni menga qaytaring.
- Demak, bolani olib ketgani kelibsiz-da, azizam Yuliya?!
- Narigi dunyoga gunoh bilan ketishimga yo'l qo'y mang! U yerda onasining ko'ziga qanday qarayman?!
- E, azizam Yuliya, Xudo bilar kim oldin ketar. Agarda men sizdan oldinroq o'ssam, onasi bilan dadasingning ko'ziga qanday qarayman?
- Xudo umringizni uzoq qilsin, Kishvardi.
- Dalam ham, uzumzorim ham, tegirmonim ham, qabrim ham, xokim ham mana shu bolani-ki... Yo'q, o'ssam ham uni sizga bermayman!
- Bo'lmasa men o'zimni o'ldiraman. Hoziroq, ko'zingizning oldida!
- Xudo xayringizni bersin, azizam Yuliya, nimiralar deyapsiz!.. Buvung bilan ketasanmi, o'g'lim?
- Rostini aytarmidi... U sizdan iymanyapti!
- Shunaqami, o'g'lim?!
- Unga ona mehri kerak, azizim Kishvardi! Oq yuvib, oq tarash lozim. Siz onasining o'rini bosa olarmidingiz?..
- Nimalar deyapsiz... Men u bilan shu paytga-cha, Xudoga shukr, yomon yashamadim... Loaqal sizni yordamga ham chaqirmadim-ku...

– Siz haqsiz, siz haqsiz, azizim Kishvardi. Le-kin baribir... Bolaning oyoqlarini uyqudan oldin yuvish, maktabga kuzatib qo'yish... Bular erkak-larning ishi emas!..

– Bizning maktab azobxona emas... Unaqa narsalar sizlarning maktablariningda edi, bolani yovvoyiga chiqarishgandi, eslashimcha, siz ham ularning fikriga qo'shilgan edingiz...

– Nega o'shanda tilim uzilib tushmadi ekan, a!

– U mening qo'limda farishtaga aylanib qolma-gan, shaftoli o'g'irlashni ham tashlagani yo'q...

– Quyilib qolar!

– Yoki endi un ulashmay qo'ydi deb o'ylayap-sizmi?

– E, uniyam boshida qolsin! Hamma narsam uniki, menga desa xonumonimga o't qo'yib yu-bormaydimi – g'iring demayman!

– Chekyaptiyam, yaramas!

– Shunaqami, o'g'lim?!

– Siz, mana, mendan so'rang! Tamaki xaltam-ni ham, hamyonimni ham ship-shiydam qildi!

– Mayli, sog'liq uchun oz-moz chekib tursa hechqisi yo'q. Axir o'zingiz aytdingiz-ku, u endi kap-katta yigit!..

– Yana bir oy sabr qiling. Pilla tutganim uchun mukofot puli olaman, keyin bolani yaxshilab ki-yintiraman... Bunaqa juldurvoqi ahvolda sizniki-ga ketmaydi!

– Siz faqat javob bering. Kiyim, poyabzal olib berish – mening ishim! O'zimnikini yechib bo'lsa ham unga kiydiraman!

– Hm, sizning kiyimlaringiz unga rosa loyiq tushadi!

- Albatta, sizga hazil, o'yin-kulgi. Mening esa yuragim qon bo'lib ketyapti!
 - Axir, aytdim-ku: u allaqachon kap-katta yigit bo'lgan. O'zi hal qilsin!
 - Siz – uning uchun avliyo darajasidasiz, nima desangiz ishonadi, nimani qil desangiz qiladi... Ayting unga, azizim Kishvardi!..
 - Xudodan qo'rqsangiz-chi, azizam Yuliya. Axir, qanday qilib o'z jigarbandimga, tomirida qonim oqib turgan shu bolaga uyimdan ket deb ayta olaman?!
 - Nima, men unga begonamanmi? Axir, u mening ham jigarbandim, yuragimning bir parchasi. Xudo biladi, bir yil umrim qoldimi-yo'qmi. O'tinaman sizdan, ajalimdan besh kun burun o'dir-mang, bolani menga baxshida qiling!
 - Azizam Yuliya!
 - Oldingizda tiz cho'kaman, tiz cho'kaman!..
 - Nimalar qilyapsiz! Turing o'rningizdan! Xudo xayringizni bersin!..
 - Ey qodir Xudoyim, unga baxt-u saodat nasib ayla!
 - Endi mening ortiq shodligim ham, baxtim ham qolmadi...
 - E bor Xudoyim...
 - Buvung bilan ket, o'g'lim...
- Mazkur suhbat biz boshda hikoya qilgan bo-bo-buvi ishtirokidagi voqealardan rappa-raso bir yil o'tgandan keyin sodir bo'ldi. Bu galgi jaryon oldi-berdi marosimi emasdi. Bu ikki qaynoq qonning to'qnashuvi, ikki olovli yurakning volasi edi. Bu ikki mehr o'tining kurashi sabab bolanning yuragi shiddat bilan tepa boshladi, tomog'i-

ga allanarsa tiqilganday bo'ldi, tanasini sovuq ter bosdi, titroq butun vujudini lovullatib yubordi. Qandaydir ko'rinxmas kuch uni zarb bilan buvisi tomon tortardi, biroq xuddi shunday shiddatkor ohanrabo uni bobosi tomon yetaklardi. Bola bir necha bor shunday og'riqni his qildi – go'yo uning vujudi qaynoq suv ichida qolganday bo'ldi. Chol bilan kampir o'rtasida kechgan qizg'in, shiddatli bahs tugamaguncha bolani qandaydir qo'rquv, allaqanday ko'ngilsizlikni kutish azobi tark etmadi.

Buvi o'rnidan turib bolaga yaqin keldi, uni quchog'iga oldi.

– Bolaginamdan yodgorim, ko'zlarimning nuri, yuraqol men bilan, kemtik bag'rimni to'ldir, bolajonim!..

Kampir yig'ladi, uning issiq ko'z yoshlari bolaning boshiga tomchiladi. O'pkasini bo'shatib olgach, bolani sekingina bag'rige tortdi, biroq u xuddi temir qoziqday, tomirlari yerning qa'r-qa'riga singib ketgan daraxt singari joyidan jilmay, harakatsiz turardi.

– Buvung bilan ket, o'g'lim, bechora buvingni xafa qilma... Diydoringga to'yib olsin, keyin mening oldimga yana qaytib kelasan... Men ungacha seni kutib o'tiraman, g'amga to'lib o'tiraman... Sen nima deb o'ylaganding? Mana shunaqa, nevara bo'lish osonmas! Og'ir, juda og'ir, ayniqsa men bilan buvingga o'xshagan dardibedavolarning neverasi bo'lish juda qiyin... Boltang, belkuring, ketmoning, to'qmog'ing, savating, sigiring, aravang hech qayoqqa ketmaydi, ular sening qaytishingni kutadi...

Bola boboning so'zlarini eshitib hayron qoldi: bolta, ketmon, belkurak, savat hovlining boshqa-boshqa tomonida ag'anab yotardi, sigir, arava, echki bo'lsa umuman boshqa tarafda edi, lekin bobo ularga qaramay qo'li bilan turgan joylarini aniq ko'rsatib berardi. Bobo so'zida davom etdi:

– Mana sumkang, darsliklaring – gruzin tili, tarix... Yana nimang qoldi? Hech nima... Shiming, ko'ylaging, shippaging – egningda. Samtrediagacha yalangoyoq ketgin, bo'lmasa shippaklaring uygacha yetib borishingga chidamaydi. Bo'pti... Bo'l endi tezroq!

* * *

Kishvardi Lomjariya nevarasi hozir temir qoziqqa, tomirlari yerning qa'r-qarigacha singib ketgan daraxtga aylanganini tushundi, juda-juda chuqur ketgan bu tomirlarni oddiy nasihat bilan sug'urib bo'lmasdi. Boshqacha yo'l tutish kerak edi. Lekin qanaqa?

Kishvardi Lomjariya nevarasi girdobning o'rta-sida chirpirak bo'layotganini, ikki avlodning shiddatkor, jangovar qoni uni ikki tomonga zarb bilan tortayotganini ham angladi. Ularning qaysi biri ustun keladi? Qay bir qon g'alaba qozonadi? Bu kurash nima bilan tugashini kutish foydasiz... Ularning qaysidir biri qaynoq qonlar ko'pirayotgan kurash daryosini yorib chiqishi, yangi o'zanga qarab oqib ketishi kerak.

Va nihoyat... Kishvardi Lomjariya buvidan oldinroq harakat qildi:

– Xo'sh, yana nimani kutyapsan? Sen bilan aytishishdan charchadim!

Bola bobosiga qo'rqa-pisa qaradi.

– Jo'na, orqangga qayrilib qarama! Tushuningmi?!

Bolaning qalbini bobosiga bo'lgan qattiq achnish va buvisiga bo'lgan shafqat hislari birvara-kayiga zabit etdi. Ich-ichidan to'lib kelayotgan yoshlar bolaning ko'zini xira parda bilan qopaldi, boshi o'z-o'zidan ko'ksiga egilib qoldi, bir og'iz so'z aytmasdan xuddi yuki og'ir aravaday Choxataurning tuproq yo'liga burildi. Qarib-munkillab qolgan, boshdan oyoq qora kiyingan buvisining ortidan ergashdi...

Kishvardi Lomjariya toshning ustiga borib o'tirdi-da, mis idishdagi suvning qaynashini kuta boshladи.

Kishvardi Lomjariya olovga tikilgancha xayol surardi. Ayni damda noxush o'ylardan qutulishga, ulardan yashirinishga urinardi. Lekin o'zing dan qayerga qochasan? Axir, odam ojiz bandaku... „Bolani berib yubormaslik kerak edi... Lekin kampirning anduhiga dosh bera olmadim... Endi bo'lsa o'zim xuddi o'shanday holatga tushib o'tiribman. Keyingi hafta kampirnikiga boraman, bolani qaytarib berishini so'rayman. Bermasa, kuch bilan olaman... Aytaman, „Jigarbandimni, yuragimning bir parchasini, tomirimdagи qonimni tortib olishga nima haqqing bor?! Axir, sen Xudo emassan!“ Lekin... u ham menga xuddi shu so'z-lar bilan javob qaytarishi mumkin-ku! Axir men ham ojiz bandaman... Axir, bola menga qanday rishtalar bilan bog'langan bo'lsa, unga ham shun-

day yaqin-ku. Eh, odam bo'lish qiyin, judayam qiyin. Ahvolim Yaratganga ayon, bandangga o'zing rahm qil Xudoyim... Keyingi hafta boraman-da, kampirning oyoqlariga yiqlaman. Yo'q, bir haftagacha sabr qilolmayman... Ertadan keyin boram... Yo'q, ertagayoq! Ertaga azon payti yo'lga tushaman. E Xudo, tezroq tong ota qolsaydi..."

Kishvardi Lomjariya toshda o'tirib shunday o'ylar surardi. Mis idishdag'i suv qaynagan payti darvoza to'satdan ochildi, bo'sag'ada bolaning egilgan boshi va yelkasiga boylangan shippaklari ko'rindi.

- E Xudo! O'zingga shukur!
- Men qaytdim, - pichirladi nevara.
- Qaytishingni bilardim, - dedi bobo.

So'ng mis tog'oraga qozonchadan issiq suv quydi-da, nevarasining horg'in oyoqlarini uzoq vaqtgacha yuvdi. Keyin unga deb so'riga joy soldi, o'zi bo'lsa kichkinagina uychasiga uxlagani kirib ketdi. Cholni yarim kechasi bolaning ovozi bezovta qildi:

- Bobo, siz bilan yotsam maylimi?
- Kel, o'g'lim.

Bola bobosini quchoqlab oldi.

„Bechora, hamma yog'i muzlab qolibdi!“ – o'y-ladi nevara.

„Qanaqa tafti bor, a!“ – o'yladi bobo.

Biroz vaqt o'tgandan keyin bobo so'radi:

- Bilasanmi, seni nima qaytardi?
- Yo'q!
- Bilib ol, o'g'lim, tomiringda oqib turgan qon seni men tomon yetakladi. Qon, yurak qoni shunaqangi katta kuch, o'g'lim!..

Keyin butun tun davomida ular bir og'iz ham gapirishmadi. Hech nima haqida o'ylamadilar, hech nima haqida gapirmadilar.

Bobo va nevara shirin uyquga ketdi...

Ikki tanada oqqan bir xil qon – mehr qoni o'y-ladi, gapirdi. Lekin u nimalar haqida o'yladi, ni-malar haqida gapirdi – yolg'iz Xudogagina ayon!..

*Rus tilidan
Orif TOLIB tarjimasi*

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
Ahmad Dovari. Deraza ortidagi shamol.	
<i>Fors tilidan Bashorat Otajonova tarjimasi</i>	5
Xusrov Shohoniy. Qarz.	
<i>Rus tilidan Abdumurod Ko'chiboyev tarjimasi</i>	12
Anil Chandra. Ikkinchı hayot.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	20
Kiran Kumar. „Meni qo'llaringda ko'tarib ol“.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	25
Anil Chandra. Baxt keltirgan shabnam.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	30
Anju Kotvani. Yaratganning yerdagi farishtasi.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	35
Kiran Kumar. So'nggi sovg'a.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	38
Anil Chandra. Iyulning mayin shabbodasi.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	40
Karim Mallesh. O'zgargan qaror.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	47
Karim Mallesh. Ranglar bahsi.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	50
Abu Ammar. Besh daqiqa.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	53
Abu Ammar. Yurakdagı nihollar.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	55
Aziz Nesin. O'zing aybdorsan.	
<i>Shodmon Otabek tarjimasi</i>	60

Faqir Boyqurt. Otamning ishi.	
<i>Miraziz A'zam tarjimasi</i>	68
Yashar Kamol. Xanjar.	
<i>Turk tilidan Maryam Osiyo tarjimasi</i>	78
Parvin Nuraliyeva. Shirinlik.	
<i>Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi</i>	82
Firuz Mustafo. Ummon sohilidagi tanishuv	
<i>Ozarbayjon tilidan Feruzbek Ziyodullayev tarjimasi</i>	93
Umar Sayfiddin. Jasorat	
<i>Turk tilidan Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi</i>	101
Nodar Dumbadze. Yuragimning bir parchasi	
<i>Rus tilidan Orif Tolib tarjimasi</i>	111

Adabiy-badiiy nashr

IKKINCHI HAYOT

Hikoyalar

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

*Charosxon Raxmonova
Nasiba Ergasheva
Chamangul Saydazzamova
Lobar Narziqulova*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
09.09.2022-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi
84x108¹/₃₂. Ofset qog'ozи. „Bookman Old Style“ garniturasida
offset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 6,72.
Adadi 1000. Shartnomा № 39-22.
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodи“
bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ, Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Cho'ponota ko'chasi, 28-a uy.

„Yangi asr avlodи“ MCHJ Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Qatortol ko'chasi, 60-uy.



ikkinchì hayot

Hikayat



ZIYO NASHR



fb.com/zoyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



SCAN
ME

ISBN 978-9943-8578-2-7

9 789943 857827